

**X. S. MUXITDINOVA, Ya. I. AVLAKULOV,  
D. A. NURIDDINOVA**

# **O‘zbek tili**

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi  
ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan  
maktablarning 6- sinf o‘qituvchilari uchun  
metodik qo‘llanma sifatida tavsiya etgan*

TOSHKENT  
«YANGIYO‘L POLIGRAF SERVIS»  
2013

UDK: 811.512.133(072)  
74.268.1 O'zb.  
M-92

**MUXITDINOVA X.S.**, O'zbek tili: ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 6- sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma/ X.S.Muxitdinova, Ya.I.Avlakulov, D.A.Nuriddinova. - T.: «Yangiyo'l poligraf servis», 2013. — 144 bet.

I. Muxitdinova X.S.

KBK 74.268.1 O'zb

**Taqrizchilar:**

1. **Lafasov O'** — TDSHning "O'zbek tili" kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi;
2. **Yunusova L** — Toshkent shahar Hamza tumanidagi 145-maktab o'qituvchisi;
3. **Ahmedova K.** — Sirdaryo shahridagi 11- maktab o'qituvchisi.

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari  
hisobidan ijara uchun chop etildi.*

ISBN 978-9943-366-97-8

«Yangiyo'l poligraf servis», 2013

## UQTIRISH XATI

O‘zbek tili — O‘zbekiston Respublikasining davlat tili, shu bois ta’lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan umumta’lim maktablarida o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitilishiga katta e’tibor qaratilgan. Ushbu maktablarda o‘zbek tili fanini o‘qitishdan ko‘zda tutilgan maqsad turli millat vakillarining o‘zbek tilida o‘z fikrini mustaqil holda og‘zaki va yozma bayon etishlari, turli mavzularda erkin muloqot yuritishlari va savodli yoza olishlariga erishishdan iborat.

Buning uchun o‘quvchilar:

— o‘zbek tilidagi nutqni tushunish, kundalik ijtimoiy mavzularda o‘z fikrini erkin bayon qila olish va muloqotga kirisha olish, savodli yoza olish malakasiga ega bo‘lishi;

— Davlat ta’lim standartlarida belgilab qo‘yilgan me’yor darajasida so‘z boyligiga ega bo‘lishlari, ushbu so‘zlarning muayyan grammatik shakllarini o‘zlashtirishlari va ularni o‘z nutqiy faoliyatlarida turli vaziyatga mos ravishda qo‘llay olish ko‘nikmalarini egallashlari;

— o‘quvchilarga mashqlar va adabiy o‘qish uchun berilgan matnlar asosida milliy istiqlol g‘oyalarini, milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga hurmat, ajdodlarimiz meroslarini qadrlash tuyg‘ularini singdirish, vatanga sadoqatli, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan har tomonlama yetuk bilimdon yoshlarni tarbiyalash talab etiladi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko‘zda tutiladi:

— ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili fanini o‘qitishda, avvalo, ta’lim bosqichlariaro uzluksizlikka amal qilish, ya’ni 6- sinf uchun rejalashtirilgan o‘quv dasturi boshlang‘ich sinflar uchun o‘zbek tilidan o‘quv dasturining tadrijiy davomi va ayni paytda 6- sinf uchun asos bo‘lishiga erishish;

— mavzulararo izchillik va uzviylik tamoyiliga to‘liq rioya qilish, nutqiy mavzular, grammatik mavzular hamda adabiy o‘qish materiallarining muayyan izchillikda va o‘zaro uzviy bog‘liqlikda berilishiga erishish.

— mashqlar, matnlar va adabiy o‘qish materiallarining osondan qiyinga, oddiydan murakkabga tomon tadrijiy o‘stirib borishiga e‘tibor qaratish, ularning o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishini ta‘minlash;

— o‘zbek tili ta‘limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot vositalaridan foydalanishga qaratilgan mashqlar, topshiriqlar tizimini yaratish va dars ishlanmalarida ulardan foydalanishning samarali yo‘llarini ko‘rsatib berish;

— o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadigan ijodiy va vaziyatli topshiriqlar tizimini yaratish, har bir mavzuga ijodkorlik bilan yondashishga o‘rgatish;

— o‘quvchilarni dars jarayonida yakka tartibda mustaqil, ijodiy, guruhlar bilan va hamkorlikda ishlashga o‘rgatish, suhbatdoshlari bilan muloqotga kirishish, suhbat jarayonida o‘z fikrini bildirish va o‘zini qiziqtirgan ma‘lumotlarni so‘rab bilib olishga o‘rgatish.

Mazkur metodik qo‘llanma ana shu tamoyillarga asoslanib tuzilgan bo‘lib, ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 6- sinfi uchun yangi o‘quv dasturi asosida yaratilgan "O‘zbek tili" darsligiga to‘la muvofiq holda tuzildi. Xususan, qo‘llanma quyidagi tuzilishda yaratildi:

1. Metodik qo‘llanmada 6- sinf o‘quv dasturi va u asosida yaratilgan darslikda berilgan 24 ta nutqiy mavzu izchillik va uzviylikda yoritildi, har bir mavzu uchun dars ishlanmalari o‘quv dasturida tavsiya qilingan dars soatlariga mos tarzda tuzildi.

2. Har bir nutqiy mavzuni o‘qitish metodologiyasiga oid yo‘llanma va tavsiyalar berildi. Buning uchun har bir mavzu bo‘yicha mavzuni o‘qitishning texnologik xaritasi berilib, unda ta‘lim shakli, metodlari, vazifalari va natijalari to‘liq bayon qilindi.

3. Har bir mavzuning ta‘limiy va tarbiyaviy maqsadlari, ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun qo‘llanishi kerak bo‘ladigan yangi pedagogik usullar, vizual vositalar, didaktik o‘yinlardan turli dars bosqichlarida samarali foydalanish yo‘llari ko‘rsatib o‘tildi.

4. Grammatik mavzular bo'yicha beriladigan ma'lumotlar ilmiy jihatdan asoslangan va 6- sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos ravishda qoidalarining qisqa, ixcham berilishiga, sodda va ravon tilda tushuntirilishiga e'tibor qaratildi.

5. Darslikda nutqiy mavzularni ham, grammatik ma'lumotlarni ham o'zaro uzviylikda va bog'liqlikda berish masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi va buni amalga oshirish yo'llari hamda shu orqali erishiladigan samarali natijalar aniq ko'rsatib o'tildi.

6. Hozirgi kunda ta'lim tizimida ko'plab yosh o'qituvchilarning faoliyat yuritayotgani e'tiborga olinib, dars ishlanmalarida har bir dars rejasi to'liq va keng berildi. Tajribali o'qituvchilarning ijodiy yondashish va ta'lim mas-kani shart-sharoitidan kelib chiqib, dars rejasi va dars jara-yonini yanada takomillashtirishlari, o'z o'quvchilariga moslab qo'llashlari ko'zda tutiladi.

### **Adabiy o'qish materiallaridan foydalanish**

O'quvchilarni nutqiy mavzuga mos o'zbek bolalar shoir-lari va yozuvchilarining ijodlaridan namunalar: hikoyalar, she'rlar, rivoyatlar, masallar va ertaklar bilan tanishtirish orqali o'quvchilarga milliy qadriyatlarimizni singdirish, ayni paytda ularning so'z boyligini oshirish, turli mavzularda erkin muloqot yuritishga o'rgatishda adabiy o'qish material-larining ahamiyati nihoyatda katta.

Adabiy o'qish materiallari va ijodiy savollar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, olgan taassurotlarini umumlash-tirishga, ijobiy va salbiy qahramonlarga munosabat bildi-rishga, ulardan xulosa chiqarishga o'rgatadi. O'qigan hikoya, ertaklarni qayta so'zlab berish, she'rlarni yodlatish o'quv-chilarning nutqini boyitadi, so'z boyligini oshiradi.

Qo'llanmada o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'ti-borga olingan holda vaziyatli topshiriqlar, test va bosh-qotirmalar yechish, rasm ustida ishlash, maqollardan foy-dalanish, berilgan matnlar va topshiriqlar orqali o'quvchi-

larni mustaqil fikrlashga yo'naltirish ularning o'zbek tili faniga qiziqishlarini orttirishga yordam beradi. Barcha mashqlar va topshiriqlar DTSning 6- sinflariga qo'yilgan talablarga mosdir.

Ayni paytda tavsiya qilinayotgan matnlarda shu mavzuda berilishi kerak bo'lgan grammatik shakllar bo'lishiga alohida e'tibor qaratildi. Natijada har bir mavzu 2 darsga bo'lingan bo'lsa-da, bir yo'nalishda ketadi va bir umumiy maqsadga bo'ysundiriladi. Darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, turli o'yinlardan, test topshiriqlari, qo'shimcha didaktik materiallar, texnika vositalari yordamida hamda ta'limning interfaol innovatsion usullaridan foydalanishga harakat qilindi. Ayrim dars ishlanmalari loyihalashtirish metodida tavsiya etildi. Bu o'qituvchilarning o'zi ustida ishlashlariga, o'zlarining ijodkorlik qobiliyatlarini namoyish etishga, ayni paytda o'quvchilarning iqtidorlarini ham aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi.

### **Ta'limiy didaktik o'yinlar va pedagogik metodlarni tatbiq etish**

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari o'quvchilarning egallayotgan bilimlari mustahkam bo'lishiga, ularning qo'shimcha adabiyot o'qib, mustaqil izlanishlariga, lingvistik materialni o'zlari qiyosiy tahlil qila olishlari va ular asosida xulosa chiqarishga o'rgatadi. Shu bois ta'lim metodlariga jiddiy e'tibor berish hozirgi kun talablariga aylandi.

Odatda, darsning ta'limiy maqsadiga bir emas, bir necha metodlardan foydalanish evaziga erishiladi. Buning uchun o'qituvchi o'zi tanlagan metodining avval darsda berilishi ko'zda tutilgan bilimlar, o'quvchilarga egallashi kerak bo'lgan malakalarga qanchalik mosligini, so'ngra kuzatishlar asosida ushbu metodning dars jarayonidagi samaradorlik darajasini aniqlaydi. Agar samaradorlik darajasi pasaysa yoki o'sish kuzatilmasa, darrov metodni o'zgartirish lozim bo'ladi.

Jumladan, yangi mavzu bayoni bosqichida muammoli

vaziyat hosil qilish uchun "Aqliy hujum", "Klaster" metodlaridan, rolli o'yinlar, zaruriyat tug'ilganda an'anaviy tushuntirish metodidan, shuningdek, o'quvchilarni baholashda BBB usulidan foydalanish tavsiya etildi.

Har bir darsni turli va eng yaxshi saralangan o'qitish metodlarini qo'llagan holda tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil aqliy faoliyatini faollashtirishga, ularning nazariy bilimlarni to'liq o'zlashtirishlariga yordam beradi, o'z kasbiga qiziqishi ortib borishiga olib keladi. Bu darslarda berilayotgan ilmiy-nazariy bilimlar yordamida o'quvchida mustaqil fikr hosil bo'lishiga sharoit yaratiladi. Aksincha, bir xil metodning qo'llanaverishi yoki metodning noto'g'ri tanlanishi esa o'quvchilardagi qiziqishni so'ndiradi, ularning aqliy faoliyatini susaytiradi. Bu o'rinda shuni alohida qayd qilib o'tish kerakki, o'qituvchi interfaol usullarni qancha ko'p bilsa, o'z faoliyatida faqat yagona bir metodning o'zi bilan chegaralanib qolmaydi, pedagogda ularni bir-biriga qiyoslab, darsning ta'limiy maqsadlariga muvofiq'ini tanlab dars o'tish imkoniyati paydo bo'ladi.

Demak, o'qituvchi bir emas, bir necha pedagogik usullarni yaxshi bilishi va zaruriyat tug'ilganda ularni o'zaro qiyoslab, darsning turli bosqichlarida almashtirib qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Xususan, quyi sinflarda ta'limiy didaktik o'yinlardan foydalanish muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, o'yin dunyoni va o'zlikni anglashda, qiziqishlarini qondirishda, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillatishga, o'quvchilarni darsga to'liq jalb etishga yordam beradi.

**O'ZBEK TILI o'quv fanidan uzviylashtirilgan  
6- sinf uchun o'quv dasturi asosida taqvim-mavzu reja**

Dars tartibi	Darsning nomi	Dars soati
	I chorak (18 soat)	
1-2	Obod o'lkam. Aniq va mavhum otlarining qo'llanishi.	
3-4	Oromgohda. O'rin - joy otlari, ularning yasalishi va qo'llanishi.	2
5-6	Bilim - xazina. Kasb-hunar otlari, ularning yasalishi va qo'llanishi	2
7-8	Sinf rahbari. Narsa-buyum otlari, ularning yasalishi va qo'llanishi.	2
9-10	Xatolar ustida ishlash	2
11-12	Adabiyot muzeyida. Otlarda -day, -dek, kabi, xuddi shakllarining ishlatilishi.	2
13-14	Men sevgan ko'rsatuv. Egalik qo'shimchalari bilan kelgan o'zlik olmoshlarining qo'llanishi.	2
15-16	Kuzgi ne'matlar. Kelishik qo'shimchalari bilan kelgan bo'lishsizlik olmoshlarining qo'llanishi.	2
17	NI - 2. Test sinovi.	1
18	Takrorlash	1
	II-chorak (14 soat)	
19-20	Kutubxonada. Kelishik qo'shimchalari bilan kelgan gumon olmoshlarining qo'llanishi.	2
21-22	Qadimiy va navqiron shaharlar. Ozaytirma darajadagi sifatlarning qo'llanishi.	2
23-24	Tabiat va iqlim. Orttirma darajadagi sifatlarning qo'llanishi.	2
25-26	NI-3. Diktant. Xatolar ustida ishlash.	2
27-28	Chimyon tog'larida. Chama sonlarning yasalishi va qo'llanishi	2
29-30	Yangi yil rejasi. Jamlovchi sonlarning yasalishi va qo'llanishi.	2
31	NI-4. Test sinovi.	1
32	Takrorlash.1	1

1	2	3
	III chorak (20 soat)	
33-34	Ona yurt posbonlari. Butun va kasr sonlarning yasalihi va qo'llanishi.	2
35-36	Sport - salomatlik garovi. Daraja-miqdor ravishlarining ishlatilishi.	2
37-38	Salomatlik - tuman boylik. Haqida, to'g'risida ko'makchilarining qo'llanishi	2
39-40	Buyuk allomalarimiz. Vaqtни ifodalash	2
41-42	NI-5. Matn yaratish. Mavzu: "Sog` tanda sog`lom aql". Xatolar ustida ishlash.	2
43-44	Bahorgi ishlar. Payt ravishlarining yasalihi va qo'llanishi.	2
45-46	Milliy taomlar. Holat (tarz) ravishlarining yasalihi va qo'llanishi.	2
47-48	Navro'z udumlari.	2
49-50	NI -6. Test sinovi. Xatolar ustida ishlash.	1
51-52	Takrorlash	1
	IV-chorak (16 soat)	
53-54	Dam olish kuni. Hozirgi-kelasi zamon fe'lining yasalihi va qo'llanishi.	2
55-56	Ona shahrim. -moqda qo'shimchali hozirgi samon fe'lining Ishlatilishi.	2
57-58	Buyuk astronom. -ar edi shaklli o'tgan zamon fe'lining tuslanishi va qo'llanishi.	2
59-60	NI - 7. Diktant. Xatolar ustida ishlash.	2
61-62	Bobom xotiralari. -gan edi shaklli o'tgan zamon fe'lining tuslanishi va qo'llanishi.	2
63-64	O'quvchining kun tartibi. -moqchi shaklli kelasi zamon fe'lining tuslanishi va qo'llanishi.	2
65-66	NI - 8. Test sinovi. Xatolar ustida ishlash.	2
67-68	Takrorlash.	2

**I MAVZU: OBOD O‘LKAM**  
**(Aniq va mavhum otlarining qo‘llanishi)**

**1 - dars**

**Darsning maqsadi:**

**2. Tarbiyaviy maqsad.** O‘quvchilarni respublikamiz shahar va qishloqlarida olib borilayotgan obodonchilik ishlari bilan tanishtirish, ularda vatanga muhabbat tuyg‘ularini bilishga undash, kuchaytirish.

**1. Ta’limiy maqsad.** Aniq va mavhum otlar, yasama mavhum otlarlarining yasalishi haqida ma’lumot berish, o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqini, o‘z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.

**Darsning jihozlanishi.** "O‘zbek tili" darsligi, suratlar, videokasseta, audiokasseta, disklar, Qudrat Hikmatning "Men tug‘ilgan o‘lka" she’ri, test topshiriqlari.

**Dars metodlari:** Hamkorlik metodi, klaster, zanjir usuli.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O‘quvchi aniq va mavhum otlar, mavhum otlarlarining yasalishi va imlosi haqida nazariy ma’lumotga ega bo‘ladi; lug‘at boyligi oshadi, ularda ushbu otlarni turli nutqiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalari hosil bo‘ladi; mavzu doirasida o‘z fikrini og‘zaki va yozma bog‘lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

**Dars rejasi:**

1. Salomlashuv va tanishuv. O‘qituvchining kirish so‘zi.  
Madhiya ijrosi. 4 daqiqa

2. Rasm va videolavhalar asosida suhbat (1- topshiriq).  
«Muqaddas zamin» matni ustida ishlash, lugʻat ishi  
(1- mashq, 2- topshiriq). 10 daqiqa
3. Grammatik qoida bayoni. 7 daqiqa

4. Mustahkamlash. 2- mashq va 2- topshiriq ogʻzaki  
bajariladi. 10 daqiqa
5. Vatan haqidagi maqollar, “Qurilishda” matni ustida  
ishlash (3- mashq). Men tugʻilgan oʻlka» sheʼrini  
zanjir usulida oʻqish. 10 daqiqa
6. Darsni yakunlash, oʻquvchilar bilimini baholash,  
uyga vazifa. 4 daqiqa

### Darsning borishi:

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashuv va tanishuv. Oʻqituvchining kirish soʻzi. Madhiya ijrosi.

**II. Nutqiy mavzu bayoni.**

Videolavha namoyishi va darslikdagi rasmni kuzatish. Rasm va videolavhalar asosida suhbat (1- topshiriq). Klaster usuli. “Muqaddas zamin” matni ustida ishlash, lugʻat ishi (1- mashq).

1- topshiriqda rasm asosida suhbat tashkil etish uchun yoʻnaltiruvchi savollar berilgan boʻlib, keyingi 2 ta savolga javob berishda klaster usulidan foydalanish samarali boʻladi.

— *Poytaxtimizda yana qanday yangi inshootlar barpo etildi?*

— *Siz yashayotgan shahar yoki qishloqda-chi?*


— *Bu bunyodkorlik ishlari nimaning sharofatidan?*

Bu topshiriqni quyidagi shaklda bajartirish kerak:

**Respublikamizning boshqa shahar, tuman yoki qishloqlarida istiqloq yillarida barpo etilgan yangi inshootlarni ham shu shaklda koʻrsatish suhbatning jonli boʻlishiga olib keladi.**

Soʻngra 1- mashq va 2- topshiriq shartlari bajartiriladi.

⇒ Oʻquvchilarga aniq va mavhum otlarning qoʻllanishi, mavhum otlarning maʼnolarini misollar bilan tushuntirish.



### III. Grammatik qoida bayoni

**Bilib oling!** Otlar aniq va mavhum bo'ladi. Aniq otlar biz ko'ra oladigan narsa-buyumlarni bildiradi. Ular birlik va ko'plik sonda kela oladi. Masalan: shahar — shaharlar, mamlakat — mamlakatlar, bino — binolar kabi. Mavhum otlar his-tuyg'ular, shaxsga xos belgi, kasb-hunar nomlarini bildiradi va asosan birlik sonda qo'llanadi.

### IV. Mustahkamlash.

A) 2- mashq og'zaki bajariladi va Vatan haqidagi maqollarning ma'nosini tushuntiriladi.

B) 3- mashqdagi matn ustida ishlash. Bunda avval matn o'qitiladi. O'quvchilardan aniq va mavhum otlarni aniqlab, ikki guruhga ajratib yozish, mavhum otlarning yasalişini tushuntirish so'raladi.

C) 3- topshiriqdagi "Men tug'ilgan o'lka" she'rini "Zanjir" usulida ifodali o'qitish.

**V. Darsni yakunlash.** O'quvchilarni baholash va uyga vazifa. Siz yashayotgan shahar (qishloq, tuman)da qanday obodonchilik ishlari olib borilayotgani haqida yozib kelish.

## 2 - dars

**1. Darsning ta'limiy maqsadi.** Mavhum ot yasovchi qo'shimchalar haqida ma'lumot berish, ushbu otlarni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

**2. Darsning tarbiyaviy maqsadi.** Milliy qadriyatlarga e'tibor, hurmat his-sini tarbiyalash, vatanining boyliklarini qadrlash, ularni asrashga o'rgatish, vatanni sevishga undash.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O'quvchilarni "Obod o'lkam" mavzusida mustaqil fikr ifodalay olish malakalarini shakllantirish.

**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, surat va videolavhalar, Qambar otaning she'rlar to'plami, tarqatma materiallar.

**Dars metodlari.** Hamkorlik metodi, aqliy hujum, zanjir, klaster usullari.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O'quvchi aniq va mavhum otlar, ularning imlosi haqida nazariy ma'lumotga ega bo'ladi; lug'at boyligi oshadi, ularda ushbu otlarni turli nutqiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi; mavzu doirasida o'z fikrini og'zaki va yozma bog'lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

### Dars rejasi:

- |   |           |
|---|-----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uyga vazifasini so'rash.                       | 7 daqiqa  |
| 2. 4- topshiriqda berilgan "Muqaddas zamin" matni ustida ishlash. | 10 daqiqa |

- |                        |           |
|------------------------|-----------|
| 3. Yangi mavzu bayoni. | 5 daqiqa  |
| 4. Mustahkamlash.      | 10 daqiqa |

- |  |          |
|--|----------|
| 5. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (5-7- mashqlar). Nutqiy mavzuni mustahkamlash. "Vatanni yashnataylik" she'ri (5- topshiriq). | 8 daqiqa |
| 6. Darsni yakunlash, o'quvchilarni baholash va uyga vazifa.  | 5 daqiqa |

### Darsning borishi:

**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasi tekshiriladi. O'quvchilardan "Men tug'ilgan o'lka" she'rini yod aytib berish so'raladi.

**II. O'tilgan mavzuni takrorlash.** 4- topshiriq. I. Karimovning "Yuksak ma'naviyat" — yengilmas kuch" asaridan olingan "Muqaddas zamin" matni ustida ishlash. Matn ifodali o'qitiladi, o'quvchilar diqqati ajratib ko'rsatilgan so'zlarga qaratiladi.

### III. Yangi mavzu bayoni.

**Bilib oling!** O'quvchilarga mavhum otlar, ularning tub yoki yasama bo'lishi (*vijdon, mehr, ishonch, saxiylik kabi*), mavhum otlar so'zlarga **-lik, -chilik, -ch, -inch** qo'shimchlarini qo'shish yordamida yasalishi (**mardlik, shifokorlik, uchuvchilik, ishonch kabi**) haqida ma'lumot beriladi:

### IV. Mustahkamlash.

A) 4-5- mashqlar yozma bajartiriladi. Ushbu mashqlar vositasida avval o'quvchilarda berilgan so'zlarga **-lik** yoki **-chilik** qo'shimchalaridan mosini qo'yib mavhum otlarni yasash, so'ng nuqtalar o'rniga foydalanish uchun berilgan mavhum otlardan mosini qo'yib yozish ko'nikmalari hosil qilinadi. 6- mashq o'quvchilarda mavhum otlarni nutqda mustaqil qo'llash malakasini shakllantirishga qaratilgan.


B) Qambar otaning "Vatanni yashnataylik" she'ri "Zanjir" usulida ifodali o'qitiladi va lug'at ustida ishlanadi.

**V. Mavzuni xulosalash.** Har bir mavzu yakunida o'quvchilarning mavzu bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va ularni to'g'ri baholash uchun BBB tarqatma kartochkalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu kartochkalar o'qituvchi tomonidan tayyorlab kelinadi va dars tugashiga 10 daqiqa qolganda tarqatib qo'yiladi. Dars yakunida o'quvchilardan ularni to'ldirib berish so'raladi.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman

**Uyga vazifa:** "Vatanni yashnataylik" she'rini yod olish.

**II MAVZU: OROMGOHDA**  
(O'rin-joy otlari, ularning yasalishi va qo'llanishi)



**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, rasmlar va videolavhalar, proyektor, disklar.

**Dars metodlari.** Hamkorlik, klaster metodi, aqliy hujum.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O'quvchi o'rin-joy otlari, atoqli o'rin-joy otlarining imlosi haqida nazariy ma'lumotga ega bo'ladi; atoqli o'rin-joy nomlarini nutqda qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi; oromgohlar mavzusida o'z fikrini og'zaki va yozma bog'lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

## Dars rejasi:

**I. Tashkiliy qism.** 1.Uy vazifasini so‘rash va baholash.  
Ta‘til taassurotlari haqida suhbat. Aqliy hujum. 8 daqiqa

2. Nutqiy mavzu bayoni. Savollar asosida suhbat  
(1- topshiriq). “«Quyoshli» oromgohi” matnini o‘qish,  
lug‘at ishi (1- mashq). 10 daqiqa  
3. Grammatik qoida bilan tanishtirish 7 daqiqa

4. Mustahkamlash. 1-2- mashqlar. «Oromgohda» she‘ri  
ustida ishlash. 15 daqiqa  
5. O‘quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa. 5 daqiqa

## Darsning borishi:

**II. Yangi nutqiy mavzu bayoni.**  
Savollar va rasm asosida suhbat ( 1- topshiriq). "Quyoshli"  
oromgohida matnini o‘qish, lug‘at ishi (1- mashq), ajratib  
ko‘rsatilgan so‘zlarga e‘tibor qaratish.

Yangi nutqiy mavzu bayoni darslikda berilgan rasmni kuzatish va 1- topshiriqda berilgan savollar asosida suhbat tashkil etish bilan boshlanadi:

1. Yozgi ta‘tilda qayerda dam oldingiz?
2. Oromgoh qayerda joylashgan?
3. Oromgohda nimalar qildingiz?
4. Shahringiz (qishlog‘ingiz)da qanday oromgohlar bor?  
So‘ngra «Quyoshli oromgohi» matni o‘qitiladi.

## III. Yangi mavzu bayoni.

**Bilib oling!** O‘rin-joy otlari turdosh va atoqli bo‘ladi. Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi. Korxonalar, tashkilotlar, inshootlar, oromgohlar, mahallalar, to‘garaklar nomlari qo‘sh-tirnoq bilan yoziladi. Masalan: *shahar, tuman, Toshkent, Zomin, "Sharq guli" firmasi, "Turkiston" saroyi, "Oqtosh" oromgohi, "Gulzor" mahallasi, "Yosh ijodkor" to‘garagi* kabi.

#### IV. Mustahkamlash.

##### ⇒ A) Grammatik ma'lumotni mustahkamlash.

Grammatik ko'nikmalar hosil qildirish uchun 1- mashq va 2- mashq yozma bajartiriladi. Buning uchun 5 ta o'quvchi doskaga taklif qilinadi va har biri bittadan ustunni tanlab, shahar, tuman, qishloq, mahalla, oromgohlar nomlarini ustun shaklida yozadilar. 3- mashqda esa qavs ichidagi so'roqlar o'rniga o'rin-joy otlari qo'yib yozadilar.

Shaharlar Tumanlar Qishloqlar Mahallalar Oromgohlar  
.....

##### ⇒ B) Nutqiy mavzuni mustahkamlash uchun

"Oromgohda" she'ri ustida tahlil qilinadi (2- topshiriq). Buning uchun avval she'r bir marta ifodali o'qitiladi, notanish so'zlar lug'ati ustida ishlanadi. She'rni 4 satrdan navbatma-navbat o'qitib, har bir misrasidagi o'rin-joy ma'nosini bildiruvchi otlarni toptirib borish maqsadga muvofiq. So'ngra 3- topshiriqdagi savollar asosida savol-javob o'tkaziladi.

**V. Mavzuni xulosalash.** O'qituvchi savol-javoblarni xulosalagan holda mavzuni yakunlaydi va darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholaydi.

**Uyga vazifa.** O'quvchilarga o'zi yashayotgan shahari (qishlog'i, tumani) dagi joylarning nomlarini yozish va ular haqida qisqa ma'lumot berish.

### 4 - dars

**1. Ta'limiy maqsad.** O'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, ularga o'rin-joy otlari, o'rin-joy nomlarini og'zaki va yozma holda to'g'ri qo'llanishini o'rgatish, imlodagi xatolarni bartaraf qilish.

**2. Tarbiyaviy maqsad.** O'quvchilarga respublikamizdagi oromgohlar, shifobaxsh o'simliklar, tabiat boyliklarini muhofaza qilish, zarar keltirmaslikka undash, ularni turli to'garaklarga jalb qilish, kasb-hunarga yo'naltirish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O'quvchini mantiqan fikrlash malakasini rivojlantirish.

**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, suratlar, tarqatma materiallar, BBB kartochkalari.

**Dars metodlari.** Hamkorlik metodi, guruhlariga bo'linib ishlash, "Kim ko'proq biladi?" o'yini, BBB usuli.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O'quvchi tub va yasama o'rin-joy otlari va o'rin-joy nomlari, yasama o'rin-joy otlarini yasovchi qo'shimchalar haqida nazariy ma'lumotga ega bo'ladi; ularda bunday otlarni nutqda qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi; turli nutqiy vaziyatlarda o'z fikrini og'zaki va yozma bog'lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

#### **Dars rejasi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash	8 daqiqa
2. Rasm asosida suhbat. 4- topshiriq.	7 daqiqa

3. Guruhlarda ishlash. Grammatik qoidani mustahkamlash mashqlari (4-5- mashqlar)	10 daqiqa
--	-----------

4. Suhbat. (7- topshiriq)	8 daqiqa
5. Adabiy o'qish «Oromgohdagi voqea». Lug'at ishi.	12 daqiqa

#### **Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Uyga berilgan vazifa tekshiriladi. O'quvchilarning o'zi yashayotgan shahri (qishlog'i, tumani)dagi joylarning nomlari haqida yozganlarini, ularning nima uchun shunday nomlangani haqida suhbatlashiladi.

**II. Yangi mavzuga kirish.** 4- topshiriqdagi suhbat matni o'qitiladi va berilgan surat asosida davom ettiriladi.

#### **III. Yangi mavzu bayoni.**

Bu darsda turdosh va atoqli o'rin-joy otlarining tub yoki yasama bo'lishi, yasama o'rin-joy otlarini yasovchi

qo‘shimchalari haqida ma‘lumot beriladi. Darslikda berilgan quyidagi misollar tahlil qildiriladi: *vodiy, maktab, hovli - tub otlar; gulzor, oromgoh, Guliston* - bular yasama otlardir.

**Bilib oling!** O‘rin-joy otlari tub va yasama bo‘ladi. Masalan: *vodiy, maktab, hovli* — tub otlar; *gulzor, oromgoh, Guliston* — bular yasama otlardir. Yasama o‘rin-joy otlari *-loq, -zor, -iston, -goh, -xona, -obod* qo‘shimchlari bilan yasaladi.

Bunda quyidagi slayddan foydalanish maqsadga muvofiq:

#### Otlarning turlari:

##### turdosh otlar

*daraxtzor*

*o‘tloq*

*shifoxona*

*sayilgoh*

##### atoqli otlar

*Bodomzor*

*Guliston*

*Yangiobod*

*Yusufxona*

#### IV. Mustahkamlash.

⇒ A) Grammatik ma‘lumotni mustahkamlash maqsadida kichik guruhlariga bo‘linib, "Kim ko‘proq biladi?" o‘yinini tashkil etiladi (4- mashq va 5- topshiriq). Bunda o‘qituvchi o‘rin-joy nomlaridan birining nomini aytadi, aytilgan so‘zning oxirgi harfiga o‘quvchilar navbati bilan misol keltiradilar. Qaysi guruh ko‘p so‘z aytsa, shu guruh g‘olib bo‘ladi va taqdirlanadi.


⇒ B) Nutqiy mavzuni mustahkamlash. Adabiy o‘qish uchun berilgan "Oromgohdagi voqea" matni o‘quvchilar tomonidan navbatma-navbat o‘qitilib, mazmuni so‘zlatiladi. Matn yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi va topshiriqlar bajartiriladi.

**V. Mavzuni yakunlash va o‘quvchilarni baholash.** O‘qituvchi mavzuni yakunlaydi, darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni rag‘batlantiradi. Avvaldan tarqatilgan va

o'quvchilar tomonidan to'ldirilgan BBB kartochkalarini o'qitib, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholaydi.

**Uyga vazifa:** "Oromgoh taassurotlari" mavzusida kichik matn tuzib kelish.

**III MAVZU: BILIM — XAZINA**  
**(Kasb-hunar otlari, ularning yasalishi va qo'llanishi)**



**Darsning jihozlanishi.** Turli kasb egalarining rasmlari, audiokasseta, rivoyatlar, maqollar to'plami, test topshiriqlari, slaydlar.

**Dars metodlari.** Hamkorlik metodi, aqliy hujum, rolli o'qish.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O'quvchi o'zbek tilida kasb-hunar, sohalarni bildiruvchi otlar, ularning yasalishi haqida nazariy ma'lumotga ega bo'ladi; ularda bunday otlarni nutqda qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi; o'quvchilarda kitobni sevish, kitob o'qishga mehr uyg'onadi, ularning ilm va hunarga intilishi oshadi; kasb-hunar, soha-

larni bildiruvchi otlarini turli nutqiy vaziyatlarda bog‘lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

### Dars rejasi:

- |  |           |
|--|-----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash va baholash.  | 7 daqiqa  |
| 2. Kirish suhbat va 1- topshiriqdagi savollar asosida suhbat. «Bilim — xazina» matni ustida ishlash (1-mashq). | 8 daqiqa  |
| 3. Grammatik qoida bayoni.   | 7 daqiqa  |
| 4. Grammatik ma’lumotni mustahkamlash mashqlari (2-3- mashqlar).   | 10 daqiqa |
| 5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash (2- topshiriq, 5- mashq).  | 7 daqiqa  |
| 6. O‘quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa.   | 3 daqiqa  |

### Darsning borishi:

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish, uy vazifasini so‘rab baholash.

**II. Yangi mavzuga kirish suhbat.** Rasmlarni kuzatish, Q.Muhammadiy she’rini ifodali o‘qitish. Savollar asosida kasb va hunarlar haqida suhbatlashish (1- topshiriq).  
"Bilim — xazina" matnini o‘qish, notanish so‘zlar lug‘ati ustida ishlash, tarjima qilish, so‘ng matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e’tiborni qaratish (1- mashq).

### III. Yangi mavzu bayoni.

**Bilib oling!** O‘zbek tilida kasb-hunar, sohalarni bildiruvchi otlar **-lik, -chilik** qo‘shimchalari bilan yasalishi haqida ma’lumot slayd namoyishi vositasida tushuntiriladi.

Bunda quyidagi slayddan foydalanish tavsiya etiladi:

**Mavhum otlar va kasb-hunar otlarining yasalihi:**

<b>-lik</b> qo‘shimchasi	<b>-chilik</b> qo‘shimchasi
<i>duradgorlik</i>	<i>dehqonchilik</i>
<i>quruvchilik</i>	<i>pazandachilik</i>
<i>zardo‘zlik</i>	<i>hunarmandchilik</i>
<i>binokorlik</i>	<i>kulolchilik</i>
<i>ganchkorlik</i>	<i>me‘morchilik</i>
<i>gilamdo‘zlik</i>	<i>beshikchilik</i>

**IV. Mustahkamlash.**

⇒ A) Grammatik ma’lumotni mustahkamlash uchun avval 2-3- mashqlar yozma bajartiriladi. 2- mashq topshirig‘iga ko‘ra o‘quvchilar berilgan so‘zlarga *-lik*, *-chilik* qo‘shimchalaridan mosini qo‘shib, avval *-lik* qo‘shimchali so‘zlarni, so‘ng *-chilik* qo‘shimchali so‘zlarni yozadilar. 3- mashqda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan kasb otlari yasab, fikrni davom ettirish topshirig‘i berilgan. Bu topshiriq berilgan namuna asosida taxminan quyidagicha bajariladi:

*Namuna: Men kelajakda o‘qituvchi bo‘lmoqchiman. O‘qituvchilik — eng sharafli kasb.*

*1. Do‘stim dadasi kabi shifokor bo‘lmoqchi. Shifokorlik olijanob kasb.*

*2. Mening akam quruvchi bo‘lib ishlaydi. Tumanimizda quruvchilik kolleji ochildi.*

*3. Amakim — mohir oshpaz. Oshpazlik kerakli kasblardan biridir.*

*4. Madhiyamiz musiqasini bastakor Mutal Burhonov yozgan. Bastakorlik uchun noyob qobiliyat kerak bo‘ladi.*

*5. Bu go‘zal binolarni usta me‘morlar qurishgan. Me‘morchilik qadimiy kasb hisoblanadi.*

⇒ B) Nutqiy mavzuni mustahkamlash uchun 2-topshiriqdagi suhbat matni rolli o‘qitiladi. So‘ng shu mavzuda suhbat davom ettiriladi.

**V. Darsni yakunlash.** Dars yakunlanadi, o‘quvchilar baholanadi.

**Uyga vazifa.** Ilm haqidagi maqollardan 3—4 tasini yozish va ularning ma’nolarini tushuntirish.

## 6 - dars

**1. Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, ularga o'rinjoy otlarini og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llanishini o'rgatish, imlodagi xatolarni bartaraf qilish.

**2. Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarning kitob o'qishga qiziqishini uyg'otish, ularga chuqur ilm egallash orqali inson o'z maqsadiga yetishi, obro' qozonishi mumkinligini tushuntirish orqali ilm olishga qiziqtirish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O'quvchini mantiqan fikrlash malakasini rivojlantirish, og'zaki va yozma bog'lanishli nutqini shakllantirish.

**Darsning jihozlanishi.** Olqor Daminning she'rlar to'plami, o'zbek xalq maqollari.

**Dars metodlari.** Hamkorlik metodi, aqliy hujum, muammoli metod, BBB usuli.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O'quvchi kasb-hunar otlarining nutqda qo'llanishi yuzasidan nazariy ma'lumotga ega bo'ladi; ularda bunday otlarni nutqda amaliy qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi; o'quvchilarda kitob o'qishga mehr uyg'onadi, ularning ilm va hunarga intilishi oshadi; kasb-hunar sohalarini bildiruvchi otlarini turli nutqiy vaziyatlarda ifodalash malakasi shakllanadi.

### Dars rejasi:

- |  |          |
|--|----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash.      | 8 daqiqa |
| 2. O'tilgan mavzuni takrorlash (3- topshiriq). | 7 daqiqa |

- |  |           |
|--|-----------|
| 3. "Zardo'zlik fabrikasida" matni ustida ishlash (4- mashq).                                       | 7 daqiqa  |
| 4. Ilm haqidagi maqollar va "Xayolparastlik va ish" matni ustida ishlash (5- mashq, 4- topshiriq). | 10 daqiqa |

- |  |          |
|--|----------|
| 5. Adabiy o'qish. Olqor Damining "Hamma hunar sevimli" she'ri ustida ishlash.    | 8 daqiqa |
| 6. Mavzuni xulosalash, o'quvchilarni baholash va uyga vazifa. BBB kartochkalari. | 2 daqiqa |

## Darsning borishi:

**I. Tashkiliy qism.** Uyga berilgan vazifa tekshiriladi. O'quvchilarning o'zi yoqtirgan kasbi haqida yozgan ijodiy matnlaridan 5—6 tasi o'qitiladi. Shu vaqt ichida o'qituvchi parta oralab, barcha o'quvchilarning vazifani qanday bajarganliklarini tekshirib chiqadi.

**II. O'tilgan mavzuni takrorlash.** Buning uchun avval 3-topshiriq og'zaki bajartiriladi. O'quvchilar tayanch so'z sifatida berilgan *so'ana, zardo'zchilik, do'ppido'zlik, kashtachilik, milliy hunarmandchilik* so'zlari ishtirokida gaplar tuzib, berilgan suratni tasvirlaydilar.

**III. Nutqiy mavzu yuzasidan "Zardo'zlik fabrikasida"** matni ustida ishlash (4- mashq). O'quvchilar avval matnни o'qiydilar. So'ng kasb-hunarni bildiruvchi otlarni ko'chirib yozib, yasalishini tushuntiradilar.

**IV. Nutqiy mavzuni mustahkamlash.** Ilm haqidagi maqollarning davomini 2- ustundan topib yozish (5- mashq). Aqliy hujum. "Xayolparastlik va ish" matni ustida ishlash (4- topshiriq). Ushbu matn 2 qismdan iborat bo'lib, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini rivojlantirishga, ularning mantiqiy fikrlashini kuzatishga qaratilgan. Avval matn o'qitiladi, so'ng o'quvchilardan matn oxirida berilgan savollar asosida qaysi talqin to'g'ri ekanligi va nima uchun to'g'ri ekanligini tushuntirib berish talab etiladi.

**V. Adabiy o'qish** uchun berilgan Olqor Daminning "Hamma hunar sevimli" she'ri o'quvchilarga navbat bilan ifodali o'qitiladi. Lug'at ustida ishlanadi va she'r mazmuni tushuntiriladi.

**VI. Mavzuni xulosalash.** BBB kartochkalari vositasida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholash.

**Uyga vazifa.** She'rni yod olish va mazmunini so'zlab berish.

**IV MAVZU: SINIF RAHBARI**  
**(Narsa-buyum otlari, ularning yasalishi va qo'llanishi)**

**7 - dars**

**Darsning maqsadi:**

**2. Tarbiyaviy maqsad.** Ustozlarni hurmat qilish, ularning mehnatini qadrlash tuyg'ularini shakllantirish.

**1. Ta'limiy maqsad.** Tub va yasama narsa-buyum otlari, narsa-buyum otlarini yasovchi qo'shimchalar, ularning qo'llanishi haqida ma'lumot berish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O'quvchilar og'zaki va yozma nutqini, o'z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.

**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, Q. Muhammadiy, P. Mo'min she'rlari, "Ustozlar" qo'shig'i, elektron vositalar, audiokasseta, disklar, slayd, test topshiriqlari.

**Dars metodlari.** Hamkorlik metodi, aqliy hujum, klaster usuli.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O'quvchi narsa-buyum otlari, ularning yasalishi bo'yicha bilimga ega bo'ladi; lug'at boyligi oshadi, bunday otlarni og'zaki va yozma nutqda amaliy qo'llash ko'nikmalari, turli nutqiy vaziyatlarda o'z fikrini bog'lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

**Dars rejasi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash va baholash. 2 daqiqa
2. Nutqiy mavzu bayoni. O'qituvchilar, murabbiylar haqida suhbat. Surat asosida topshiriqlarni bajarish (1- topshiriq). 5 daqiqa

- |   |           |
|---|-----------|
| 3. I. Karimov. "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" asaridan parcha ustida ishlash (1-mashq). | 8 daqiqa  |
| 4. Grammatik qoida bilan tanishtirish   | 7 daqiqa  |
| 5. Mustahkamlash mashqlari  | 10 daqiqa |

- |   |          |
|---|----------|
| 6. Klaster usulida «Bizning sinf rahbarimiz» matni ustida ishlash | 7 daqiqa |
| 7. O'quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa.                    | 3 daqiqa |

### Darsning borishi:

**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasini so'rab baholash. O'quvchilardan Olqor Daminning "Hamma hunar sevimli" she'rini yod aytib berish so'raladi.

**II. Nutqiy mavzu bayoni.** Yangi mavzu bo'yicha o'qituvchining kirish so'zi. O'qituvchi o'qituvchilik kasbi muqaddas ekanligi, ustozlarning mehnatini qadrlash, ularni hurmat qilish haqida qisqacha fikr bildiradi. So'ngra 1- topshiriq asosida berilgan tayanch so'z va so'z birikmalari va surat asosida gap tuzdiriladi.

Nutqiy mavzu bayonida 1- mashqda I. Karimovning "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" asarida o'qituvchi va murabbiylar haqida bildirilgan fikr berilgan bo'lib, ushbu matn va uning bajarilishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Avval matn ifodali o'qitiladi.

⇒ O'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi. Ma'rifatpavar bobolarimizning fikrlarini davom ettirib, **"Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir"**, desak yanglishmagan bo'lamiz. O'qituvchi o'z o'quvchilariga hayot maktabini beradigan mo'tabar zotdir.

(I. Karimov)

O'qituvchi ushbu matnda o'qituvchi va murabbiylarni davlatimizda qanchalik qadrlanishi, ularning mehnati yuksak baholanishi to'liq o'z ifodasini topganligini uqtiradi. So'ngra o'quvchilar matnda ajratib ko'rsatilgan gaplarni daftarlariga

ko'chiradilar, gaplarning mazmunini o'z so'zlari bilan tushuntiradilar.

### III. Grammatik qoida bayoni.

O'quvchilarga darslikda berilgan qoida asosida narsa-buyum otlari, ularning yasalishi haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi:

**Bilib oling!** Narsa-buyum otlari *nima?* so'rog'iga javob bo'ladi. Ular tub va yasama bo'lishi mumkin. Masalan: *kitob, sinf, gul* — tub narsa-buyum otlari; *guldon, o'chirg'ich, supurgi* — yasama narsa-buyum otlaridir. Yasama narsa-buyum otlar fe'llarga **-k, -q, -g'ich, -kich, -qich, -gi, -ki, -qi, -g'i, -qin, -qun, -g'in, -ma, -m** qo'shimchalarini qo'shish yordamida yasaladi.

### IV. Mustahkamlash.

⇒ A) Grammatik ma'lumotni mustahkamlash. Buning uchun 2—3- mashqlar va 2- topshiriq bajartiriladi. O'quvchilar 2- mashqda berilgan fe'llarga qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'shib, narsa-buyum otlarini yasab, ular ishtirokida gaplar tuzadilar. 3- mashqda esa maktab uchun zarur bo'ladigan o'quv qurollarining ro'yxatini tuzib chiqadilar hamda daftarga tub va yasama otlarga ajratgan holda yozib chiqadilar. 2- topshiriqda "Menda nima bor?" o'yini tashkil qilinadi. O'quvchilar o'z portfelidagi narsalar nomlarini aytib, ularni nima maqsadda ishlatilishini tushuntiradilar.

⇒ B) Nutqiy mavzuni mustahkamlash. "Sinf rahbarimiz" matni ustida ishlash (3- topshiriq). O'quvchilar matnni o'qib chiqib, matn oxirida berilgan savol asosida o'z sinf rahbarlarini ta'riflaydilar.

### V. Darsni xulosalash va faol o'quvchilarni baholash.

**Uyga vazifa.** O'quvchilarga *mehribon, aqlli, shirinso'z; o'qish, yozish, rasm chizish; tartibli, ahil, do'st, maslahat; o'rgatmoq, bermoq* so'zlari ishtirokida sinf rahbarlari haqida kichik matn tuzish topshiriladi.

## 8 - dars

**1. Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarga yasama narsa-buyum otlari imlosini tushuntirish, o'quvchilar lug'at boyligini narsa-buyum otlari bilan boyitish, ushbu so'zlarni nutqda to'g'ri qo'llash o'rgatish.

**2. Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarga o'qituvchilar, sinf rahbarlari faoliyatining keng ko'lamliligini tushuntirish, ular mehnatini qadrlash tuyg'ularini shakllantirish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O'quvchini mantiqan fikrlash malakasini rivojlantirish.

**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, elektron vositalar, disklar, Po'lat Mo'minning she'rlar to'plami, ibratli hikoyalar.

**Dars metodlari.** Hamkorlik metodi, aqliy hujum, klaster, rolli o'qish, BBB usuli.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O'quvchi narsa-buyum otlari yasovchi qo'shimchalarning imlosi bo'yicha bilimga ega bo'ladi; ularda narsa-buyum otlarini og'zaki va yozma nutqda amaliy qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi; mavzu doirasida o'z fikrini bog'lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

### Dars rejasi:

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash. 8 daqiqa  
2. O'tilgan mavzuni takrorlash (4- topshiriq, 4- mashq). 7 daqiqa

3. Grammatik qoida bayoni. 7 daqiqa  
4. Mustahkamlash mashqlari (5-6- mashqlar). 8 daqiqa  
5. Qiziqarli grammatika mashqi (6- topshiriq). 5 daqiqa

6. Adabiy o'qish. Po'lat Mo'minning «Ustozlar» she'ri, lug'at ishi. 7 daqiqa  
7. Mavzuni yakunlash, o'quvchilarni baholash va uyga vazifa. BBB usuli. 3 daqiqa

### **Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasini tekshirish va baholash. O'quvchilarning sinf rahbarlari haqida yozgan matnlaridan 4—5 tasi o'qitiladi. Shu vaqt ichida o'qituvchi parta oralab, barcha o'quvchilarning vazifani qanday bajarganligini tekshirib chiqadi.

**II. O'tilgan mavzuni takrorlash.** Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qish (4- topshiriq). Dialog matnidan o'quvchilar tub va yasama narsa-buyum otlarini aniqlaydilar, so'ng daftarga ikki guruhga bo'lib ko'chirib yozadilar (4-mashq).


**III. Grammatik qoida bayoni.** O'quvchilarga narsa-buyum otlari yasovchi qo'shimchalarning imlosi, unli tovushlar va jarangli tovushlardan so'ng *-gich, -g'ich, -gi, -g'i, -g'in, -m* qo'shimchalari, jarangsiz tovushlardan so'ng *-kich, -qich, -qi, -ki, -qin, -qun* qo'shimchalari qo'shilishi haqida ma'lumot berilib, misollar bilan tushuntiriladi.

### **IV. Mustahkamlash mashqlari.**

A) O'quvchilar 5- mashq topshirig'iga ko'ra berilgan namuna asosida fe'llarga qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'shib, narsa-buyum otlari yasaydilar va ular ishtirokida gaplar tuzib yozadilar.

B) 6- mashq topshirig'iga ko'ra qavs ichida berilgan savollarga javob bergan holda matnni ko'chiradilar va davom ettirib, xulosa qismi bilan bog'laydilar.

**V. Qiziqarli grammatika mashqi.** Aqliy hujum. O'quvchilar 5- topshiriqda berilgan she'riy topishmoqni o'qiydilar va narsa-buyum otlarini yasovchi qo'shimchalarni ko'rsatadilar va ularning qo'llanishini bilib oladilar.



**VI. Adabiy o‘qish.** Po‘lat Mo‘minning "Ustozlar" she‘ri o‘quvchilarga ifodali o‘qib beriladi. So‘ng o‘quvchilarga navbatma-navbat ifodali o‘qitiladi. Notanish so‘zlarning lug‘atini o‘quvchilar zanjir usulida takrorlaydilar.

**VII. Darsni xulosalash.** Avvaldan tarqatilgan BBB kartochkalari yordamida o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalar aniqlanadi. Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman

**Uyga vazifa:** "Ustozlar" she‘rini yod olish.

**9 - dars** NI -1. "Ustoz mehri" mavzusida matn yaratish

**10 - dars** Xatolar ustida ishlash

**V MAVZU: ADABIYOT MUZEYIDA**  
(Otlarda *-day, -dek, kabi, xuddi* shakllarining qo‘llanishi)

**11 - dars**

**Darsning maqsadi:**

**2. Tarbiyaviy maqsad.** O‘quvchilarni milliy qadriyatlar, ajdodlar merosini o‘rganishga qiziqtirish, ularni e‘zozlash ruhida tarbiyalash.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqini, o‘z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.

**1. Ta‘limiy maqsad.** Otlarda *-day, -dek, kabi, xuddi* singari vositalarining qo‘llanishi haqida ma‘lumot berish, ularni qo‘llash malakasini shakllantirish.

**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, elektron vositalar, disklar, audiokasseta, magnitofon, muzey eksponatlari rasmlari, Oybekning "Bola Alisher" asari.

**Dars metodlari.** Interfaol, hamkorlik metodi, rolli o'qish, aqliy hujum.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O'quvchi otlarda *-day, -dek, kabi, xuddi* shakllarining qo'llanishi bo'yicha bilimga ega bo'ladi; ularda bunday otlarni og'zaki va yozma nutqda amaliy qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi; adabiyot muzeyi mavzusi doirasida o'z fikrini bog'lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

#### **Dars rejasi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash.  
«Ustozlar» qo'shig'ini birgalikda kuylash. 10 daqiqa

2. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi matni bilan ishlash (2-3- topshiriqlar). 10 daqiqa  
3. Grammatik qoida bilan tanishtirish. 7 daqiqa

4. Mustahkamlash mashqlari (2-4- mashqlar). 10 daqiqa  
5. O'quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa. 8 daqiqa

#### **Darsning borishi:**

##### **I. Taskiliy qism.**

Uy vazifasini so'rash va baholash. O'quvchilarga Po'lat Mo'minning "Ustozlar" she'rini yoddan aytiriladi. So'ngra avval audiokasseta orqali qo'shiq eshittiriladi va birgalikda kuylanadi.

##### **II. Nutqiy mavzu bayoni.**

**1. Aqliy hujum.** 1- topshiriqda berilgan savollar asosida suhbat tashkil etish.

**2. 1- mashq.** "Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi" matni ustida ishlash. O'quvchilarga matn o'qitiladi, notanish so'zlar lug'ati ustida ishlanadi.

**3. 2- topshiriq.** Suhbat matni rollarga bo'lib o'qitiladi. O'quvchilar diqqati matnda ajratib ko'rsatilgan **go'yo Navoiy davriga qaytgandekmiz, xuddi vorislardek, tog'dek, bobomiz kabi, Navoiydek** so'zlari va birikmalariga qaratiladi. So'ngra darslikdagi grammatik qoida tushuntiriladi.

### III. Grammatik qoida bayoni.

**Bilib oling!** O'quvchilarga o'zbek tilida o'xshatish-qiyoslash ma'nolarini bildirish uchun *-day, -dek, go'yo*, kabi, xuddi shakllari ishlatilishi; *-day, -dek* qo'shimchalari so'zlarga qo'shib yozilishi haqida ma'lumot beriladi. Nazariy ma'lumot avval matnlarda berilgan misollar, so'ngra o'quvchilar og'zaki keltirgan misollari yordamida izohlanadi.

### IV. Mustahkamlash.

⇒ Grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun 2—3- mashqlar bajartiriladi. O'quvchilarga 2- mashqda berilgan namuna asosida bajartiriladi.

Namuna: Kun — kundek — xuddi kundek; kundek ravshan.

O'quvchilar avval so'zlarga o'xshatish-qiyoslash ma'nolarini bildiruvchi qo'shimchalar va so'zlar qo'shib yozadilar, so'ng ular ishtirokida so'z birikmalari tuzadilar.

So'ngra 3- mashq bajartiriladi. O'quvchilar nuqtalar o'rniga o'xshatish-qiyoslash ma'nolarini bildiruvchi so'z va qo'shimchalarni qo'yib gaplarni ko'chiradilar.

Ushbu mashqlar o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

⇒ 4- mashq **rivojlantiruvchi tamoyil** asosida tuzilgan. Ushbu mashq topshirig'iga ko'ra nomlari berilgan shaxslar ta'riflanadi. So'ngra o'xshatish-qiyoslash ma'nolarini bildiruvchi vositalar yordamida fikr davom ettiriladi.

Namuna: *Alisher Navoiy — o‘zbek adabiy tilining asoschisi. Biz xuddi bobomizdek bo‘lishni orzu qilamiz.*

**V. Darsni yakunlash.** O‘qituvchi mavzuni xulosalaydi va darsni yakunlaydi, faol o‘quvchilarni baholaydi.

**Uyga vazifa:** Berilgan reja asosida "Adabiyot muzeyi" mavzusida ijodiy matn tuzib kelish.

Reja: 1 Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyining tashkil etilishi.

2. Muzey ekspozitsiyalari va bo‘limlari.

3. Muzeyda alohida o‘rin tutadigan eksponatlar.

## 12 - dars

**1. Ta’limiy maqsad.** O‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, o‘xshatish-qiyoslash ma’nolarini bildiruvchi *-day, -dek, go‘yo*, kabi, xuddi, singari vositalarini og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatish.

**2. Tarbiyaviy maqsad.** O‘quvchilarga muzeylar haqida, ularda xalqning san’ati, madaniyati, ilm-fani bilan bog‘liq materiallar saqlanishi haqida ma’lumot berish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarini e’zozlashga o‘rgatish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqini, o‘z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.

**Darsning jihozlanishi.** "O‘zbek tili" darsligi, elektron va ko‘rgazmali vositalar, BBB kartochklari, O‘zbekiston ensiklopediyasi, Oybekning "Bola Alisher" asari.

**Dars metodlari.** Hamkorlik metodi, aqliy hujum, rolli o‘qish, BBB usuli.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O‘quvchi o‘zbek tilida *-dek, -day* qo‘shimchali so‘zlar *go‘yo, xuddi, kabi, singari* so‘zlari bilan qo‘llansa, o‘xshatish ma’nosi kuchaytirilishi; bunda *go‘yo, xuddi* so‘zlari otlardan oldin, kabi esa keyin kelishi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi; ularda ushbu shakllarni nutqda qo‘llash ko‘nikmalari hosil bo‘ladi; adabiyot muzeyi mavzusi doirasida o‘z fikrini bog‘lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

### Dars rejasi:

- |   |           |
|---|-----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash.   | 8 daqiqa  |
| 2. O‘tilganlarni takrorlash. “Muzei haqida” matni ustida ishlash (3-4- topshiriqlar). Lug‘atni tarjima qilish va savollar ustida ishlash. | 10 daqiqa |

- |                                   |          |
|-----------------------------------|----------|
| 3. Grammatik qoida bayoni         | 5 daqiqa |
| 4. Mustahkamlash (4-5- mashqlar). | 8 daqiqa |

- |  |           |
|--|-----------|
| 5. Adabiy o‘qish. Oybekning «Bola Alisher» asaridan parcha, lug‘at ishi. | 10 daqiqa |
| 6. Mavzuni yakunlash, o‘quvchilarni baholash (BBB usuli) va uyga vazifa. | 4 daqiqa  |

### Darsning borishi:

**I. Taskiliy qism.** Uy vazifasi tekshiriladi. O‘quvchilarning "Adabiyot muzeyidan olgan taassurotlarim" mavzusida ijodiy ishi tekshiriladi. Eng yaxshi yozilgan matn qayd etiladi va baholanadi.

### II. O‘tilganlarni takrorlash.

O‘quvchilarga darslikdagi 4- topshiriqda berilgan "Muzei haqida" matni o‘qitiladi, notanish so‘zlar lug‘ati ustida ishlanadi. 2—3 ta o‘quvchi matn mazmunini so‘zlab beradi. O‘qituvchi qo‘shimcha ma’lumotlar bilan matnni boyitadi. 5- topshiriqdagi savollar orqali o‘quvchilarning muzeylar haqidagi tasavvurlari aniqlashtiriladi.

### III. Grammatik qoida bayoni.

**Bilib oling!** O‘quvchilarga o‘zbek tilida *-dek*, *-day* qo‘shimchali so‘zlar so‘zlar go‘yo, xuddi, kabi, singari so‘zlari bilan qo‘llansa, o‘xshatish ma’nosi kuchaytirilishi; bunda *go‘yo*, *xuddi* so‘zlari otlardan oldin, kabi esa keyin kelishi haqida ma’lumot beriladi. Masalan: oyday — go‘yo oyday — xuddi oyday — oy kabi;

#### **IV. Mustahkamlash mashqlari.**

⇒ A) Grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun 5- mashq bajartiriladi. O'quvchilar nuqtalar o'rniga o'xshatish-qiyoslash vositalarini qo'shib gaplarni ko'chiradilar.

⇒ B) Nutqiy mavzuni mustahkamlash uchun adabiy o'qish sifatida Oybekning "Bola Alisher" asaridan berilgan parcha o'quvchilarga juftlikda rolli o'qitiladi. Notanish so'zlar lug'ati ustida ishlanadi, asar mazmunini tushuntirib beriladi. So'ng o'quvchilardan asardan qanday tasavvur hosil qilganliklari so'raladi.

#### **V. Mavzuni yakunlash.**

Bu darsda "Adabiyot muzeyida" nutqiy mavzusi yakunlanadi. Shu bois o'qituvchi BBB kartochkalarini o'qitish yordamida o'quvchilarning ushbu mavzu bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlaydi. So'ngra o'quvchilarni baholaydi.

**Uyga vazifa:** "Bola Alisher" hikoyasi mazmunini so'zlab berish.

**VI MAVZU: MEN SEVGAN KO'RSATUV**  
**(Egalik qo'shimchalari bilan kelgan o'zlik**  
**olmoshlarining qo'llanishi)**

**13 - dars**

Darsning maqsadi:

**2. Tarbiyaviy maqsad.**

Toshkent televideniye vatani ekanligi va O'zbekiston televideniye dasturlar va ko'rsatuvlar haqida ma'lumot berish, vaqtni behuda o'tkazmaslikka, televideniye ko'rsatuvlar vositasida o'z bilimlarini oshirib borishga undash.

**1. Ta'limiy maqsad.**

O'quvchilarga o'zlik olmoshi, o'zlik olmoshining egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi haqida ma'lumot berish, o'zlik olmoshining ma'nolarini tushuntirish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.**

O'quvchilar og'zaki va yozma nutqini, o'z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.

**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, elektron vositalar, videoproektor va disklar, videokasseta, Toshkent televideniyesi va teleko'rsatuvlar haqida rasmlar.

**Dars metodlari:** Interfaol, hamkorlik usuli, guruhlarga bo'linib ishlash, aqliy hujum.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O'quvchi o'zbek tilida egalik qo'shimchalari bilan kelgan o'zlik olmoshlarining ishlatilishi haqida ma'lumotga ega bo'ladi; ularda o'zlik olmoshlarini nutqda qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi; teleko'rsatuvlar mavzusida o'z fikrini bog'lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

**Dars rejasi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash va baholash. 7 daqiqa
2. Yangi mavzuga kirish. Bideolavha yoki rasm asosida suhbat (1- topshiriq), «Toshkent — televideniye vatani» matni ustida ishlash (1- mashq). Aqliy hujum. lug'at ishi. 2- topshiriq asosida savol-javob o'tkazish. 10 daqiqa

3. Grammatik qoida bayoni. 8 daqiqa  
4. Mustahkamlash mashqlari. 2,3- mashqlar. 10 daqiqa

5. «Manmanlik» matni ustida ishlash. (3- topshirq).  
Interfaol o'yin. 10 daqiqa  
6. O'quvchilar bilimni baholash, uyga vazifa. 2 daqiqa

### Darsning borishi:

**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasi: "*Bobomdek bo'lmoqchiman*" mavzusida tuzib kelingan ijodiy matn o'qitiladi. Mavzu bo'yicha qo'shimcha savollar berib, o'quvchilarning egallagan bilim va malakalari baholanadi.

**II. Yangi nutqiy mavzu.** 1. Aqliy hujum. "*Toshkent teleminorasi*" rasmi asosida suhbat (1- topshiriq). 2. "*Toshkent — televideniye vatani*" matnini o'qish, lug'at ishi (1- mashq).  
3. Savollar asosida suhbat (2-topshiriq).

### III. Grammatik qoida bayoni.

O'qituvchi o'quvchilarga o'zbek tilida gumon olmoshlari shaxs va narsa-buiyum, ularning belgi, miqdori, o'rni, payti noaniqligini ifodalashi, ular so'roq olmoshlari oldidan alla so'zini yoki ulardan keyin *-dir* qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinishi haqida ma'lumot beradi. Buning uchun slayddan foydalanish tavsiya etiladi:

**Bilib oling!** O'z so'zi o'zlik olmoshi bo'lib, qarashlilik ma'nosini ifodalaydi. Masalan: O'z uyim-o'lan to'shagim. U egalik qo'shimchalari bilan qo'llanadi va kishilik olmoshi ma'nosini bildiradi.

### IV. Mustahkamlash.

⇒ **Grammatik ma'lumotni mustahkamlash** uchun avval 2- mashq yozma bajariladi. Bunda o'quvchilar maqollarni o'qib, o'zlik olmoshlarini o'zi bog'langan so'z bilan ko'chirib yozadilar, qanday ma'no ifodalayotganini tushuntirib beradilar. So'ng 3- mashq bajartiriladi. O'quvchilar nuqtalar o'rniga mos olmoshlarni qo'yib yozadilar.

### ➡ Nutqiy mavzuni mustahkamlash.

"Manmanlik" matni ustida ishlash (3- topshiriq). Matn bo'yicha berilgan topshiriqlarni interfaol o'yin sifatida kichik guruhlariga bo'linib tashkil etish samarali natija beradi. Buning uchun 4 o'quvchidan iborat kichik guruhlar tashkil etiladi.

Har bir guruhdan bir o'quvchi "Oqshom ertaklari" ko'rsatuvi boshlovchisi sifatida matnini ifodali o'qiydi. 2- o'quvchi matn mazmunini so'zlab beradi, 3- o'quvchi matndagi o'z so'zining ma'nolarini tushuntiradi. 4- o'quvchi esa matn voqealariga munosabat bildiradi. O'quvchilarning nutqidagi kamchiliklar, javobidagi xatolar o'z o'rnida o'qituvchi yoki boshqa o'quvchilar tomonidan tuzatib boriladi.



Barcha guruhlarning chiqishlari tugagach, o'qituvchi eng yuqori ball olgan o'quvchilarni e'lon qiladi.

**V. Darsni yakunlash.** O'qituvchi mavzuni yakunlaydi, darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholaydi.

**Uyga vazifa.** Bolalar uchun ko'rsatuvlar ro'yxatini tuzish va ular haqida ma'lumot berish.

## 14 - dars

**1. Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, ularda nutqda o'zlik olmoshining ma'nolarini farqlab qo'llash malakalarini shakllantirish.

**2. Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarga bolalar uchun teledasturlarning tayyorlanishi, ularni olib borilishida tengdoshlari ham ishtirok etishi haqida ma'lumot berish, o'quvchilarni ijodkorlikka undash.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O'quvchilarning og'zaki va yozma bog'lanishli nutq malakalarini shakllantirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish.

**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, elektron vositalar, audio va videlkassetalar, disklar, rasmlar, BBB kartochkalari.

**Darsda qo'llanadigan metodlar.** Hamkorlik metodi, guruhlariga bo'linib ishlash, rolli o'qish, BBB usuli.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O'quvchi o'zbek tilida o'zlik olmoshi nutqda kishilik olmoshi yoki bir so'zi bilan, shuningdek, qaratqich kelishigi qo'shimchasi bilan qo'llanganda, ma'noni ta'kidlab kelishi haqida ma'lumotga ega bo'ladi; ularda o'zlik olmoshlarini nutqda farqlab qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi; o'zi sevgan teleko'rsatuvlar haqida o'z fikrini ifodalashni o'rganib oladi.

**Dars rejasi:**

- |   |          |
|---|----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash va baholash.   | 8 daqiqa |
| 2. O'tilgan mavzuni takrorlash. Rasm asosida suhbat (4- topshiriq). Guruhlarda ishlash. Suhbat matnini rolli o'qish (5- topshiriq). | 5 daqiqa |

- |   |           |
|---|-----------|
| 3. Grammatik qoida bayoni.                                    | 7 daqiqa  |
| 4. Grammatik qoidani mustahkamlash mashqlari (4-6- mashqlar). | 12 daqiqa |

- |   |           |
|---|-----------|
| 5. "Bolalarning sevimli ko'rsatuvi" matni ustida ishlash (6- mashq).    |           |
| 6. Adabiy o'qish. «Ko'rsatuvni ko'rib» she'rini o'qish.                 | 10 daqiqa |
| 7. Mavzuni yakunlash, o'quvchilarni baholash va uyga vazifa. BBB usuli. | 3 daqiqa  |

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Uyga berilgan vazifa tekshiriladi. O'quvchilardan 5—6 tasi navbati bilan o'zi yoqtirgan ko'rsatuv haqida yozgan ijodiy ishini o'qiydi. Eng yaxshi yozilgan ish ta'kidlab o'tiladi va taqdirlanadi.

**II. O'tilgan mavzuni takrorlash:**

A) Rasm asosida suhbat. 4- topshiriqda berilgan yo'naltiruvchi savollar asosida savol-javob o'tkaziladi.

B) 5- topshiriqda berilgan suhbat matni rollarga bo'lib o'qitiladi. O'quvchilardan o'zlik olmoshining ma'nolariga e'tibor berish va uni tushuntirib berish so'raladi. Ushbu topshiriqqa ijodiy yondashishi va shu mavzuda o'quvchilar orasida erkin suhbat tashkil etish ham mumkin.

**III. Grammatik qoida bayoni.** O'quvchilarga nutqda o'zlik olmoshi nutqda kishilik olmoshi yoki bir so'zi bilan, shuningdek, qaratqich kelishigi qo'shimchasi bilan qo'langanda, ma'noni ta'kidlab kelishi *Ko'rsatuvni men o'zim* olib boraman. Bu gapni *sen o'zing* aytding. *U bir o'zi* keldi. *U o'zining* uyiga ketdi misollari vositasida tushuntiriladi.

**IV. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash.**

O'quvchilar 4- mashqda berilgan maqollar va gaplarni kishilik olmosh 'lari yoki bir so'zini qo'shib ko'chiradilar, o'zlik olmoshining ma'nosida yuz bergan o'zgarishlar o'qituvchi yordamida tushuntiriladi. So'ngra 5- mashqdagi topshiriq asosida, o'zlari berilgan gaplardagi kishilik olmoshlarini o'zlik olmoshlari bilan almashtirib yozadilar va ma'nodagi farqlarini tushuntiradilar. Ushbu mashqlar o'quvchilarda olmoshlarni nutqda to'g'ri qo'llash malakalarini hosil qilishga qaratilgan.

**V. Nutqiy mavzuni mustahkamlash.** "Bolalarning sevimli ko'rsatuvni" matni ustida ishlash (6- mashq). O'quvchilar matnni ovoz chiqarib o'qiydilar, o'zlik olmoshini o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiradilar va ma'nolarini tushuntiradilar.

**VI. Adabiy o'qish** ruknida berilgan Dilshod Rajabning "Ko'rsatuvni ko'rib" she'ri ifodali o'qitiladi, notanish so'zlar lug'ati ustida ishlanadi.

**VII. Mavzuni yakunlash.** BBB kartochkalarini tarqatish va o'quvchilardan fikrlarini olish. O'quvchilarga ushbu kartochkalarni dars tugashidan oldinroq tarqatib qo'yish va dars oxirida ulardan qisqagina to'ldirib berishni so'rash o'quvchilarning o'tilgan mavzu bo'yicha egalagan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashga va to'g'ri baholashga yordam beradi.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholash.

**Uyga vazifa:** O'zi yoqtirgan ko'rsatuv haqida so'zlab berish.

**VII MAVZU: KUZGI NE'MATLAR  
(Kelishik qo'shimchalari bilan kelgan  
bo'lishsizlik olmoshlarining qo'llanishi)**

**15 - dars**

**Darsning maqsadi:**

**2. Tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarga kuzgi ne'matlar haqida ma'lumot berish, ularni kuz fasliga, tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

**1. Ta'limiy maqsad:** O'quvchilarga bo'lishsizlik olmoshlari, ularning yasalishi, bildiradigan ma'nolari haqida ma'lumot berish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad:** O'quvchilarni erkin fikrlashga, o'z fikrini og'zaki va yozma mustaqil bayon etishga o'rgatish.

**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, elektron vositalar, videolavha va rasmlar.

**Darsda qo'llanadigan metodlar.** Interfaol metod, guruhlariga bo'linib ishlash, aqliy hujum, grammatik o'yin.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O'quvchi o'zbek tilida bo'lishsizlik olmoshlarining so'roq olmoshlariga bir, narsa so'zlarini qo'shish orqali hosil bo'lishi haqida ma'lumotga ega bo'ladi; ularda o'zlik olmoshlarini nutqda farqlab qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi; o'zi sevgan teleko'rsatuvlar haqida o'z fikrini bog'lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

### Dars rejasi:

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini soʻrash va baholash.	8 daqiqa
2. Yangi mavzu bayoni. Rasm asosida suhbat. (1 va 2-topshiriqlar). “Kuz tabiati” sheʼri va “Oltin kuz” matni ustida ishlash (1- mashq).	12 daqiqa
3. Grammatik qoida bayoni	7 daqiqa
4. Mustahkamlash mashqlari (2-3- mashqlar). “Kuz neʼmatlari” matni ustida ishlash.	10 daqiqa
5. Rebusni yechish va guruhlariga boʻlinib ishlash (3-4-topshiriqlar).	6 daqiqa
6. Oʻquvchilar bilimini baholash, uyga vazifa.	2 daqiqa

### Darsning borishi:

**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasini soʻrash va baholash. Oʻquvchilar tuzib kelgan bolalar telekoʻrsatuvlari roʻyxatini oʻqiydilar va ushbu koʻrsatuvlar haqida maʼlumotlar beradilar. Eng toʻliq roʻyxat tuzgan va maʼlumot toʻplagan oʻquvchi alohida taʼkidlab koʻrsatilib baholanadi.

**II. Yangi mavzu bayoni interfaol oʻyindan boshlanadi.** Oʻqituvchi oʻquvchilarni ikki guruhga boʻladi va darslikda berilgan rasmlardan birini tasvirlash topshiriladi (1- topshiriq).

1- guruh:  
Bogʻ, meva terimi  
jarayoni

2- guruh:  
Dala, poliz  
ekinlari yigʻimi

Soʻng Shukur Saʼdullaning “Kuz tabiati” haqidagi sheʼri oʻqitiladi (2- topshiriq), notanish soʻzlar bilan tanishtiriladi va sheʼr mazmuni asosida kuz falida tabiatda boʻladigan oʻzgarishlar soʻzlatiladi. Shundan soʻng “Oltin kuz” matni oʻqitiladi va oʻquvchilar eʼtibori ajratib koʻrsatilgan *hech bir, hech qaysi* soʻzlariga qaratiladi (1- mashq).

## Aqliy hujum

*Hech kim* hech narsa demadi.  
Sizga hech nima qilmadimi?  
*Hech qaysi* mamlakatda yoshlarga  
bizdagiday sharoitlar yo‘q.

hech + kim, nima  
hech + bir, narsa

**III. Grammatik qoida bayoni.** O‘qituvchi ushbu misollardan foydalanib o‘quvchilarga bo‘lishsizlik olmoshlari so‘roq olmoshlariga hamda bir, narsa so‘zlariga hech so‘zini qo‘shish orqali hosil qilinishi haqida ma’lumot beriladi.

**Bilib oling!** Bo‘lishsizlik olmoshlari so‘roq olmoshlariga hamda bir, narsa so‘zlariga hech so‘zini qo‘shish orqali hosil qilinadi. Masalan: *hech bir, hech narsa, hech kim, hech nima, hech qaysi, hech qancha, hech qanday, hech qayer* kabi. Hech narsa, hech kim, hech nima shaxs va narsa-buyumni, *hech bir, hech qaysi, hech qancha, hech qanday* olmoshlari narsa-buyumning belgisi yoki miqdorini, *hech qayer, hech qachon* so‘zlari esa o‘rni yoki paytni inkor qilish uchun ishlatiladi.

**IV. Mustahkamlash.** Darsning bu bosqichi ikki bosqichdan iborat.

⇒ A) Grammatik ma’lumotni mustahkamlash uchun darslikdagi 2-3- mashqlar bajartiriladi. 2- mashqda so‘zlarga avval har, keyin hech so‘zini qo‘shib, yangi so‘zlar hosil qiling va shu so‘zlar asosida matn tuzish topshirig‘i berilgan. Bu interfaol usulda tashkil etiladi va o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi.

1- guruh:  
Har +...

2- guruh:  
Hech +...

Birinchi guruhga berilgan soʻzlarga har soʻzini, ikkinchi guruhga hech soʻzini qoʻshgan holda yangi soʻzlar hosil qilish, shu soʻzlarni tayanch qilib matn tuzishni topshirish mumkin. Qaysi guruh topshiriqni birinchi boʻlib sifatli bajarsa ragʻbatlantiriladi.

⇒ **B) Nutqiy mavzuni mustahkamlash** uchun 3- mashq va 3-4- topshiriqlarni bajarish koʻzda tutiladi. 3- mashqda rasmlarda tasvirlangan mevalarning nomini yozib gaplarni toʻldirish soʻralgan. Bu mashqni ham interfaol usulda bajartirish va guruhlar musobaqasi tarzida tashkil etish samarali boʻladi. 3- topshiriqda berilgan rebusni yechish soʻralgan.

4- topshiriq asosida "Kim koʻp biladi?" oʻyinini tashkil qilish. Oʻquvchilar guruhlariga boʻlinadi. 1- guruh poliz ekinlarini, 2- guruh mevalarning nomlarini topishi va doskaga ustun shaklida yozishi kerak. Bu oʻrinda oʻqituvchi nomlari aytilgan mevalarning foydali xususiyatlari haqida gapirib berishni soʻrashi ham maqsadga muvofiq.

Shuningdek, har bir guruh oldiga kuz neʼmatlari bilan toʻldirilgan likopcha yoki savatchani qoʻyib, undagi mevalarni navbatma-navbat taʼriflab berishni soʻrash ham mumkin.



**V. Darsni yakunlash.** Oʻqituvchi darsni yakunlaydi, faol ishtirok etgan oʻquvchilarni baholaydi.

**Uyga vazifa:** Sahovatli kuz fasli bizga inʼom etadigan neʼmatlarning foydali xususiyatlari haqida maʼlumotlar yozib kelish.

## 16 - dars

**1. Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarga bo'lishsizlik olmoshlarining egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, bu qo'shimchalarining qo'shilish tartibi haqida ma'lumot berish, lug'at boyligini oshirish.

**2. Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarga kuzgi ne'matlar, hosil bayrami, dehqonlarning mehnati haqida ma'lumot berish, o'quvchilarni dehqonlarning mehnatini qadrlashga undash, mehnatsevar xalqimizni e'zozlashga o'rgatish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad:** lug'at boyligini oshirish, ularda bo'lishsizlik olmoshlarini nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikma va malakalarini shakllantirish. Og'zaki va yozma bog'lanishli nutqini rivojlantirish.

**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, slaydlar, bozor va hosil bayrami tasviri videolavhasi yoki rasmlar, Yo'ldosh Sulaymon va Mamarasul Boboevning she'riy to'plamlari.

**Dars metodlari.** Hamkorlik metodi, aqliy hujum, kim tez topadi? klaster usuli.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O'quvchi o'zbek tilida o'zlik olmoshi nutqda kishilik olmoshi yoki bir so'zi bilan, shuningdek, qaratqich kelishigi qo'shimchasi bilan qo'llanganda, ma'noni ta'kidlab kelishi haqida ma'lumotga ega bo'ladi; ularda o'zlik olmoshlarini nutqda farqlab qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi; o'zi sevgan teleko'rsatuvlar haqida o'z fikrini bog'lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

### Dars rejasi:

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash. 7 daqiqa
2. Yangi mavzuga kirish (5- va 6- topshiriqlar). "Kuz" she'ri ustida ishlash. 8 daqiqa
3. Grammatik qoida bayoni. Slayd namoyishi. 7 daqiqa

- |   |          |
|---|----------|
| 4. Grammatik qoidani mustahkamlash mashq (4- mashq).                        | 8 daqiqa |
| 5. "Hosil bayrami" matni ustida ishlash (5 mashq).<br>Bideolavha namoyishi. | 7 daqiqa |

- |  |          |
|--|----------|
| 6. Adabiy o'qish. M.Boboyevning "O'zbekiston" she'ri ustida ishlash. | 6 daqiqa |
| 7. Mavzuni yakunlash, o'quvchilarni baholash va uyg'a vazifa.        | 2 daqiqa |

### **Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasi so'rab baholanadi. O'quvchilar kuz ne'matlarining foydali xususiyatlari haqida ma'lumot beradilar.

**II. Yangi mavzuga kirish.** O'qituvchi o'quvchilar tomonidan aytilgan fikrlarni to'ldirib, o'quvchilar e'tiborini darslikda berilgan rasmlarga qaratadi. O'quvchilar 4-topshiriq asosida rasmlarda kim tasvirlangani, ular nima ish bilan mashg'ulligi haqida so'zlab beradilar.

So'ngra Yo'ldosh Sulaymonning "Kuz" she'ri ifodali o'qitiladi (5- topshiriq) va she'r mazmuni so'zlatiladi. Bunda asosiy e'tibor she'rning yakuniy qismiga qaratiladi. O'quvchilarga "Shunday go'zal, Shunday asal, Ehson tutgan o'zi kim? Dehqon og'am, Dehqon tog'am, O'sha dehqon amakim!" satrlari yana qaytadan o'qitiriladi. O'qituvchi kuzgi ne'matlar bobodehqonlarimizning mashaqqatli mehnati bilan etishtirilishi, bozorlarimiz, dasturxonlarimizning to'kinsochinligi ular tufayli ekanligi, shu bois dehqonlarning mehnatini qadrlash, sahovatli yurtimiz va mehnatsevar xalqimizni e'zozlash bizning burchimiz ekanligini uqtiradi.

**III. Grammatik qoida bayoni.** Slaydlar vositasida bo'lishsizlik olmoshlarining kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi, olmoshlarga egalik va kelishik qo'shimchalarining qo'shilish tartibi haqida ma'lumot beriladi.

Slayd namoyishi:

**Bo'lishsizlik olmoshlari kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi**

Bo'lishsizlik olmoshlari kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi mumkin. Masalan:

*hech kim*

*hech nima* + *-ni, -ning, -ga, -da, -dan*

*hech narsa*

*hech qancha*

Ayrim olmoshlarga avval egalik qo'shimchalari, so'ngra kelishik qo'shimchalari qo'shib keladi. Masalan:

*hech qaysi*

*hech bir* + *imiz + -ni, -ning, -ga, -da, -dan*

*hech qayer*

**IV. Mustahkamlash.** Mavzuni mustahkamlash uchun darslikdagi 4-5- mashqlar va 6- topshiriq bajartiriladi. 4- mashqda berilgan namuna asosida olmoshlarni so'zlar bilan almashtirib, gaplar tuzdirish va gaplar mazmunidagi o'zgarishni tushuntirib berish topshirig'i berilgan. Ushbu mashqni avval doskada klaster usulida bajartirish, topshiriqning ikkinchi qismini esa mustaqil bajartirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

*Biz*            *qovunlar*  
*uzumlar*      *-ni*      *uzmoq*  
*tarvuzlar*

*Siz*            *anorlar*  
*olmalar*      *-ni*      *termoq*  
*xurmolar*

**V. Nutqiy mavzuni mustahkamlash.** "Hosil bayrami" matni ustida ishlash (5- mashq). O'quvchilar matni qavs ichida berilgan so'zlardan mosini qo'yib ko'chiradilar.

So'ng matn o'qitiladi, xatolar to'g'rilanadi. Shuningdek, hosil bayrami haqidagi rasm yoki videolavhani namoyish qilish va quyidagi yo'llovchi savollar asosida suhbat uyushtirish mumkin:

1. *Siz tasvirda nimalarni ko'ryapsiz?*
2. *Nima uchun bu "Hosil bayrami" deb ataladi?*
3. *Dehqonlarning ko'zlaridagi quvonch nimani ifodalaydi?*
4. *Boshqa mamlakatlarda ham shunday bayramlar o'tkaziladimi?*

**VI. Adabiy o'qish.** O'qituvchi Mashrab Boboyevning "O'zbekiston" she'rini avval o'zi ifodali o'qib beradi, so'ng o'quvchilarga "Zanjir" usulida o'qitiadi, notanish so'zlar lug'ati ustida ishlanadi.

**VII. Mavzuni yakunlash.** O'qituvchi aytilgan fikrlarni umumlashtiradi va mavzuni yakunlaydi. O'quvchilar tomonidan to'ldirilgan BBB kartochkalarini o'qitish orqali ular mavzu yuzasidan egallagan bilim, ko'nikma va malakalar aniqlanadi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi va uyga vazifa beriladi.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman

**Uyga vazifa:** "O'zbekiston" she'rini yod olish. She'r matnidagi egalik qo'shimchali so'zlar va so'roq gaplarning o'qilishiga e'tibor berish.

**17 - dars** NI - 2. Test sinovi

**18 - dars** Takrorlash

**VIII MAVZU: KUTUBXONADA**  
**(Kelishik qo‘shimchalari bilan kelgan gumon**  
**olmoshlarining qo‘llanishi)**

**19 - dars**

**Darsning maqsadi:**

**2. Tarbiyaviy maqsad.** O‘quvchilarda kitobni sevish, kitob o‘qishga mehr uyg‘otish orqali ularning ilmga intilishini kuchaytirish.

**1. Ta‘limiy maqsad.** O‘zbek tilida gumon olmoshlarining yasalishi haqida ma‘lumot berish, bu olmoshlarini to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini, nutqda mustaqil ishlatish malakasini shakllantirish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqini, o‘z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.

**Dars metodlari:** hamkorlik metodi, aqliy hujum, BBB usullari.

**Darsning jihozlanishi va vositalari:** "O‘zbek tili" darsligi, tarqatma materiallar, videolavha, CD, DVD disklar, proyektor, slayd.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O‘quvchi o‘zbek tilida gumon olmoshlarining yasalishi va ma‘nolari haqida ma‘lumotga ega bo‘ladi; gumon olmoshlarini nutqda qo‘llash ko‘nikmalari hosil bo‘ladi; kitob o‘qish va kutubxona mavzularida fikrini bog‘lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

**Dars rejasi:**

- |   |           |
|---|-----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash.   | 7 daqiqa  |
| 2. Rasm asosida va "Kutubxonada" mavzusida suhbat.<br>1- topshiriq va 1- mashq bajartiriladi. | 10 daqiqa |

3. Grammatik qoida bayoni. Slayd namoyishi. 7 daqiqa  
4. Mustahkamlash mashqlari (2-4- mashqlar). 8 daqiqa

5. "Bilasizmi?" rukni asosida guruhlarda ishlash  
(2- topshiriq). 10 daqiqa  
6. BBB usuli. O'quvchilarni baholash va uyga vazifa.  
5 daqiqa

### I. Taskiliy qism

Uyga vazifa — M. Boboyevning "O'zbekiston" she'ri ifodali o'qitiladi hamda 5- mashqda berilgan mevalar ta'rifi so'raladi. Shu asosda o'tilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim va malakalari baholanadi.

Nutqiy mavzuga kirish.

1. Rasm ustida ishlash va "Kutubxonada" mavzusida suhbat (1- topshiriq).
2. 1- mashqni yozma bajarish.

### II. Yangi mavzu bayoni

⇒ Grammatik qoidan bayonidan avval 1- mashqda- gi matnni o'qitish va o'quvchilarni matn mazmuniga hamda matnda ajratib ko'rsatilgan kimdir, qaysidir, kimlarningdir so'zlariga o'quvchilar e'tiborini jalb qilish maqsadga muvofiq.

**Bilib oling!** O'qituvchi o'quvchilarga o'zbek tilida gumon olmoshlari shaxs va narsa-buiyum, ularning belgi, miqdori, o'rni, payti noaniqligini ifodalashi, ular so'roq olmoshlari oldidan alla so'zini yoki ulardan keyin *-dir* qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinishi haqida ma'lumot beradi.

Buning uchun quyidagi slayddan foydalanish tavsiya etiladi:

1- slayd namoyishi:

### Gumon olmoshlarining hosil qilinishi

*kim*  
*nima*  
*qaysi*  
*alla + qanday + dir*  
*qancha*  
*nechta*

### III. Mustankamlash.

Grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun darslikda berilgan 2-4- mashqlar yordamida o'quvchilarda so'zlarga *alla* so'zini yoki *-dir* qo'shimchasini qo'shib, gumon olmoshlarini hosil qilish (2- mashq), qavs ichida berilgan olmoshlardan mosini qo'yib gaplarni to'ldirish (3- mashq), ke gaplardagi gumon olmoshlarini topib, qo'llanishini tushuntirish (4- mashq) ko'nikmalari hosil qildiriladi.

### IV. Guruhlarda ishlash.

O'quvchilarga 2- topshiriqdagi "Bilasizmi?" rukni o'qitiladi. So'ngra 5 ta guruhga bo'linib, kim nimani va qanday o'rganganligini yozib chiqadilar.



So'ngra har bir guruhdan bittadan vakil chiqib, buyuk allomalarimiz haqida ma'lumotlar beradilar hamda namuna asosida o'z xulosalarini yozadilar. Qaysi guruh topshiriqni birinchi bo'lib va yaxshi bajarsa, yuqori baho bilan rag'batlantiriladi.

### V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida avvaldan tarqatib qo'yilgan BBB kar-

tochkalari o'quvchilartomonidan to'ldirtiriladi hamda o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalar aniqlanib, ularga baho qo'yiladi.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman

**Uyga vazifa.** Maktabingiz kutubxonasidan olgan kitoblaringiz haqida so'zlab bering.

## 20 - dars

**1. Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarga gumon olmoshlarini ko'plik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishini tushuntirish va gumon olmoshlarini nutq jarayonida to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

**2. Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarni kitob o'qishga undash, ularning ilmga intilishini kuchaytirish, zamonaviy kutubxonalar afzalliklari bilan tanishtirish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad:** O'quvchilarni mavzu doirasida og'zaki va yozma erkin so'zlashish malakalarini shakllantirish.

**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, "Ma'rifat markazi" rasmi, elektron kutubxona haqida videolavha, slaydlar.

**Dars metodlari.** Hamkorlik metodi, aqliy hujum, rolli o'yin.

**Dars rejasi:**

- |  |           |
|--|-----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash.  | 8 daqiqa  |
| 2. "Ma'rifat markazi" matni ustida ishlash, elektron kutubxona videolavhasi yoki rasm asosida suhbat (3- topshiriq, 5- mashq). | 10 daqiqa |

- |   |          |
|---|----------|
| 3. Grammatik qoida bilan tanishtirish.1-va 2- slaydlar namoyishi. | 8 daqiqa |
| 4. Mustahkamlash mashqlari (6- mashq, 4- topshiriq )              | 7 daqiqa |

- |  |           |
|--|-----------|
| 5. Adabiy o‘qish. “Kitob o‘qishning hikmati” matni ustida ishlash. Zanjir usuli. | 10 daqiqa |
| 6. Test yordamida o‘quvchilarni baholash va uyga vazifa.                         | 2 daqiqa  |

### **Darsning borishi:**

#### **I. Taskiliy qism.**

Uy vazifasini so‘rab baholash. O‘quvchilardan "Maktab kutubxonasida" mavzusida tuzib kelgan matnlari o‘qitiladi, oxirgi o‘qigan kitoblari haqida, tuzgan matnlari tarkibida qo‘llagan gumon olmoshlari, ularning yasalishi bo‘yicha qo‘shimcha savollar berib, o‘quvchilarning egallagan bilim-ko‘nikmalari baholanadi.

#### **II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar diqqati darslikdagi 3- topshiriqda berilgan suhbat matnini rolli o‘qish tavsiya etiladi. So‘ngra "Ma‘rifat markazi" matni ustida ishlanadi (5- mashq). Avval matn o‘qitiladi, matndagi olmoshlarni aniqlatiladi va ularning ma‘nosi izohlatiladi. Ushbu matn ustida ishlash jarayonida Toshkent shahrida yangi qurilgan "Ma‘rifat markazi" rasmidan, u yerdagi elektron kutubxona haqidagi videolavhadan foydalanish tavsiya etiladi.

#### **III. Yangi mavzu bayoni.**

**Bilib oling!** Gumon olmoshlariga ko‘plik qo‘shimchalari kelishik qo‘shimchalaridan oldin qo‘shiladi. Masalan: *kimdir — kimlargadir, nimadir — nimalarni, birovlarining* kabi. Birov, biron, biror so‘zlari gumon olmoshlari bo‘lib, ular bir so‘ziga *-ov, -on, -or* qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yasaladi. Biron, *biror* so‘zlari *biron-bir, biror-bir* shaklida juft holda ham qo‘llanadi.

Ushbu qoidani tushuntirishda 1- mavzudagi slaydning davomini namoyish qilish yaxshi natija beradi.

2- slayd namoyishi:

<b>Gumon olmoshlarining kelishik va ko‘plik qo‘shimchalari bilan ishlatilishi</b>				
	<i>kim</i>			<i>ni</i>
<i>alla +</i>	<i>nima</i>	<i>+ lar</i>	<i>+</i>	<i>ning</i>
	<i>birov</i>			<i>ga</i>
	<i>birov-bir</i>			<i>da</i>
	<i>birov-bir</i>			<i>dan</i>

#### **IV. Mavzuni mustahkamlash.**

Grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun darslikda berilgan 6- mashqdagi terma gaplardan foydalaniladi. O'quvchilar gaplar tarkibidagi gumon olmoshlari qaysi kelishik qo'shimchalari bilan kelganligini aniqlaydilar, qo'llanishini slaydga qarab turib izohlaydilar. O'quvchilarning nutqiy malakalarini mustahkamlash uchun esa 4-topshiriqdagi suhbat matni og'zaki o'qitiladi.

**V. Adabiy o'qish.** "Kitob o'qishning hikmati" matni "Zanjir" usulida ovoz chiqarib ifodali o'qitiladi (5- topshiriq). Kattaroq nasriy va she'riy matnlarni shu usulda o'qitish o'quvchilarni o'qish jarayonini diqqat bilan kuzatib borishga, bir-biridan yaxshiroq o'qishga intilishga o'rgatadi. So'ng notanish so'zlar lug'ati ustida ishlanadi. Bu o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi, nutqiy malakalarini mustahkamlaydi va mavzuga oid bilimlarini chuqurlashtiradi.

#### **VI. Darsni yakunlash.**

Darsni yakunlashda quyidagi test topshiriqlaridan foydalanish mumkin. Bu o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash va baholash imkonini beradi:

1. Gumon olmoshlari berilgan qatorni ko'rsating.
  - A) bir narsa, har narsa, hech narsa
  - B) allanima, kimdir, allanarsa
  - C) hech bir, hech narsa, hech kim,
  
2. Gumon olmoshi xato yozilgan qatorni ko'rsating.
  - A) har qancha, har qaysi, har nima
  - B) alla narsa, kimdir, nimalardir
  - C) har narsa, hech kim, bir nima
  
3. Gumon olmoshlarini hosil qiluvchi vositalar berilgan qatorni ko'rsating.
  - A) har, hech
  - B) alla, - dir
  - C) narsa, bir
  
4. Gumon olmoshlarining imlosi to'g'ri berilgan qatorni ko'rsating.
  - A) alla so'zdan oldin kelib ajratib yoziladi, - dir so'zdan keyin kelib qo'shib yoziladi
  - B) alla so'zdan oldin kelib qo'shib yoziladi, - dir so'zdan keyin kelib ajratib yoziladi
  - C) alla so'zdan keyin kelib ajratib yoziladi, - dir so'zdan oldin kelib qo'shib yoziladi.

**Uyga vazifa.** "Kitob o'qishning hikmati" matni mazmunini hikoya qilib berish. Matnda qo'llangan gumon olmoshlarni aniqlab, qo'llanishini tushuntirish.

**IX MAVZU: QADIMIY VA NAVQIRON SHAHARLAR**  
**(Ozaytirma darajadagi sifatlarning**  
**qo'llanishi)**

**21 - dars**

**Darsning maqsadi:**

**2. Tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarda istiqbol tufayli respublikamiz viloyatlari, shahar va qishloqlarida yuz bergan katta o'zgarishlar bilan faxrlanish tuyg'ularini tarbiyalash.

**1. Ta'limiy maqsad:** O'quvchilarga sintaktik usulda sifatlarning ozaytirma darajasini hosil qilish haqida ma'lumot berish, sifatlarning ozaytirma darajasini nutqda to'g'ri qo'llash malakasini shakllantirish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad:** O'quvchilarning og'zaki va yozma bog'lanishli nutqini shakllantirish.

**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, videolavha, proyektor, rasmlar, slaydlar.

**Darsda qo'llanadigan metodlar.** Aqliy hujum, guruhlarga bo'linib ishlash, klaster, BBB usuli.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O'quvchi o'zbek tilida sifatlarning ozaytirma darajasi morfologik usul — qo'shimchalar qo'shish va sintaktik usul — so'zlar qo'shish vositasida hosil bo'lishi haqida ma'lumotga ega bo'ladi; sifatlarni nutqda amaliy qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi; qadimiy va navqiron shaharlar mavzularida o'z fikrini bog'lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

**Dars rejasi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash.	8 daqiqa
2. 1- topshiriqdagi savollar asosida suhbat va Samarqand matni ustida ishlash (1- mashq).	10 daqiqa

3. Yangi grammatik mavzu bayoni. Slayd namoyishi.	8 daqiqa
4. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (2-3- mashqlar).	7 daqiqa

5. Nutqiy malakalarini mustahkamlash (2- topshiriq, 4- mashq). Tarmoqlangan klaster usuli, guruhlarga bo'linib ishlash. 10 daqiqa
6. O'quvchilarni baholash va uyga vazifa. 2 daqiqa

### Darsning borishi: I. Tashkiliy qism.

O'quvchilarga "Kitob o'qishning hikmati" hikoya qildiriladi. Asarda qo'llangan gumon olmoshlari, ularning yasalishi bo'yicha qo'shimcha savollar berib, o'quvchilarning egallagan bilim-ko'nikmalari baholanadi. Bunda asosiy e'tibor buyuk alloma Ibn Sinoning kitob mutoalasini qanchalik yaxshi ko'rganiga qaratilish kerak. Aqliy hujum usuli

### II. O'tilgan mavzuni takrorlash.

1- topshiriq. Berilgan savollar, darslikdagi rasm yoki videolavha asosida qadimiy shaharlarimiz haqida suhbat tashkil etish.

1- mashq. "Samarqand" matnini o'qitish, ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida so'z birikmalari tuzdirish.

calobatli ...  
ko'kish ... ,  
sarg'ish ...  
qizg'ish ...

### III. Grammatik mavzu bayoni.

**Bilib oling!** Sifatlarning ozaytirma darajasi *-mtir, -imtir, -ish* qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil qilinadi va belgining kamligi, kuchsizligini bildiradi. Masalan: *qoramtir, ko'kimtir, sarg'imtir, oqish, ko'kish, sarg'ish* kabi. Shuningdek, *-roq* qo'shimchasi ham belgini ozaytirib ifodalaydi. Ushbu qo'shimchalar qo'shilganda, ayrim tovush o'zgarishlari yuz berishi mumkin. Masalan: *sariq+ish - sarg'ish, qizil+ish qizg'ish* kabi.

O'zbek tilida sifatning ozaytirma darajasi morfologik usul- qo'shimchalar qo'shish va sintaktik usul — so'zlar qo'shish vositasida hosil qilinadi. Bu ma'lumot 2 soatga taqsimlanadi va 1- soatda sifat darajalarining morfologik

usulda hosil qilinishi, 2- soatda sintaktik usul bilan hosil qilinishini o'rgatish rejalashtiriladi. Darslikdagi grammatik qoidalar ham shu asosda berilgan bo'lib, ushbu qoidalarni tushuntirish uchun 2 ta slayddan (1- va 2- darslar uchun) foydalanish ko'zda tutiladi.

1- slayd namoyishi:

<b>Morfologik usulda sifatlarning ozaytirma darajasini hosil qilish</b>		
<i>Oddiy daraja</i>	<i>Qiyosiy daraja</i>	<i>Ozaytirma daraja</i>
qizil	qizilroq	qizg'ish
katta	kattaroq	
qora	qoraroq	qoramtir
pushti	pushtiroq	
kichik	kichikroq	
sho'r	sho'rroq	


#### IV. Mavzuni mustahkamlash.

⇒ **A)** Darslikdagi 2- va 3- mashqlar grammatik ma'lumotlarni mustahkamlashga qaratilgan. 2- mashq berilgan namuna asosida bajariladi, 3- mashqda esa nuqtalar o'rniga sifatlarni qo'yib, quyidagicha so'z birikmalari tuzish ko'zda tutiladi:

baland minora	hashamatli bino	eski shahar
moviy osmon	mustahkam qal'a	tosh ko'cha
qadimiy obida	muhtasham qasr	mashhur madrasa
keng maydon	muqaddas maqbara	go'zal mehmonxona

⇒ **B)** 2- topshiriq va 4- mashqni o'quvchilarning nutqiy malakalarini mustahkamlashga qaratilgan. 2- topshiriqni bajarishda tarmoqlangan klaster usulidan foydalanish tavsiya etiladi.

### Tarmoqlangan klaster namunasi



Darslikda yordamchi vosita sifatida foydalanish uchun soʻzlar berilgan. Shuningdek, oʻquvchilarga oldingi mashqlardagi maʼlumotlardan ham foydalanish tavsiya etiladi. Mashq va topshiriqlarni bajarishda avval oʻtilganlarga murojaat qilib turish oʻquvchilarning egallayotgan bilim va koʻnik-

malarini mustahkamlab borishga, o‘tilgan mavzularni takrorlab turishga o‘rgatadi.

4- mashqni bajarishdan oldin o‘quvchilar diqqati darslikdagi rasmlarga qaratiladi. O‘quvchilar 2 guruhga bo‘linadi va 1- guruh birinchi rasm va birinchi matn asosida, 2- guruh ikkinchi rasm va ikkinchi matn asosida ishlaydilar.

Guruhlarga bo‘linib ishlash

1- guruh:  
Qadimiy Samarqand

2- guruh:  
Zamonaviy Samarqand

Har bir guruh a‘zolari hamkorlikda matnni o‘qib, rasm asosida va avvalgi mashqlardan olgan ma‘lumotlari asosida matnni davom ettiradilar. Belgilangan muddat ichida matnni eng yaxshi tuzgan guruh g‘olib bo‘ladi.

**V. Darsni yakunlash:**

a) BBB usulida o‘quvchilarning bilim va malakalari aniqlanadi.

b) Faol o‘quvchilar baholanadi.

**Uyga vazifa.** "Qadimiy va zamonaviy Samarqand" mavzusida ijodiy matn tuzish.

## 22 - dars

**Darsning maqsadi:**

**1. Darsning ta‘limiy maqsadi.** O‘quvchilarga sintaktik usulda sifatlarning ozaytirma darajasini hosil qilish haqida ma‘lumot berish, sifatlarning ozaytirma darajasini to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatish.

**2. Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O‘quvchilarda istiqloq tufayli respublikamiz viloyatlari, shahar va qishloqlarida yuz bergan katta o‘zgarishlar bilan faxrlanish tuyg‘ularini tarbiyalash.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O‘quvchilarning og‘zaki va yozma bog‘lanishli nutqini shakllantirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.

**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, Buxorodagi Minorai kalon, Ark rasmlari (videolavhalari), Abdulla Oripovning "Dehqonbobo va 12 bolakay", Safar Barnoyevning "Minora" she'rlari, slaydlar.

**Dars metodlari.** Interfaol usullar: guruhlarga bo'linib ishlash, "Zanjir", BBB usullari, "Taqdimot" o'yini, tarqatma materiallar.

**Darsdan kutiladigan BKM natijalari.** O'quvchi o'zbek tilida sifatlarning ozaytirma darajasi ozaytirma daraja sifat oldidan och, nim, sal, picha, biroz so'zlarini qo'llash yordamida ham ifodalanishi haqida ma'lumotga ega bo'ladi; ushbu so'zlarni nutqda amaliy qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi; qadimiy va navqiron shaharlar mavzularida o'z fikrini bog'lanishli ifodalash malakasi shakllanadi.

#### **Dars rejasi:**

- |  |          |
|--|----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash.  | 7 daqiqa |
| 2. Safar Barnoyevning "Minora" she'ri, rasmlar yoki videolavha namoyishi (3- topshiriq). | 8 daqiqa |

- |   |           |
|---|-----------|
| 3. Grammatik qoida bayoni. 2-slayd namoyishi.   | 5 daqiqa  |
| 4. Mustahkamlash (5-7- mashqlar, 4- topshiriq). | 10 daqiqa |

- |   |           |
|---|-----------|
| 5. Adabiy o'qish. "Dehqonbobo va 12 bolakay" she'ri. Guruhlarga bo'linish, "Taqdimot" o'yini.   | 13 daqiqa |
| 6. Mavzuni yakunlash, o'quvchilarni baholash (BBB usuli). Uyga vazifa: savollarga javob yoziah. | 2 daqiqa  |

#### **Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** Uy vazifasini so'rash va baholash.

**II. O'tilgan mavzuni takrorlash.**

3- topshiriqda o'qituvchi qadimiy va navqiron shaharlarimizdan yana biri Buxoro ekanligini eslatib, Safar Barnoyevning "Minora" she'rini ifodali o'qitadi va o'quv-

chilar diqqatini Buxoro shahridagi Minorai kalon, Ark me'moriy obidalar rasmiga (yoki videolavhasiga) jalb qiladi. Ushbu tasvirlarni ta'riflashda sifat va uning daraja shakllaridan foydalanishga harakat qilish kerak. Jumladan, quyidagi kabi savollar yozilgan tarqatma materiallarni tarqatish orqali o'quvchilarni she'r mazmuniga olib kirish mumkin:

Shoir minorani tasvirlashda qanday so'zlardan foydalangan?

Ushbu satrlar ma'nosini izohlang: «Qaramoqchi bo'lsang do'pping tusar boshingdan»

Siz bu minorani o'z so'zlaringiz bilan qanday tasvirlaysiz?

5- mashq. Matnni o'qitiladi. So'ng o'quvchilar e'tibori ajratib ko'rsatilgan so'zlar va so'z birikmalariga qaratiladi va grammatik qoidani tushuntirishga o'tiladi.

### III. Yangi mavzu bayoni.

**Bilib oling!** Ozaytirma daraja sifat oldidan och, nim, sal, picha, biroz so'zlarini qo'llash yordamida ham ifodalanishi mumkin. Masalan: *och yashil, nim pushti, sal kam, picha ko'p, ozgina kattaroq, biroz kichikroq* kabi.

2- slayd namoyishi:

**Sintaktik usulda sifatlarning ozaytirma darajasini hosil qilish**


<i>Oddiy daraja</i>	<i>Qiyosiy daraja</i>	<i>Ozaytirma daraja</i>
<i>qizil</i>	<i>qizilroq</i>	<i>qizg'ish, sal qizil</i>
<i>katta</i>	<i>kattaroq</i>	<i>picha katta</i>
<i>qora</i>	<i>qoraroq</i>	<i>qoramtir, biroz qora</i>
<i>pushti</i>	<i>pushtiroq</i>	<i>nim pushti</i>
<i>kichik</i>	<i>kichikroq</i>	<i>ozgina kichik</i>
<i>sho'r</i>	<i>sho'rroq</i>	<i>jindak sho'r</i>

**IV. Mavzuni mustahkamlash.**

⇒ A) Grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun 6- mashq og'zaki, 7- mashq esa yozma bajartiriladi. O'quvchilar 6- mashq topshirig'iga ko'ra berilgan so'zlardan ozaytirma darajadagi sifatlarni hosil qiladilar. 7- mashqda esa berilgan matnning nuqtalar o'rnini foydalanish uchun berilgan so'zlar bilan to'ldirib yozadilar.

⇒ B) Nutqiy mavzuni mustahkamlash 4- topshiriq va adabiy o'qish materialidan foydalaniladi. 4- topshiriqni bajarishda o'quvchilar berilgan matnlardagi ma'lumotlardan foydalanib, savollarga javob beradilar. Topshiriq asosida sifatlarning ozaytirma daraja shakllarini qo'llab, amaliy nutqiy ko'nikmalarini mustahkamlaydilar.

⇒ Guruhlarga bo'linib ishlash. "Taqdimot" o'yini. Adabiy o'qish materialida berilgan Abdulla Oripovning "Dehqonbobo va 12 bolakay" she'rini "Zanjir" usulida ifodali o'qitish va ushbu she'r asosida "Taqdimot" o'yinini tashki qilish darsning tarbiyaviy-talimiy maqsadiga erishishga katta yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lish va har bir guruhga bittadan shahar taqdimotini topshirish kerak. Guruh a'zolari 13 daqiqa ichida shu shaharning tarixi va hozirgi holati haqida ma'lumot taqdim qilishlari kerak.



### V. Mavzuni yakunlash.

BBB usuli bo'yicha tarqatilgan kartochkalarni o'qitish va o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni baholash. Bunda ushbu kartochkalarning quyidagi tarzda to'ldirilishi ko'zda tutiladi:

Bilar edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman
Sifatlarning daraja shakllarini	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Belgi bildiruvchi so'zlar-ning qo'llanishini</li> <li>2. Sifatning ozaytirma darajasini</li> <li>3. <i>-mtir, -mtir, -sh, -ish</i> qo'shimchalarini</li> <li>4. <i>Och, nim, sal, xiyol, picha, jindak</i> so'zlarini qo'llashni</li> </ol>	Orttirma darajani

**Uyga vazifa.** She'rni yod olish.

**X MAVZU: TABIAT VA IQLIM**  
**(Orttirma darajadagi sifatlarning qo'llanishi)**

**23 - dars**

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarga sifatlarning orttirma darajasini hosil qiluvchi qo'shimchalar, ularning imlosi va qo'llanishi haqida ma'lumot berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarni respublikamizning tabiati va iqlimi bilan tanishtirish, ularni tabiatni asrab-avaylash tuyg'ularini tarbiyalash.

**Darsning jihozlanishi.** Darslik, O'zbekiston tabiatiga oid rasmlar, "O'zbekiston ensiklopediyasi", Hamid Olimjonning she'riy to'plami, "O'zbekiston" she'ri, slaydlar.

**Dars metodlari.** Guruhlarga bo'linib ishlash, "Zanjir" usuli, "Taqdimot" o'yini, BBB usuli.

**Dars rejasi:**

- |   |          |
|---|----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash.                               | 8 daqiqa |
| 2. "O'zbekiston tabiati" matni ustida ishlash (1- topshiriq, 1- mashq). | 7 daqiqa |

- |   |           |
|---|-----------|
| 3. Grammatik qoida bilan tanishtirish. 2- slayd namoyishi.                  | 5 daqiqa  |
| 4. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (2-3- mashqlar va 2-3- topshiriqlar). | 7 daqiqa  |
| Hamid Olimjonning "O'zbekiston" she'rini ifodali o'qish (4- topshiriq).     | 15 daqiqa |

- |   |          |
|---|----------|
| 5. O'quvchilarni baholash va uyga vazifa. | 3 daqiqa |
|---|----------|


**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasi — o'quvchilarning o'zlari yashaydigan shahar yoki qishloq tarixi, u yerdagi qadimiy yodgorliklar haqida tuzib kelgan ijodiy matnlari o'qitilib baholanadi.

## II. Yangi mavzu bayoni.

O'quvchilar diqqati darslikda berilgan dovon rasmiga qaratiladi va 1- topshiriq bajartiriladi. O'quvchilar berilgan sifatlovchili birikmalar yordamida bir nechta gaplar tuzib, rasmdagi tabiat ko'rinishini tasvirlaydilar. So'ngra "O'zbekiston tabiati" matni (1- mashq) o'qitiladi va matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni o'zi bog'langan so'zlar bilan ko'chirib yozish topshiriladi: *nihoyatda keng sahro-yu dashtlar, benihoya baland tog'lar, eng baland cho'qqi, tengsiz keng adirlar, xiyla katta past tekisliklar, g'oyatda boy o'lka.*

Ushbu birikmalarni bir yo'la doskaga ham yozdirish yoki aqliy hujum yordamida doskada quyidagicha ish turlarini o'tkazish yangi grammatik mavzu — sifatlarning orttirma darajasi haqida ma'lumot berishga yordam beradi.



## III. Grammatik qoida bayoni.

**Bilib oling!** O'zbek tilida sifatlarning orttirma darajasi belgining oddiy daraja holatidan ortiq ekanligini bildiradi va belgi bildiruvchi so'zlarga *juda, nihoyatda, eng, hammadan, g'oyat, g'oyatda, benihoya, behad, to'q, tim* kabi so'zlarni qo'shish orqali hosil qilinadi.

Grammatik qoidani tushuntirishda quyidagi slayddan foydalanish maqsadga muvofiq:

Slayd namoyishi:

### Sifatlarda orttirma darajaning hosil qilinishi

#### Oddiy daraja

yaxshi  
kuchli  
katta  
aqli  
nafis  
kamtar  
sog'lom

#### Orttirma daraja

juda yaxshi  
nihoyatda kuchli  
benihoya katta  
hammadan aqli  
eng nafis  
g'oyatda kamtar  
behad go'zal

#### IV. Mavzuni mustahkamlash.

⇒ A) Grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun 2-3- topshiriqlar bajartiriladi. O'quvchilar 3- mashqdagi matn mazmunidan foydalanib, 2- topshiriqda berilgan savollarga javob beradilar.

⇒ B) Nutqiy mavzuni mustahkamlash uchun 3- topshiriqda berilgan Hamid Olimjonning "O'zbekiston" she'ridan berilgan parcha ham ifodali o'qitiladi va she'rdagi tasvirlangan tabiat manzaralari so'zlatiladi.

#### V. Darsni yakunlash.

Dars yakunida o'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalar baholanadi. Atrofdagi tabiat manzaralarini kuzatish va o'ziga yoqqan manzarani so'zlab berish uyga vazifa sifatida topshiriladi.

### 24 - dars

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarga sifatlarning orttirma darajasini hosil qilishda ishlatiladigan daraja bildiruvchi so'zlar va ularning qo'llanishi haqida ma'lumot berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarni respublikamiz iqlimi bilan tanishtirish, tabiatga mehr uyg'otish

va ekologik tarbiyani shakllantirish, atrof-muhitga e'tiborli bo'lish, tabiiy boyliklarimizni, asrab-avaylashga chaqirish.

**Darsning jihozlanishi.** Darslik, O'zbekiston iqlimiga oid rasmlar, "O'zbekiston ensiklopediyasi", slaydlar.

**Dars metodlari.** Hamkorlik metodi, vaziyatli topshiriqlar, test topshiriqlari.

**Dars rejasi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash.	7 daqiqa
2. Rasmlar ustida va "O'zbekiston iqlimi" matni ustida ishlash (4- topshiriq, 4- mashq).	8 daqiqa

3. Grammatik qoida bilan tanishtirish. 2- slayd namoyishi.	5 daqiqa
4. Yangi grammatik ma'lumotni mustahkamlash (5-6- mashqlar).	8 daqiqa

5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash. Baziyatli test topshiriqlari (5-6- topshiriq). Hamkorlik metodi.	7 daqiqa
6. Adabiy o'qish.	7 daqiqa
7. O'quvchilarni baholash va uyga vazifa.	3 daqiqa

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarga "Kitob o'qishning hikmati" hikoya qildiriladi. Asarda qo'llangan gumon olmoshlari, ularning yasalishi bo'yicha qo'shimcha savollar berib, o'quvchilarning egallagan bilim-ko'nikmalari baholanadi. Bunda asosiy e'tibor alloma Ibn Sinoning kitob mutoalasini qanchalik yaxshi ko'rganiga qaratilish kerak.

Uy vazifasi: o'quvchilarning o'zlari yashaydigan shahar yoki qishloq tarixi, u yerdagi qadimiy yodgorliklar haqida tuzib kelgan ijodiy matnlari o'qitilib baholanadi.

**II. Nutqiy mavzu bayoni.** "Kuz" she'ridan berilgan to'rtlik ifodali o'qitilib, o'quvchilar diqqati darslikdagi fasllar tasviriga qaratiladi. 4- topshiriq asosida har bir faslda tabiatda va iqlimda bo'ladigan o'zgarishlar haqida suhbat tashkil etiladi. So'ngra "O'zbekiston iqlimi" matni o'qitiladi

(4- mashq) va o'quvchilar matnda ajratib ko'rsatilgan *juda quruq, xiyla sovuq, juda issiq, eng sovuq, eng issiq* kabi so'zlar asosida iqlimga oid so'zlar bilan tanishtiriladi.

**III. Grammatik ma'lumot** bayonida orttirma daraja sifatning birinchi bo'g'iniga *p, m, k, s* kabi tovushlarni qo'shib takrorlash yo'li bilan ham hosil qilinishi, bunday sifatlar chiziqcha bilan yozilishi, biroq oq sifatining orttirma darajasi oppoq shaklida qo'shib yozilishi haqida ma'lumot beriladi. Darslikda berilgan *yap-yangi, dum-dumaloq, qip-qizil, qop-qora, pak-pakana, chippa-chin, to'ppa-to'g'ri* misollari tahlil qildiriladi.

**Bilib oling!** Sifatlarning ozaytirma darajasi *-mtir, -imtir, -ish* qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil qilinadi va belgining kamligi, kuchsizligini bildiradi. Masalan: *qoramtir, ko'kimtir, sarg'imtir, oqish, ko'kish, sarg'ish* kabi. Shuningdek, *-roq* qo'shimchasi ham belgini ozaytirib ifodalaydi. Ushbu qo'shimchalar qo'shilganda, ayrim tovush o'zgarishlari yuz berishi mumkin. Masalan: *sariq+ish - sarg'ish, qizil+ish qizg'ish* kabi.

1- slayd namoyishi:

#### **IV. Mavzuni mustahkamlash.**

⇒ A) Grammatik bilimni mustahkamlash. 6-mashq yozma bajartiriladi. O'quvchilar berilgan sifatning birinchi bo'g'inini takrorlash orqali orttirma darajadagi sifatlar hosil qilishlari, so'ng ularni orttirma daraja shaklida yozish topshirig'i berilgan. Keyingi topshiriqda o'quvchilar *iliq, qattiq, sovuq, quruq, issiq, salqin, xushhavo, toza, go'zal, boy* so'zlarini ajratib olishlari va har birining orttirma daraja shakllarini quyidagicha yozib chiqishlari ko'zda tutiladi: *Iliq-miliq, juda qattiq, nihoyatda sovuq, qup- quruq, g'oyat issiq, sap-salqin, eng xushhavo, top-toza, behad*

*go'zal, eng boy.* 6- mashqda berilgan matndan belgi bildiruvchi so'zlarni topib, orttirma daraja shakllarini yozadilar.

⇒ B) Nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish. 6- mashq matni bo'yicha berilgan savollarga javob berish orqali o'quvchilarda egallangan bilimlar yuzasidan nutqiy ko'nikmalar hosil qildirish, ya'ni o'quvchilar bilan ular tug'ilgan yoki yashayotgan shahar, tuman, qishloqning tabiati va iqlimi haqida, u erdagi o'simliklar, tog', daryo, cho'llar, oromgohlar haqida suhbat tashkil etiladi. So'ngra ekologik tarbiyaga xizmat qiluvchi vaziyatli topshiriqlar (5- topshiriq) ustida ishlash ko'zda tutiladi. Ushbu vaziyatli topshiriqlarda kundalik turmushda tez-tez uchrab turadigan hodisalarga munosabat masalasi o'rta tashlangan.

**V. Adabiy o'qish** materialida berilgan "Toza havoga tanga davo" matni ustida ishlash o'quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirishga, o'quvchilarni atrof-muhitga e'tiborli bo'lish, tabiatimizni asrab-avaylashga chaqirishga qaratilgan.

**VI. Darsni yakunlash** bosqichida test topshiriqlaridan foydalanib, o'quvchilarning sifat darajalari bo'yicha egallangan BKMLarini to'liq baholash mumkin.

**1. Qaysi qatorda iqlimni bildiruvchi so'zlar berilgan?**

- A. Mo'tadil, salqin, sovuq
- B. Toza, iflos, sarishta
- C. Qizil, qora, pushti

**2. Qaysi qatorda tabiatni tasvirlovchi sifatlar berilgan?**

- A. Shirin, bemaza, nordon
- B. Xushtabiat, yovtabiat, oqko'ngil
- C. Xushmanzara, go'zal, so'lim

**3. Orttirma darajadagi sifatlar berilgan qatorni belgilang.**

- A. Kap-katta, beqiyos go'zal
- B. Xiyol baland, bir oz hashamdor

C. Eng xushmanzara, nihoyatda zo‘r

**4. Orttirma darajadagi sifatlarni hosil qiluvchi so‘zlar qaysi qatorda berilgan?**

A. Juda, beqiyos, tengsiz

B. Xiyol, bir oz, sag‘al, nim

C. Eng, nihoyatda, g‘oyatda

**5. Berilgan gapdagi orttirma darajadagi sifat qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

Tog‘lardagi buloqlardan tushadigan billurdek tiniq suvlar g‘oyat shifobaxsh hisoblanadi.

A. Tiniq suv

B. Billurdek suv

C. G‘oyat shifobaxsh

**Uyga vazifa.** "O‘lkamiz tabiati va iqlimi" mavzusida matn tuzish.

## XI MAVZU: CHIMYON TOG‘LARIDA (Chama sonlarning yasalishi va qo‘llanishi)

### 25 - dars

**I. Darsning maqsadi:**

**2. Tarbiyaviy maqsad.** O‘quvchilarni Chimyon tog‘lari bilan tanishtirish, qishki sport musobaqalarida qatnashishga chaqirish.

**1. Ta‘limiy maqsad:** O‘quvchilarga shama sonlar, ularning yasalishi va nutqda qo‘llanishi haqida ma‘lumot berish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini sport sohasiga oid so‘zlar bilan boyitish, o‘z fikrini erkin ifodalash malakasini shakllantirish.

**Darsning jihozlanishi.** "O‘zbek tili" darsligi, elektron

vositalar, disklar, Chimyon tog'i va dam olish maskaniga oid rasmlar, sport musobaqalariga oid videolavhalar.

**Dars metodlari.** Hamkorlik metodi, aqliy hujum.

**Dars rejasi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash	8 daqiqa
2. Rasm ustida va "Chimyon tog'larida" matni ustida ishlash (1- topshiriq, 1- mashq).	10 daqiqa
3. Yangi grammatik ma'lumot bayoni.	7 daqiqa
4. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (2-4- mashqlarni yozma bajartirish).	8 daqiqa
5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash (2- topshiriq). Hamkorlik va aqliy hujum metodlari.	10 daqiqa
6. O'quvchilarni baholash va uyga vazifa.	5 daqiqa

**I. Tashkiliy qism.** "O'lkamiz tabiati va iqlimi" mavzusida tuzgan ijodiy matnlarini o'qitish va baholash.

**II. O'tilganlarni takrorlash.** Darslikda berilgan Chimyon tog'lari rasmlarini kuzatish va tayanch so'zlar asosida o'quvchilarga bir nechta gaplar tuzdiriladi (1- topshiriq). So'ngra "Chimyon tog'larida" matni o'qitiladi (1- mashq). O'quvchilarga notanish so'zlar lug'ati ustida ishlanadi va matn tarjima qilinadi. So'ngra savollar asosida nutqiy mavzu yuzasidan suhbat tashkil etiladi. Ushbu topshiriqdan keyin o'quvchilar e'tibori matnda ajratib ko'rsatilgan minglab, yuzlab, o'nlab so'zlariga qaratiladi va yangi grammatik ma'lumot bayoniga o'tiladi.

**III. Grammatik ma'lumot** bayonida o'quvchilarga chama sonlar shaxs va narsa-buyumning taxminiy miqdorini bildirishi, chama sonlar sanoq sonlarga *-tacha, -larcha, -lab* qo'shimchalarini qo'shib hosil qilinishi, *qancha? nech-tacha?* so'roqlariga javob bo'lishi tushuntiriladi. Darslikda berilgan Chimyonga har yili minglab insonlar dam olgani keladilar. Kutubxonadan o'ntacha kitob oldik, shuningdek, "Shimyon tog'larida" matnidagi chama sonlar qo'llangan gaplar o'qitiladi va tahlil qildiriladi.

**IV. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash** uchun 2-4- mashqlarni yozma bajartirish ko'zda tutiladi. Ushbu mashqlar o'quvchilarda sanoq sonlardan aniq sonlar, ulardan esa *-tacha, -larcha, -lab* qo'shimchalari vositasida chama sonlar hosil qilish, chama sonlarni gap tarkibida qo'llash ko'nikmalari hosil qildirishga qaratilgan.

**V. Nutqiy mavzuni mustahkamlash** darslikdagi 2- topshiriq og'zaki bajartiriladi. 2- topshiriqda qiziqarli grammatika mashqlari ruknida berilgan grammatik topishmoq o'quvchilarning mustaqil fikrlash, topqirlik malakalarini shakllantirishga yordam beradi (5-6- topshiriq).

**VI. Dars oxirida** o'quvchilar baholanadi va savollarga yozma javob berish uyga vazifa sifatida topshiriladi.

## 26 - dars

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarga shama sonlarning takrorlanib kelishi va maxsus so'zlar bilan qo'llanishi haqida ma'lumot berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarni tabiatni kuzatishga o'rgatish, ularni tabiat go'zalliklarini his qilishga va ularni asrab-avaylashga undash.

**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, Chimyon tog'lariga oid rasmlar, R.Daminovning "Bo'stonliq" she'ri.

**Dars metodlari.** Hamkorlik metodi, test topshiriqlari, "Zanjir" usuli, aqliy hujum.

### Dars rejasi:

- |  |           |
|--|-----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash         | 8 daqiqa  |
| 2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash (3- topshiriq) | 10 daqiqa |

- |  |          |
|--|----------|
| 3. Yangi grammatik qoida bayoni.   | 7 daqiqa |
| 4. Grammatik qoidani mustahkamlash (5- mashq).<br>«Chimyonga sayohat» matni ustida ishlash (6- mashq). | 8 daqiqa |

5. 4- topshiriq va adabiy o'qish. R.Daminovning "Bo'stonliq" she'rini ifodali o'qish. "Zanjir" usuli. 10 daqiqa  
6. O'quvchilarni baholash. Test topshiriqlari va uyga vazifa. 5 daqiqa

## Darsning borishi:

### I. Tashkiliy qism.

O'quvchilarga "Kitob o'qishning hikmati" hikoya qildiriladi. Asarda qo'llangan gumon olmoshlari, ularning yasalishi bo'yicha qo'shimcha savollar berib, o'quvchilarning egallagan bilimko'nikmalari baholanadi. Bunda asosiy e'tibor buyuk alloma Ibn Sinoning kitob mutoalasini qanchalik yaxshi ko'rganiga qaratilish kerak.

### II. O'tilgan mavzuni takrorlash.

**Tashkiliy qism.** Uy vazifasini so'rab baholash. O'quvchilar "Tog'da" mavzusida tuzib kelgan ijodiy matn o'qitiladi.

### III. Grammatik mavzu bayoni.

**Bilib oling!** Sifatlarining ozaytirma darajasi *-mtir, -imtir, -ish* qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil qilinadi va belgining kamligi, kuchsizligini bildiradi. Masalan: *qoramtir, ko'kimtir, sarg'imtir, oqish, ko'kish, sarg'ish* kabi. Shuningdek, *-roq* qo'shimchasi ham belgini ozaytirib ifodalaydi. Ushbu qo'shimchalar qo'shilganda, ayrim tovush o'zgarishlari yuz berishi mumkin. Masalan: *sariq+ish - sarg'ish, qizil+ish qizg'ish* kabi.

**Yangi mavzuga kirish.** O'tilganlarni mustahkamlash va nutqiy malakalarini shakllantirish maqsadida darslikdagi 3- topshiriqda berilgan suhbat matni rolli o'qitiladi. O'quvchilar matndan uch kun, o'n sakkizta o'quvchi, uchto'rtta ota-onalar, o'ntacha o'quvchi, yigirma beshtacha odam, minglab odam birikmalarini ko'chirib yozishlari ko'zda tutiladi. So'ng ushbu misollar tahlil qildirilib, sonlar sanoq

son, dona son va chama sonlarga ajratiladi, chama sonlarning yasalishi soʻraladi va shu yuzasidan yangi maʼlumot bayoniga oʻtiladi.


**IV. Grammatik qoida bayoni.** Ushbu darsda shama sonlar ikkita sonning takrorlanishi orqali ham ifodalanishi mumkinligi, shuningdek, chamasi, yaqin, taxminan soʻzlarini sonlar bilan birgalikda qoʻllash vositasida ham chama sonlarni hosil qilish mumkinligi haqida maʼlumot beriladi. Darslikdagi *oʻnga yaqin, chamasi qirq yoshlarda, taxminan ikkilarda, oʻn — oʻn besh, yuz — ikki yuz* misollari tahlil qildiriladi.

**V. Grammatik qoidani mustahkamlash** uchun 5-mashq yozma bajartiriladi. Oʻquvchilar qavs ichida berilgan raqamlarga mos qoʻshimchalar va soʻzlar qoʻyib, berilgan raqamlarni chama son shaklida yozadilar.

**VI. Nutqiy mavzuni mustahkamlash** uchun 6-mashqdagi "Chimyonga sayohat" matni oʻqitiladi, matndagi chama sonlarni oʻzi bogʻlangan soʻzlar bilan koʻchirib yozish topshiriladi. 4- topshiriqda berilgan savollar ham nutqiy mavzuni, ham grammatik maʼlumotni mustahkamlashga qaratilgan.

4- topshiriq esa oʻquvchilarning ohʻzaki nutqini yaxshi rivojlantirishga yorgam berib, maktab, mahalla, tuman, viloyatlarda sport sohasida oʻtkazilayotgan musobaqalarni kuzatib borishga undaydi.

**VII. Adabiy oʻqish** uchun berilgan R.Daminovning "Boʻstonliq" sheʼri ifodali oʻqitiladi. Sheʼrdagi joy nomlari haqida suhbat tashkil etiladi.



**VIII. Darsni yakunlash** bosqichida quyidagi test topshiriqlaridan foydalanish oʻquvchilarning grammatik bilimlarini aniqlash va baholash imkonini beradi.

1. Qaysi qatorda sanoq sonlar berilgan?
    - A. o‘nta, yigirmanchi
    - B. minglab, o‘ttiztacha
    - C. o‘ttiz ikki, besh yuz
  2. Qaysi qatorda aniq sonlar berilgan?
    - A. o‘n-o‘n besh, elliktacha
    - B. yigirma sakkizta, bitta
    - C. bitta-yarimta, minglarcha
  3. Chama sonlar berilgan qatorni belgilang.
    - A. yuztacha, millionlab
    - B. uch, ikki yuz yigirma besh
    - C. ikkitadan, uch-to‘rttacha
  4. Qaysi qatorda chama sonlarni hosil qiluvchi qo‘shimchalar berilgan?
    - A. -ta, -tadan
    - B. -nchi, -inchi
    - C. -tacha, -lab, -larcha
- Uyga vazifa.** R.Daminovning "Bo‘stonliq" she‘rini yod olish.

**XII MAVZU: YANGI YIL REJASI**  
**(Jamlovchi sonlarning yasalishi va qo‘llanishi)**

**27 - dars**

**Darsning ta‘limiy maqsadi.** O‘quvchilarga jamlovchi sonlarning yasalishi va qo‘llanishi haqida ma‘lumot berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O‘quvchilarni qish faslida tabiatda yuz beradigan o‘zgarishlarni kuzatishga o‘rgatish, ularga qishki o‘yinlarning jamoa bo‘lib o‘ynalishini singdirish, ahil jamoa bo‘lib yashashga intilish tuyg‘ularini kuchaytirish.

**Darsning jihozlanishi.** Darslik, videolavha va rasmlar, qishki o‘yinlar va sport turlari haqida ma‘lumotlar, test topshiriqlari.

**Dars metodlari.** Hamkorlik metodi, aqliy hujum, rolli o‘yin.

**Darsdan erishiladigan BKM natijalari:** O‘quvchi o‘zbek tilidagi jamlovchi sonlar haqida nazariy bilimga ega bo‘ladi, ularda ushbu sonlarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalari va yangi yil mavzusida og‘zaki va yozma bog‘lanishli ifodalash malakalari shakllanadi.

**Darsning rejasi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash.	8 daqiqa
2. Rasm asosida “Qish faslida” matni ustida ishlash (1- topshiriq, 1- mashq). Aqliy hujum.	10 daqiqa

3. Yangi grammatik qoida bayoni.	7 daqiqa
4. Grammatik qoidani mustahkamlash (2-4- mashqlar).	10 daqiqa

5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash (2- topshiriq). Hamkorlik metodi.	10 daqiqa
6. Darsni yakunlash, o‘quvchilarni baholash va uyga vazifa.	5 daqiqa

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Uy vazifasi — R.Daminovning "Bo‘stonliq" she‘rini yod aytish so‘raladi. O‘quvchilardan she‘rdagi joy nomlari, Bo‘stonliqdagi tog‘lar haqida ham so‘rab o‘tgan dars takrorlab olinadi.

**II. O‘tilgan mavzuni takrorlash.**

O‘quvchilar diqqati darslikda berilgan rasmga qaratiladi yoki videolanva namoyish qilinadi hamda 1- topshiriqdagi savollar asosida "Aqliy hujum" metodida suhbat tashkil etiladi. So‘ngra "Qish faslida" matni ustida ishlanadi (1- mashq). Avval matn o‘qitiladi va matnda ajratib ko‘rsatilgan uchovlari, ikkovi, to‘rtalamiz, o‘nlab so‘zlariga e‘tibor qaratiladi.

**III. Grammatik mavzu bayoni.**

**Bilib oling!** Ushbu darsda nutqda shaxs va narsa-buyumlarning jami miqdorini ko'rsatishda jamlovchi sonlardan foydalanilishi, jamlovchi sonlar ikkidan o'ngacha bo'lgan sonlarga *-ov, -ovlon, -ala* qo'shimchalarini qo'shib hosil qilinishi, jamlovchi sonlarning, odatda, egalik qo'shimchalari bilan birgalikda qo'llanishi, egalik qo'shimchalari *-ov, -ovlon, -ala* qo'shimchalaridan keyin qo'shilishi haqida ma'lumot beriladi.

**Yangi mavzu bayoni.**

**IV. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash** uchun 2-4- mashqlarni bajartirish ko'zda tutilgan. Ushbu mashqlar tadrijiy o'sish tamoyilida tuzilgan bo'lib, bunda 2- mashq egallangan bilimni mustahkamlashga, 4-5- mashqlar ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar avval berilgan sonlarga jamlovchi sonlarni hosil qiluvchi qo'shimchalarni qo'shib yozishni (2- mashq), so'ngra qavs ichida berilgan jamlovchi sonlardan birini tanlab olishni (3- mashq), keyin esa jamlovchi sonni o'zlari mustaqil topib, gap tarkibida qo'llashni (4- mashq) mashq qiladilar.

**V. Nutqiy mavzuni mustahkamlash** uchun 2- topshiriq bajartiriladi. O'quvchilar avval matni ichlarida o'qiydilar va suhbatda necha kishi ishtirok etganini aniqlaydilar. So'ngra suhbat matni rollarga bo'lib o'qitiladi va hamkorlikda davom ettiriladi.

**VI. Darsni yakunlash,** o'quvchilarni baholash va uyga vazifa topshirish.

**Uyga vazifa.** Yangi yilni qanday kutib olish va qishki ta'tilni qanday o'tkazish rejasini tuzib kelish.

**28 - dars**

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarga jamlovchi sonlarning yasalishi va qo'llanishi haqida ma'lumot berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarni qish faslida tabiatda yuz beradigan o'zgarishlarni kuzatishga o'rgatish, ularga qishki o'yinlarning jamoa bo'lib o'ynalishini singdirish, ahil jamoa bo'lib yashashga intilish tuyg'ularini kuchaytirish.

**Darsning jihozlanishi.** Darslik, yangi yil archasi rasmi, audiomatn, BBB kartochkalari.

**Darsda qo'llanadigan metodlar.** Noan'anaviy, hamkorlik metodi, aqliy hujum, rolli o'yin, BBB usuli.

**Darsdan erishiladigan BKM natijalari:** o'quvchi jamlovchi sonlarning qo'shimchalari haqida nazariy bilimga ega bo'ladi, ularda ushbu sonlarni og'zaki va yozma nutqda amaliy qo'llash ko'nikmalari va yangi yil mavzusida suhbatlasha olish malakalari shakllanadi.

#### **Dars rejasi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash.	3 daqiqa
2. Berilgan tayanch so'zlar asosida gaplar tuzish va "Yangi yil rejasi" matni ustida ishlash (3- topshiriq, 5- mashq). Guruhlarga bo'linib ishlash. Noan'anaviy metod.	15 daqiqa

3. Yangi grammatik qoida bayoni. Aqliy hujum.	7 daqiqa
4. Grammatik qoidani mustahkamlash (6-7- mashqlar).	10 daqiqa


5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash (4- topshiriq). Adabiy o'qish. "Yangi yil qo'shig'i"ni kuylash. Hamkorlik metodi.	7 daqiqa
6. Darsni yakunlash va test topshiriqlari yordamida o'quvchilarni baholash, uyga vazifa.	3 daqiqa

**I. Tashkiliy qism.** Yo'qlama va uy vazifasini so'rash.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

**III. Yangi nutqiy mavzu bayonini** archa haqidagi she'rni ifodali o'qitish va berilgan tayanch so'zlar (3- topshiriq) hamda rasm asosida suhbat tashkil etishdan boshlanadi. O'quvchilar tuzgan gaplar biri-birining davomi bo'lishi va archa, yangi yil bayrami haqida bog'lanishli matn

hosil qilinishi ko'zda tutiladi. So'ngra "Yangi yil rejasi" matni o'qitiladi va berilgan savol asosida matn og'zaki davom ettiriladi. O'quvchilar yangi yilni qanday kutib olish rejalari haqida so'zlab beradilar.



Darsning ushbu bosqichini noan'anaviy tarzda tashkil etish ham mumkin. Buning uchun o'quvchilar o'zlari tanlab olgan yulduzchalar asosida guruhlariga birlashadilar. Yulduzchalarda archa, qor bobo, qor qiz, yangi yil rasmlari yopitirilgan yoki so'zlari yozilgan bo'lib, shu tayanch so'z asosida har bir guruh kichik hikoya, ertak yoki she'r to'qib aytib beradi.

**IV. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash** uchun 6-7- mashqlar yozma bajartiriladi. O'quvchilar nuqtalar o'rniga mos jamlovchi sonlarni qo'yib, matnni to'ldirib yozadilar. Buning uchun o'quvchilar gapda ifodalangan harakatni nechta shaxs bajarishini aniqlashi va shunga mos jamlovchi sonni yozishlari darkor. Bunday mashqlar o'quvchilarni mustaqil mantiqiy fikrlashga va topqirlikka o'rgatadi, grammatik bilimlarni amaliy qo'llash malakalarini shakllantiradi.

**V. Nutqiy mavzuni mustahkamlash** uchun 4-topshiriqda berilgan savollarni 4 guruhga taqsimlab beriladi. Quyidagi maqollar ham har bir guruhga bittadan tarqatiladi. Guruh a'zolari ularni o'qib, ma'nolarini tushuntirib berishlari va qo'llangan sonlar haqida ma'lumot berishlari kerak.

**1- guruh uchun:**

1. *Yangi yil bayramini kimlar bilan (jami necha kishi) nishonlamoqchisiz?*

2. *Izohlang: O'nta bo'lsa, o'rni boshqa, qirqta bo'lsa qilg'i.*

**2- guruh uchun:**

1. *Yangi yil bayramiga kimlar bilan qanday tayyorgarlik ko'ryapsiz?*

2. *Izohlang: Ikki yorti — bir butun.*

**3- guruh uchun:**

1. *Qishki ta'tilda kimlar bilan (jami necha kishi) qayerga bormoqchisiz?*

2. *Izohlang: Yetti marta o'lchab, bir marta kes.*

**4- guruh uchun:**

1. *Ta'til kunlarida yana nimalar qilishni rejalashtiryapsiz?*

2. *Izohlang: Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar, to'rtovlon tugal bo'lsa bo'lsa, unmagani undirar.*

So'ngra adabiy o'qish uchun berilgan "Yangi yil qo'shig'i" she'rini ifodali o'qitish, audiasma yordamida qo'shiqni tinglash va birgalikda kuylash ko'zda tutiladi (5- topshiriq).

**VI. Darsni yakunlash** jarayonida o'quvchilarga quyidagi test topshiriqlarini tarqatish ularning bilim-malakalarini aniqlash imkonini beradi.

**Uyga vazifa:** Yangi yil tabrigini yozish.

**XIII MAVZU: ONA YURT POSBONLARI**  
**(Butun va kasr sonlarning yasalishi**  
**va qo'llanishi)**

**29 - dars**

**I. Darsning maqsadi:**

**2. Tarbiyaviy maqsad.** O'quvchilarda vatanparvarlik, vatanga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish, ularga vatanni himoya qilish har bir fuqaroning burchi ekanligini singdirish.

**1. Ta'limiy maqsad.** O'quvchilarga butun va kasr sonlar, ularning yasalishi va qo'llanishi haqida ma'lumot berish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O'quvchilarning mustaqil fikrlash va o'z fikrini og'zaki va yozma erkin ifodalash malakalarini rivojlantirish.

**Darsning jihozlanishi.** Darslik, vatan himoyachilariga qo'yilgan haykal rasmi, videolavha, "Batan posbonlari" she'ri va qo'shig'i, audiokasseta, BBB kartochkalari.

**Darsda qo'llanadigan metodlar.** Interfaol hamkorlik metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, BBB usuli.

**Darsdan erishiladigan BKM natijalari.** O'quvchilar butun va kasr sonlar haqida nazariy bilimga ega bo'ladi, ularda ushbu sonlarni amaliy qo'llash ko'nikmalari va yurtimiz posbonlari mavzusida og'zaki va yozma bog'lanishli ifodalash malakalari shakllanadi.

**Dars rejasi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash va baholash.  
8 daqiqa
2. Rasm va savollar asosida suhbat, "Batan himoyachilari kuni" matni ustida ishlash (1- topshiriq, 1- mashq).  
10 daqiqa

3. Yangi grammatik qoida bayoni. Aqliy hujum. 7 daqiqa  
4. Grammatik qoidani mustahkamlash (2-3- mashqlar).  
8 daqiqa  
5. Interfaol o'yin. "Raqamlar tilga kirganda" (2-topshiriq).  
Guruhlar bilan ishlash. 7 daqiqa

6. "Ona yurt posbonlari" she'ri ustida ishlash. Hamkorlik  
metodi. 3 daqiqa  
7. Darsni yakunlash, o'quvchilarni baholash (BBB usuli),  
uyga vazifa. 2 daqiqa

### I. Tashkiliy qism.

Uy vazifasini so'rash va baholash. O'quv-chilar "Yangi yil qo'shig'i" she'rini yod aytib beradilar va "Yangi yil kechasida" mavzusida mustaqil tuzgan matnlarini o'qib beradilar.

### II. Yangi mavzu bayoni.

O'quvchilar darslikda berilgan rasm va 1- topshiriqdagi savollar asosida suhbat tashkil etishdan boshlanadi. Shu mavzuda berilgan videolavhani namoyish qilish yanada samarali bo'ladi. Bunda o'quvchilarning diqqati haykalda tasvirlangan vatan posbonining yuz-ko'z ifodasiga, undagi qat'iyatlik, faxr tuyg'ulariga qaratilishi kerak. So'ngra "Batan himoyachilari kuni" matni o'qitiladi (1-mashq). O'quvchilar matnda berilgan raqamlarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chirib yozadilar.

**III. Grammatik qoida bayonidan avval 1- mashqdagi sonlar ifodalayotgan ma'nolar izohlanadi.** So'ngra o'qituvchi sonlar matematik miqdorni bildiradigan so'zlar ekanligi, ular butunni va uning qismini ko'rsatishi mumkinligi to'g'risida ma'lumot beradi. Miqdorni butunligicha bildiruvchi sonlar butun son, butunning qismini ifodalovchi sonlar kasr sonlar deb atalishi haqidagi grammatik qoida o'qitiladi va misollar vositasida mustahkamlanadi. O'quvchilarga doskada butun va kasr sonlarga misollar yozdiriladi.

**IV. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun 2-3- mashqlar va 2- topshiriq bajartiriladi.** O'quvchilar 2-

mashqda berilgan sonlarni savollarga mos holda namunadagidek 2 guruhga bo'lib ko'chiradilar. 3- mashqda esa avval butun sonlarni, so'ngra kasr sonlarni harflar bilan yozadilar.

**V. Interfaol o'yin.** 2- topshiriqqa ko'ra "Raqamlar tilga kirganda" o'yini tashkil etiladi. Ushbu topshiriqni bajarish uchun avval o'quvchilar guruhlarga ajratiladi. Har bir guruh berilgan 1, 2, 4, 12 raqamlariga tabiat va jamiyat hayotidan mos keladigan ma'lumotlarni topib yozishlari va ularni izohlab berishlari so'ralgan. O'quvchilar tabiatda 1 raqami yilni, 2 raqami kun va tunni, 4 raqami — 4 ta faslni, 12

raqami 12 oyni bildirishi, jamiyatda esa, masalan, 1 raqami respublikamiz, ya'ni O'zbekistonni, 2 raqami 2 ta eng katta daryolarimizni, 4 bayrog'imizdagi ranglarni anglatishi mumkinligini topib



aytishlari ko'zda tutilgan. Ushbu interfaol o'yinni davom ettirish va guruhlar musobaqasini tashkil etish mumkin. Bunda har bir guruh ikkinchi guruhga savol tariqasida o'z raqamini beradi, ikkinchi guruh a'zolari esa shu raqamlarga mos ma'lumotlarni topib aytishlari kerak bo'ladi.

Savollar nafaqat tabiat, balki maktab, sinf hayotidan olingan ma'lumotlar asosida tuzilishi ham mumkin.

**VI. Nutqiy mavzuni mustahkamlash** uchun 3- topshiriqda berilgan "Ona yurt posbonlari" qo'shig'i matnini ifodali o'qitiladi. So'ngra audiokasseta vositasida qo'shiqni tinglash va birgalikda kuylash ko'zda tutiladi.

**VII. Darsni yakunlashda** o'qituvchi o'quvchilar tomonidan to'ldirilgan BBB kartochkalarini yig'ib oladi, darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholaydi. She'r matnini yod olish uyga vazifa qilib topshiriladi.

## 30 - dars

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarga kasr sonlarning alohida so'zlar bilan ifodalanishi va ularning nutq jarayonida qo'llanishi haqida ma'lumot berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarda kuch birlikda ekanligi, vatanga xizmat qilishning yuksak burch ekanligi, bundan iftixor qilish tuyg'ularini kuchaytirish.

**Darsning jihozlanishi.** Darslik, vatan himoyachilari qasamyodidan parcha, Hamdam Sodiqovning "Boburning maktubi" matni, audiokasseta, BBB kartochkalari.

**Dars metodlari.** Intefaol hamkorlik metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, BBB usuli.

**Darsdan erishiladigan BKM natijalari.** O'quvchilarda kasr sonlarning so'zlar bilan qo'llanishi, butun va kasr sonlarni aralash holda qo'llash haqida nazariy bilimga ega bo'ladi, ularda ushbu sonlarni amaliy qo'llash ko'nikmalari va mavzu bo'yicha matn bilan ishlash hamda suhbatlasha olish malakalari shakllanadi.

### Dars rejasi:

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash va baholash. 8 daqiqa

2. Suhbatni rollarga bo'lib o'qish (4- topshiriq). 7 daqiqa

3. Grammatik mavzu bayoni. 4 daqiqa

4. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (4-5- mashqlar). 8 daqiqa

5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash. 5- topshiriqdagi maqollar ustida ishlash. Zanjir usuli. 7 daqiqa

6. Adabiy o'qish. "Boburning maktubi" matni ustida ishlash. 8 daqiqa

7. Darsni yakunlash, o'quvchilarni baholash (BBB usuli), uyga vazifa. 3 daqiqa

## **Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasini soʻrash va baholash. Oʻquvchilar "Batan posbonlariga" sheʼrini yod aytib beradilar.

**II. Oʻtilgan darsni takrorlash** uchun 4- topshiriqdagi suhbat matni rollarga boʻlib oʻqiladi.

**III. Grammatik mavzu bayoni.** Ushbu darsda kasr sonlar maxsus soʻzlar bilan ifodalanishi ham mumkinligi,  $1/2$  — yarim,  $1/4$  — chorak,  $1/8$  — nimchorak soʻzlari bilan ifodalanishi haqida, shuningdek, butun son bilan kasr son aralash holda qoʻllanishi ham mumkinligi haqida maʼlumot beriladi.

**IV. Grammatik maʼlumotni mustahkamlash** uchun 4-5- mashqlar yozma bajartiriladi. Oʻquvchilar 4- mashq topshirigʻi asosida juftlikda berilgan sonlardan avval kasr sonlar hosil qiladilar, soʻngra ularni soʻz bilan ifodalab yozadilar. 5- mashqda berilgan matematik masalani oʻqib, unda qoʻllangan raqamlarni soʻzlar bilan yozadilar. ham grammatik maʼlumotni mustahkamlashga qaratilgan.

**V. Nutqiy mavzuni mustahkamlash** uchun 5- topshiriqda berilgan maqollar oʻqitiladi va mazmuni soʻzlatiladi.

**VI. Adabiy oʻqish** uchun berilgan "Boburning maktubi" matni oʻqitiladi, mazmuni soʻzlatiladi. Maktubni avval audiovosita orqali eshittirilsa, soʻng oʻquvchilarga oʻqitilsa, yanada samaraliroq boʻladi. Maktubning qanday mazmuniy qismlardan tuzilishi, maktub yozishda qoʻllanadigan til vositalari haqida tushuncha beriladi. Oʻquvchilarga zobit oʻrniga oʻzini qoʻyib yaqinlari, doʻstlariga yoki aksincha xizmatdagi akasiga maktub yozish mashq qildiriladi.

**Uyga vazifa.** Maktub namunasidan foydalanib, yaqinlar yoki doʻstlarga maktub yozish.

**31 - dars** NI-4. Test sinovi

**32 - dars** Xatolar ustida ishlash

**XIV MAVZU: SRORT — SALOMATLIK GAROVI**  
**(Daraja-miqdor ravishlarining qo'llanishi)**

**33 - dars**

**Darsning texnologik xaritasi**

Mavzu	Daraja-miqdor ravishlarining ishlatilishi
Maqsad va vazifalar	<p><b>Maqsad.</b> O'quvchilarga daraja-miqdor ravishlari, ularning yasalishi haqida ma'lumot berish; daraja-miqdor ravishlarini nutq jarayonida qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish; sportning ahamiyati, sport — salomatlik garovi ekanligini uqtirish; sport va salomatlik mavzularida fikrni og'zaki va yozma ravishda bayon etishni o'rgatish.</p> <p><b>Vazifalar.</b> O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, mavzu bo'yicha egallangan bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish va nutqiy malakalarni shakllantirish; berilgan grammatik bilimlarni o'zlashtirish, ularni nutqda qo'llashga o'rgatuvchi mashqlar, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan suhbat matnlari va adabiy o'qish materiallari orqali berilgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash.</p>
O'quv jarayonining mazmuni	<p>O'zbek tilidagi daraja-miqdor ravishlari: ko'p, kam, oz, ozgina, jindak kabi miqdor ravishlari hamda juda, eng, nihoyatda, g'oyat, g'oyatda, benihoya kabi daraja ravishlari haqida ma'lumot berish, ushbu so'zlarning nutqda qo'llanish xususiyatlarini o'rgatish.</p>
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p><b>Dars metodi.</b> Hamkorlik metodi, aqliy hujum, "Zanjir" usuli.</p> <p><b>Shakl.</b> Yakka tartibda va guruh bilan ishlash.</p> <p><b>Vositalar.</b> Darslik, rasm yoki videolavha, slaydlar.</p> <p><b>Nazorat turlari.</b> o'qitish, og'zaki so'zlatish, savol-javob.</p> <p><b>Baholash.</b> 5 balli tizim asosida.</p>

Kutilgan natijalar	<p>O'qituvchi: Dars jarayonida talimning interfaol usullarini qo'llash vositasida mavzuning to'liq o'zlashtirilishiga erishadi, o'quvshilarda fanga va mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi, ularning faolligini oshiradi. BBB usuli orqali o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilib borishga o'rgatadi, ularda bilmagan narsalarini bilishga intilish, tengdoshlariga etib olish hissini uyg'otadi, bir darsda barcha o'quvchilarni baholashga erishadi. Darslikda berilgan mashq va topshiriqlarni bajartirish, elektron va ko'rgazmali vositalardan samarali foydalanish orqali darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlariga to'liq erishadi.</p> <p>O'quvchi. Mavzu bo'yicha yangi bilimlarni egallaydi, berilgan mashq va topshiriqlarni mustaqil ishlash orqali og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini, guruh bo'lib ishlash malakalarini egallaydi.</p>
Kelgusi rejalar	<p>O'qituvchi. Pedagogik texnologiyalar va elektron vositalarni dars jarayonida ko'proq tatbiq etishga, o'z mahoratini oshirib borishga harakat qiladi.</p> <p>O'quvchi: O'z fikrini og'zaki va yozma savodli va bog'lanishli bayon qilishni, yakka tartibda mustaqil tarzda, guruh bilan ishlashni o'rganadi. Mavzu doirasida qo'shimsha materiallar izlash va ularni qo'llab ijodiy matn tuzishni o'rganadi. O'z bilimini oshirib boradi.</p>

### Dars rejasi:

- |  |
|--|
| <p>1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash va baholash.<br/>8 daqiqa</p> <p>2. Rasm va savollar asosida suhbat, "Sport o'yinlari" matni ustida ishlash (1- mashq, 1-2- topshiriqlar). 10 daqiqa</p> |
| <p>3. Grammatik mavzu bayoni. Slayd namoyishi.<br/>6 daqiqa.</p> <p>4. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (2- mashq).<br/>10 daqiqa.</p>   |
| <p>5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash ( 3-4- mashqlar).<br/>8 daqiqa.</p> <p>6. Darsni yakunlash, o'quvchilarni baholash, uyga vazifa.<br/>5 daqiqa.</p>  |

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasini soʻrash va baholash. Oʻquvchilar oʻzlari yozib kelgan maktub namunasini oʻqib beradilar.

**II. Nutqiy mavzu bayoni.** Darslikdagi rasmni yoki viveolavhani kuzatiladi. 1- topshiriqda berilgan tayanch soʻzlar ishtirokida gaplar tuzdiriladi. 2- topshiriqni bajarish ham rasmni diqqat bilan kuzatishni taqozo etadi. Oʻquvchilar dialogik matnni oʻqiydilar va suhbatni davom ettiradilar. Soʻngra 1- mashqdagi "Sport oʻyinlari" matni oʻqitiladi va ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga eʼtibor qaratiladi.

**III. Grammatik mavzu bayoni.** Ushbu darsda oʻzbek tilida daraja-miqdorni bildirishda koʻp, kam, oz, ozgina, jindak kabi miqdor ravishlari hamda juda, eng, nihoyatda, gʻoyat, gʻoyatda, benihoya kabi daraja ravishlari ishlatilishi, ushbu soʻzlarning nutqda qoʻllanishi haqida maʼlumot beriladi. Bunda quyidagi slayddan foydalanish hamda ushbu soʻzlarni ishtirok ettirib soʻz birikmalari va gaplar tuzdirish maqsadga muvofiq:

Slayd namoyishi:

<b>Daraja-miqdor ravishlari</b>	
<i>Miqdorni bildiruvchi soʻzlar</i>	<i>Darajani bildiruvchi soʻzlar</i>
koʻp	juda
kam	eng
oz	hammadan
ozgina	gʻoyat
jindek	nihoyatda
picha	benihoya

**IV. Grammatik maʼlumotni mustahkamlash** uchun aqliy hujum asosida bir nechta misollar 2- mashq yozma bajartiriladi. 2- mashq topshirigʻiga koʻra oʻquvchilar gaplar-

ni daraja-miqdor ma'nosini bildiruvchi so'zlar bilan to'ldirib ko'chiradilar.

**V. Nutqiy mavzuni mustahkamlash** uchun 3-4-mashqdan foydalaniladi. O'quvchilar 3- mashqda berilgan matnni o'qiydilar va matndan salomatlikni tavsiflovchi so'zlarni ajratadilar. So'ngra 3- mashqdagi matndan foydalanib, qavs ichidagi savollarga javob bergan holda gaplarni to'ldiradilar (4- mashq). Ushbu topshiriqni quyidagicha bajarish ko'zda tutiladi:

*Har bir inson sog'lom bo'lishni va uzoq yashashni orzu qiladi.*

*Sog'lom bo'lish uchun inson o'zini chiniqtirib borishi, jismoniy tarbiya mashqlari bilan muntazam shug'ullanishi kerak.*

*Sport bilan shug'ullangan insonlar go'zal, chaqqon va epchil bo'ladilar?*

*Sport bilan shug'ullanish boshqalarga nisbatan tetik, xushchaqchaq va kuchli bo'lishga yordam beradi.*

**VI. Darsni yakunlash** va o'quvchilarni baholash.

**Uyga vazifa:** Yoqtirgan sport turi haqida so'zlab berish.

### **34 - dars**

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarda daraja-miqdor ravishlarini nutq jarayonida qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarga sportning ahamiyati, sport bilan shug'ullanishning salomatlikka ta'sirini tushuntirish, sport — salomatlik garovi ekanligini uqtirish.

**Darsning jihozlanishi.** Darslik, "Sport — salomatlik garovi" matni, audiokasseta, BBB kartochkalari.

**Dars metodlari.** Hamkorlik metodi, aqliy hujum, rolli o'qish, BBB usuli.

**Darsdan erishiladigan BKM natijalari.** O'quvchilar

daraja-miqdor ravishlarining qo'llanishi haqida nazariy bilimga ega bo'ladi, ularda ushbu ravishlarni amaliy qo'llash ko'nikmalari va mavzu bo'yicha yakka tartibda va guruh bo'lib ishlash, o'z-o'zini nazorat qilish malakalari shakllanadi.

### Dars rejasi

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash va baholash.	8 daqiqa
2. Rasm va berilgan savollar asosida o'zaro suhbatlashish (3- topshiriq).	10 daqiqa
3. O'tilgan mavzuni takrorlash. 5- mashqni yozma bajarish, 4- topshiriqdagi suhbatni o'qish.	10 daqiqa
4. Adabiy o'qish. "Uch buyuk tabib". Rolli o'yin. Savollarga javob berish.	10 daqiqa
5. Mavzuni yakunlash, o'quvchilarni baholash (test usuli), uyga vazifa.	7 daqiqa

#### I. Tashkiliy qism.

A) Uy vazifasini so'rash va baholash. O'quvchilar o'zlari yozib kelgan maktub namunasini o'qib beradilar.

B) Rasm va berilgan savollar asosida o'zaro suhbatlashish, suhbat matnini davom ettirish (3- topshiriq).

**II. O'tilgan nutqiy mavzuni takrorlash** uchun 5- mashq yozma bajariladi. So'ngra 4- topshiriqda berilgan suhbat o'qitiladi va davom ettiriladi.

**III. Adabiy o'qish.** "Uch buyuk tabib" rivoyati ustida ishlash. Rivoyat matni bir necha o'quvchi ishtirokida rollarga bo'lib o'qitiladi, so'ngra berilgan savollar asosida mazmuni so'zlatiladi. Bunda imkon qadar ko'proq o'quvchilarning ishtirok etishi ta'minlanishi darkor.

**IV. Mavzuni yakunlashda** quyidagi test topshiriqlaridan foydalanib, nutqiy va grammatik mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim va malakalarini baholash samarali natija beradi:

- 1. Qaysi qatorda butun son berilgan?**  
A. Oltinchi sinf.      B. Ikkita anor.  
C. Bir yarim yil.      D. To'qqiz kun.
- 2. Kasr son berilmagan qatorni aniqlang.**  
A. Yarimta non.      B. Chorak asr.  
C. To'rttdan bir qism.      D. To'rt-besh kun.
- 3. Vatan himoyachilari kuni qachon nishonlanadi?**  
A. 1- yanvarda.      B. 14- yanvarda.  
C. 9- fevralda.      D. 9- mayda.
- 4. Birinchi Olimriya o'yinlari qayerda bo'lib o'tgan?**  
A. Italiyada      B. Israniyada  
C. Germaniyada      D. Yunonistonda
- 5. Qishki olimpiada o'yinlari qachon joriy etilgan?**  
A. 776- yilda.      B. 1924- yilda.  
C. 1960- yilda.      D. 1980- yilda.
- 6. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying.**  
Sport — ... garovi.  
A. Ozodalik.      B. Tinchlik.  
C. Salomatlik.      D. Ozodlik.
- 7. Daraja-miqdor ravishlarini aniqlang.**  
A. Unda-bunda.      B. Birma-bir.  
C. Hali-beri.      D. Hihoyatda, sal.
- 8. Qaysi qatorda daraja-miqdor ravishlari berilmagan?**  
A. Sal xomroq uzum.  
B. Ko'p o'yla, oz so'zla.  
C. Picha dam olay.  
D. Bilmasdan hafa qilib qo'ydi.

**Uyga vazifa.** Rivoyatning mazmunini so'zlab berish.

**XV MAVZU: SALOMATLIK — TUMAN BOYLIK  
(Haqida, to‘g‘risida ko‘makchilarining  
qo‘llanishi)**

**35 - dars**

Darsning maqsadi:

**2. Tarbiyaviy maqsad.** O‘quvchilarga salomatlik — tuman boylik ekanligini uqtirish, sog‘lom turmush tarzi kechirishga undash.

**1. Ta‘limiy maqsad.** O‘quvchilarga haqida, to‘g‘risida ko‘makchilari haqida ma‘lumot berish, ularni nutqda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqini, o‘z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.

**Darsda qo‘llanadigan vositalar.** Darslik, II. Mo‘minning "Ibn sino bobo - ulashar davo" she‘ri, "Sport — salomatlik garovi", "Sog‘lom turmush tarzi" matnlari, BBB kartochkalari.

**Darsda qo‘llanadigan metodlar.** Hamkorlik metodi, "Zanjir", "Aqliy hujum" metodlari, guruhlarga bo‘linib ishlash, BBB usuli.

**Darsdan erishiladigan BKM natijalari:** O‘quvchilar haqida, to‘g‘risida ko‘makchilarining qo‘llanishi bo‘yicha nazariy bilimga ega bo‘ladi, ushbu ko‘makchilarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalari hamda mavzu bo‘yicha suhbatga kirishish, matn bilan ishlash malakalari shakllanadi.

**Dars rejasi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash va baholash. 7 daqiqa
2. Kirish suhbat. Rasm va berilgan savollar asosida o‘zaro suhbatlashish (1- topshiriq). Aqliy hujum. 10 daqiqa

3. Nutqiy mavzu. "Salomatlik — tuman boylik" matni ustida ishlash (1- mashq) va savollarga javob berish (2- topshiriq).  
10 daqiqa
4. Grammatik ma'lumot. Haqida, to'g'risida ko'machilari.  
5 daqiqa

5. Mavzuni mustahkamlash. "Sog'lom turmush tarzi" matni ustida ishlash (2-3- mashq)
6. "Ibn sino bobo — ulashar davo" she'ri ustida ishlash (3- topshiriq)  
10 daqiqa
7. Darsni yakunlash, o'quvchilarni baholash (BBB usuli), uyga vazifa.  
3 daqiqa

### **Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasini so'rash va baholash.

**II. Yangi nutqiy mavzuga kirish.** Rasm asosida suhbatlashish (1- topshiriq). Aqliy hujum. O'quvchilar berilgan gaplar qaysi rasmlarga mos kelishini aytishlari va o'z fikrlarini isbotlash uchun shu mavzuda bir nechta gaplar tuzib, salomatlik uchun nimalar zarurligi haqida fikr bildirishlari kerak.

**III. Nutqiy mavzu bayoni.** Ushbu kirish suhbatidan so'ng o'qituvchi bugungi nutqiy mavzu salomatlik haqida ekanligini aytadi va o'quvchilarga 1- mashqdagi "Salomatlik — tuman boylik" matnini o'qitadi. O'quvchilar matnni o'qib, sog'lom bo'lish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligini aniqlaydilar. So'ngra 2- topshiriqdagi savollar asosida savol-javob o'tkaziladi.

**IV. Yangi grammatik mavzu bayonida** avval o'quvchilar e'tibori 2- topshiriqdagi savollarda ajratib ko'rsatilgan haqida, to'g'risida so'zlariga qaratiladi. O'qituvchi yaangi axborot berishda haqida, to'g'risida yordamchi so'zlaridan foydalanilishi, ushbu so'zlar yordamchi so'zlar ekanligi, ular o'zbek tilida ko'makchilar deb atalishi va o'zi bog'langan so'z bilin bitta savolga javob berishini misollar vositasida tushuntiradi.

**V. O'tilgan mavzuni mustahkamlash** uchun 2- mashqda berilgan "Sog'lom turmush tarzi" matni ustida

ishlanadi. O'quvchilar ushbu matndda nima haqida fikr yuritilganini aniqlaydilar va 3- mashqni namuna asosida yozma bajaradilar. Bu topshiriqni doskada bajartirish maqsadga muvofiq. O'quvchilar sog'lom turmush tarziga mos va zid odatlarni o'zaro qiyoslab, har ikkisidan kelib chiqadigan oqibatlarni quyidagi ikki ustunga ajratib yozadilar:

Sog'lom turmush tarzi      Nosog'lom turmush tarzi

\_\_\_\_\_

Buni guruhlar musobaqasi sifatida tashkil etish ham mumkin. Topshiriq bajarib bo'lingach, o'qituvchi fikrlarni umumlashtirish va o'quvchilarga yoshlikdan sog'lom turmush tarzini kechirishga odatlanish kerakligini, buni, avvalo, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilishdan boshlash zarurligini uqtiradi.

**VI. Nutqiy matn ustida ishlash.** "Ibn sino bobo — ulashar davo" (3- topshiriq) she'ri ifodali o'qitiladi va mazmuni — she'r nima haqida ekanligi so'zlatiladi. Olingan xulosalarni 3- mashqdagi ustunlarga yozdirib qo'yish ham mumkin. She'rni yod olish va Ibn Sino bobomiz haqida ma'lumot yozib kelish uyga vazifa sifatida topshiriladi.

**VII. Darsni yakunlash** jarayonida BBB kartochkalari to'ldiriladi va o'quvchilar baholanadi.

**Uyga vazifa:** "Ibn sino bobo - ulashar davo" she'rini yod olish.

### **36 - dars**

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarda haqida, to'g'risida ko'makchilarini nutq jarayonida qo'llash, yangi ma'lumotni so'rab bilib olish malakalarini hosil qilish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarni shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish, ularni salomatlikka zarar

keltiradigan odatlardan saqlanishga, salomatliklarini yoshlikdan asrab-avaylashga chaqirish.

**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, elektron vositalar, Rauf Subxonning "Tushki ovqat" hikoyasi, BBB kartochkalari.

**Darsda qo'llanadigan metodlar.** Hamkorlikda va guruhlariga bo'linib ishlash, aqliy hujum, metodlari, rolli o'qish, BBB usuli.

### Dars rejasi.

- |  |           |
|--|-----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash va baholash.  | 7 daqiqa  |
| 2. O'tilgan mavzuni takrorlash "Shaxsiy gigiyena qoidalarini" matni ustida ishlash (4- mashq, 4- topshiriq).<br>Aqliy hujum. | 10 daqiqa |

- |   |           |
|---|-----------|
| 3. Nutqiy mavzuni mustahkamlash. "Uyali aloqa haqida" matni ustida ishlash (5-mashq). | 10 daqiqa |
| 4. Guruhlarga bo'linib "Men kelajakda..." o'yinini o'ynash (6- topshiriq).            | 7 daqiqa  |

- |  |          |
|--|----------|
| 5. Adabiy o'qish. Rauf Subxonning "Tushki ovqat" hikoyasi.<br>Rolli o'yin. | 8 daqiqa |
| 6. Darsni yakunlash, o'quvchilarni baholash (BBB usuli),<br>uyga vazifa.   | 3 daqiqa |

### Darsning borishi:


**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasini so'rash va baholash. O'quvchilar shoir P.Mo'minning "Ibn Sino bobo — ulashar davo" she'rini yod aytib beradilar, Ibn Sino haqida yozib kelgan ma'lumotlarini o'qib beradilar.

**II. O'tilgan mavzuni takrorlash.** O'qituvchi o'quvchilar diqqatini 4- mashqda berilgan "Shaxsiy gigiyena qoidalarini" matniga qaratadi. O'quvchilar matnni o'qib, unda nima haqida fikr yuritilganini aytib beradilar. Mashqni bajarishda "Aqliy hujum" metodidan foydalanish tavsiya etiladi. So'ngra 4- topshiriq bajartiriladi. Ushbu topshiriq 4- mashqni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilar

berilgan javoblarni o'qib chiqadilar va matn mazmunidan foydalanib, ushbu javoblarga mos savollar tuzadilar. Savol tuzish jarayonida o'quvchilarda *haqida*, *to'g'risida* ko'makchilarini amaliy qo'llash ko'nikmalari hosil qildirib boriladi.

**III. Nutqiy mavzuni mustahkamlash** uchun Uyali aloqa haqidagi matn ustida ishlanadi (5- mashq). O'quvchilarga matn o'qitiladi, so'ngra ularning diqqati darslikdagi rasmga, uyali telefon bilan muloqotlarga qaratiladi va bu holatlarga o'z munosabatlarini bildirish so'raladi. Bahsmunozaradan so'ng 5- topshiriq asosida uyali telefonning foydali va zararli tomonlarini ikki ustunga ajratib yozish topshirig'i beriladi.

**IV. Guruhlarga bo'linib ishlash** va "Men kelajakda..." o'yinini tashkil etish. Bu o'yin darslikdagi 6- topshiriqda berilgan maqollarni o'qish va mazmunini tushuntirish asosida tashkil etiladi. Buning uchun o'quvchilarni 4 guruhga bo'lish va har bir guruhga bittadan maqolni "Men kelajakda sog'lom bo'lishim uchun..." shiori ostida sharhlab berish topshiriladi.



**V. Adabiy o'qish.** Rauf Subxonning "Tushki ovqat" hikoyasi ustida ishlash. Dars jarayonida hikoyani rolli o'qitish, so'ngra uning mazmunini so'zlatish maqsadga muvofiq.

**VI. Darsni yakunlash,** BBB kartochkalarini o'qitish, darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholash.

**Uyga vazifa.** Hikoyani o'qish va so'zlab berish.

## XVI MAVZU: BUYUK ALLOMALARIMIZ (Vaqtni ifodalash)

### 37 - dars

#### Darsning maqsadi:

**2. Tarbiyaviy maqsad.** O'quvchilarda buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish hissini uyg'otish, ilmlarni chuqur egallashga undash.

**1. Ta'limiy maqsad.** Vaqtni ifodalashda qo'llanadigan sonlar, ularning imlosi haqida ma'lumot berish, allomalar bilan tanishtirish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, o'z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.

**Darsning jihozlanishi va vositalari.** Darslik, elektron vositalar, Ahmad al-Farg'oniya qo'yilgan haykal rasmi, I. Karimovning "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" asari, krossvord.

**Darsda qo'llanadigan metodlar.** "Aqliy hujum", "O'ylab top" usullari, qiziqarli grammatika mashqi.

**Darsdan erishiladigan BKM natijalari.** O'quvchilar vaqtni ifodalashda qo'llaydigan sonlarining qo'llanishi bo'yicha nazariy bilimga ega bo'ladi, ushbu sonlarni amaliy qo'llash ko'nikma hamda buyuk allomalarimiz mavzusida suhbatga kirishish, matn bilan ishlash malakalari shakllanadi.

#### Dars rejasi:

1. Uy vazifasini so'rash va baholash.	7 daqiqa
2. Yangi mavzu bayoni. Rasm ustida ishlash va savollarga javob berish (1- topshiriq, 1- mashq). Aqliy hujum.	10 daqiqa

3. Grammatik qoida bayoni.	6 daqiqa
4. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (2-3- mashqlar, 2- topshiriq).	8 daqiqa

5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash (4- mashq, 3- topshiriq). Krossvord yechish.	10 daqiqa
6. Darsni yakunlash va uyga vazifa berish.	4 daqiqa

### **Darsning borishi.**

**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasini soʻrash va baholash.

**II. Yangi mavzu bayoni.** Oʻqituvchi oʻquvchilar diqqatini darslikda berilgan buyuk alloma Ahmad al-Fargʻoniy haykali rasmiga qaratadi va "Aqliy hujum" metodidan foydalangan holda 1- topshiriqdagi savollar asosida buyuk allomalar mavzusida suhbat oʻtkazadi. Soʻngra 1- mashqda berilgan I. Karimovning "Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch" asaridan olingan parcha oʻqitiladi.

«Ulugʻ ajdodimiz Ahmad al-Fargʻoniy insoniyat tarixidagi ilk Uygʻonish davridagi eng zabardast va kuchli namoyandalaridan biridir. Allomaning "Astronomiya asoslari" asari **XII asrdayoq** lotin va ivrit tillariga tarjima qilingan. **XVI asrda** Oydagi kraterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz — Ahmad al-Fargʻoniy va Mirzo Ulugʻbek nomi bilan ataladi. Amerikalik tarixchi Sarton milliy tariximizning yana bir yorqin yulduzi Abu Rayxon Beruniy faoliyatiga baho berar ekan, **XI asrni** "Beruniy asri" deb taʼriflaydi.»

*(I. Karimov. "Yuksak maʼnaviyat yengilmas kuch" asaridan)*


Oʻqituvchi matnda ajratib koʻrsatilgan XII asrdayoq sonlarga oʻquvchilar eʼtiborini qaratadi va yangi grammatik maʼlumotni tushuntirishga oʻtadi.

**III. Grammatik qoida bayonida** oʻqituvchi vaqtni ifodalashda sanoq va tartib sonlarning ishlatilishi, ularning *qachon? qay payt?* soʻroqlariga javob boʻlishi, tartib sonlar arab raqamlari bilan yozilganda chiziqcha bilan, rim raqamlari bilan ifodalanganda chiziqchasiz yozilishini misollar vositasida tushuntiradi.

**IV. Grammatik maʼlumotni mustahkamlash** uchun 2-3- mashqlar foydalanish tavsiya etiladi. 2- mashqda oʻquvchilar nuqtalar oʻrniga foydalanish uchun berilgan

soʻzlardan mosini qoʻyib gaplarni koʻchiradilar, 3- mashq harflar bilan yozilgan sonlarni mos raqamlar bilan yozish koʻnikmasini hosil qilishga qaratilgan. 4- mashqda esa oʻquvchilar sonlarning yozilish shaklini izohlaydilar.

**V. Nutqiy mavzuni mustahkamlash.** Qiziqarli grammatika mashqi. 2- va 3- mashqlarda berilgan matnlar oʻquvchilarga nutqiy mavzu boʻyicha ham keng maʼlumot beradi. Ushbu maʼlumotlarni yodda saqlab qolish uchun 2- topshiriqdagi savollarga ogʻzaki javob berdirish, bunda quyidagi krossvord topshiriqlaridan foydalanish tavsiya etiladi:



**Gorizontal yoʻnalishda:** 2. X asrda yashagan qomuschi olim. 5. Oʻzbek romanchiligining asoschisi. 6. "Sharq Arastusi" "Ikkinchi muallim" nomlarini olgan qomuschi olim. 7. XX asrdagi buyuk oʻzbek shoiri. 9. Qoʻqonlik shoir Nodirabegimning ustoz. 10. Ona Vatanimizni Chingiz istilosidan, Yevropa mamlakatlarini Sulton Boyazid istilosidan xalos etgan buyuk tarixiy shaxs.

**Vertikal yoʻnalishda:** 1. X asrda yashagan buyuk tabib-olim. 3. Qoʻqon xoni Amir Umarxonning rafiqasi, shoir. 4. Buyuk oʻzbek shoiri. 8. XV asrda yashagan shoh va shoir, mutafakkir va mashhur sarkarda.

**VI. Darsni yakunlash.** Oʻqituvchi dars mavzusiga

yakun yasaydi, darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholaydi va uyga vazifa beriladi.

**Uyga vazifa.** Buyuk allomalarning nomlarini yozish va ulardan biri haqida ma'lumot berish.

### 38 - dars

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarda vaqt ma'nosini bildiruvchi tartib sonlarni nutqda to'g'ri qo'llash malakalarini shakllantirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** Buyuk allomalarimiz meroslarini chuqurroq o'rganishga intilish tuyg'ularini uyg'otish va zamonaviy ilmlarni chuqur egallashga undash.

**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy suratlari, BBB kartochkalari.

**Dars metodlari.** "Aqliy hujum", "Zanjir", BBB usullari.

**Darsdan erishiladigan BKM natijalari:** O'quvchilar vaqtni ifodalashda qo'llanadigan tinish belgilari bo'yicha nazariy bilimga ega bo'ladi, berolgan mashq va topshiriqlarni mustaqil ishlash orqali og'zaki va yozma nutq ko'nikmalari hamda mavzu bo'yicha matn bilan ishlash, o'z-o'zini nazorat qilish malakalari shakllanadi.

#### Darsning borishi.

- |  |           |
|--|-----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash va baholash.  | 8 daqiqa  |
| 2. O'tilgan mavzuni takrorlash (4-topshiriq). Aqliy hujum. "Abu Nasr Forobiy" matni ustida ishlash (5- mashq). | 7 daqiqa  |
| 3. Yangi grammatik qoidani tushuntirish.   | 5 daqiqa  |
| 4. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (6- mashq va 3- topshiriq).  | 10 daqiqa |
| 5. Adabiy o'qish. "Tabiblarning tabibi" asaridan parcha. "Zanjir" usuli.                                       | 10 daqiqa |
| 6. O'quvchilarni baholash va uyga vazifa.  | 5 daqiqa  |

**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasini soʻrash va baholash. Oʻquvchilar "Buyuk allomalarimiz" mavzusida tuzib kelgan ijodiy matnlarini oʻqib beradilar, qoʻshimcha savollarga javob beradilar.

**II. Oʻtilgan mavzuni takrorlash** uchun 5- mashqda berilgan matn oʻqitiladi. Oʻquvchilar buyuk alloma Abu Nasr  $\Phi$ orobiy haqidagi maʼlumotlar bilan tanishadilar.

**III. Yangi grammatik qoida bayoni.** Ushbu darsda ketma-ket kelib, maʼlum bir vaqtdan koʻrsatilgan muddat-gacha boʻlgan vaqt oraligʻi maʼnosini bildiruvchi sonlar orasiga tire (—) qoʻyilishi haqidagi maʼlumot bilan tanishtiriladi. Masalan: 1441—1501- yillar, XIX—XX asr kabi.

**IV. Grammatik maʼlumotni mustahkamlash** uchun 6- mashq yozma bajartiriladi. Oʻquvchilar avval matnni oʻqiydilar, soʻngra Abu Rayhon Beruniy bajargan ishlarni ketma-ketlikda yozib chiqishlari kerak. Soʻngra matn asosida bir-biringizga savollar bering va savol-javobni davom ettiring (3- topshiriq).

**V. Adabiy oʻqish.** Darslikda berilgan "Tabiblarning tabibi" hikoyati "Zanjir" usulida ovoz chiqarib va har bir gap oʻquvchilarga qatorma-qator ketma-ketlikda oʻqitiladi. Usulning shartida oʻquvchilar toʻxtab qolmasliklari, hikoyatni huddi bir odam oʻqiyotgandek gaplarni bir-biriga ulab oʻqishlari talab qilinadi. Buning uchun oʻquvchilar oʻqish jarayonini diqqat bilan tinglab va kuzatib borishlari kerak boʻladi.

**VI. Mavzuni yakunlash,** oʻquvchilarni baholash va uyga vazifa. Oldindan tarqatilgan BBB kartochkalari oʻquvchilarga oʻqitiladi va oʻquvchilarning mavzu boʻyicha egallagan bilim, koʻnikma va malakalari aniqlanadi, soʻngra oʻquvchilar baholanadi.

**Uyga vazifa:** Hikoyatni uyda toʻliq oʻqib chiqish va mazmunini soʻzlab berish.

**XVII MAVZU: BAHORGI ISHLAR**  
**(Payt ravishlarining yasalishi va qo'llanishi)**

**39 - dars**

**Darsning maqsadi:**

**2. Tarbiyaviy maqsad.** O'quvchilarga bahorda qilinadigan ishlar haqida ma'lumot berish, o'quvchilarni umumxalq hasharlarida faol ishtirok etishga undash, ularni mehnatsevarlikka o'rgatish.

**1. Ta'limiy maqsad:** O'quvchilarga tub va yasama payt ravishlari, ravish yasovchi qo'shimchalar, ravishlarning og'zaki va yozma nutqda qo'llanishi haqida ma'lumot berish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad:** O'quvchilarni mustaqil fikrlashi rivojlanadi og'zaki va yozma nutq malakalari shakllanadi.

**Darsning jihozlanishi va vositalari.** "O'zbek tili" darsligi, videolavha va rasmlar, Kavsar Turdiyevaning "So'zlar adashdi" she'ri.

**Darsda qo'llanadigan metodlar.** "Aqliy hujum", "Klaster" usullari, qiziqarli grammatika mashqlari.

**Darsdan erishiladigan BKM natijalari.** O'quvchilar payt ravishlarining qo'llanishi haqida nazariy bilimga ega bo'ladi, ularda ushbu ravishlarni amaliy qo'llash ko'nikmalari va mavzu bo'yicha yakka tartibda va guruh bo'lib ishlash, o'z-o'zini nazorat qilish malakalari shakllanadi.

**Dars rejasi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash va baholash.	8 daqiqa
2. Rasm (1- topshiriq) va «Bahorgi ishlar» matni ustida ishlash (1- mashq). Aqliy hujum.	7 daqiqa

3. Yangi grammatik qoidani tushuntirish.	5 daqiqa
4. O'tilgan mavzuni mustahkamlash (2-4- mashqlar) va 2-3- topshiriqlar.	10 daqiqa

5. "Bahor elchilari" matni (5-mashq), "Soʻzlar adashdi" sheʼri ustida ishlash (4- topshiriq). Qiziqarli grammatika mashqi. 10 daqiqa
6. Oʻquvchilarni baholash va uyga vazifa. 5 daqiqa

## **Darsning borishi.**

### **I. Tashkiliy qism.**

Uy vazifasini soʻrash va baholash. Oʻquvchilar "Tabiblarning tabibi" hikoyati mazmunini soʻzlab beradilar, buyuk allomalarimiz haqida berilgan qoʻshimcha savollarga javob beradilar.

**II. Yangi mavzu bayoni.** 1- topshiriq asosida darslikda berilgan rasm kuzatilib, aqliy hujum metodidan foydalanib, bahorda bajariladigan ishlar haqida suhbat tashkil etiladi. Soʻngra "Bahorgi ishlar" matni oʻqitiladi va bahor faslida bajariladigan ishlar sanab chiqiladi (1- mashq). Soʻngra 2-topshiriq asosida savol-javob tashkil etiladi, savollarda ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga eʼtibor qaratilib, bahor faslida tabiatning uygʻonishi tartibi bayon etiladi.

### **III. Yangi grammatik qoida bayoni.**

**Bilib oling!** Oʻqituvchi oʻzbek tilida rayt maʼnosini bildirishda kecha, bugun, erta, indin, oʻtgan kun, oʻtgan yil, kelasi yil, ertalab, kunduzi, kechqurun, kech, tushda, peshin, hozir, ilgari, avval, doim, ilk, oldin, keyin, soʻng, soʻngra, hali kabi rayt ravishlarining ishlatilishi, bunday soʻzlar qachon? qay payt? soʻroqlariga javob boʻlishi haqida maʼlumot beriladi.

**IV. Grammatik maʼlumotni mustahkamlash** uchun 3-4- mashqlar yozma bajartiriladi. Oʻquvchilar avval 3-mashqda berilgan gaplardagi nuqtalar oʻrniga payt ravishlaridan mosini qoʻyib, berilgan gaplarni koʻchiradilar. Soʻng 4- masq topshirigʻi asosida bahor faslida bajariladigan ishlarni vaqt tartibi boʻyicha mustaqil yozib chiqadilar. Mazkur topshiriqni quyidagicha bajarish koʻzda tutiladi:

Erta bahorda yerlar chopiladi, yangi ko'chatlar, gullar ekiladi. Har yili daraxtlar oqlanadi, ularning ortiqcha shoxlari kesiladi. Keyin esa ko'cha-hovlilar tozalanadi.

**V. Nutqiy mavzuni mustahkamlash.** Matn ustida ishlash. Avval "Bahor elchilari" matni o'qitiladi, mazmuni so'zlatiladi va matnda qo'llangan payt ravishlari aniqlatiladi (5- mashq). So'ngra qiziqarli grammatika ruknida Kavsar Turdiyevaning "So'zlar adashdi" she'ri o'qitiladi (3- topshiriq). O'quvchilar she'rdagi adashgan so'zlarni o'z o'rniga qo'yib, quyidagi shaklga keltirishlari kerak:

<i>Gulga qo'ndi kapalak</i>	<i>Tongda tinmas xo'rozlar,</i>
<i>Rang-barangdir kamalak.</i>	<i>Juda qiziq ertaklar.</i>
<i>Dorivordir gulqoqi</i>	<i>Ko'kka chiqdi oymomo,</i>
<i>Sharsharalar o'ynoqi,</i>	<i>Yechilmaydi muammo.</i>
<i>Quloq teshar kurtaklar.</i>	
<i>Ochilmoqda ovozlar.</i>	

Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga *Nima tongda tinmay uchadi? Nima rang-barang bo'ladi? Nimalar dorivor bo'ladi? Sharsharalar qanday oqadi? Oymomo qaerda bo'ladi? Tongda nima qichqiradi? kabi savollarni o'rta tashlashi, savollarning bir-ikkitasini doskada "Klaster" usulida muhokama qildirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.*

**VI. Darsni yakunlash** bosqichida o'qituvchi bahor faslining o'ziga xos xususiyatlari, o'lkamizda bahorda bajariladigan ishlarning ahamiyati va bahorgi ishlarni bajarishda kattalarga ko'maklashish haqida gapirib mavzuni umumlashtiradi, darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholaydi va uyga vazifa topshiriladi.

**Uyga vazifa.** "So'zlar adashdi" she'rini to'g'ri shaklga qo'yib, yod olib kelish.

#### **40 - dars**

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarga o'zbek tilida payt ravishlarining imlosi haqida ma'lumot berish, ularni nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O‘quvchilarga bahor faslida o‘tkaziladigan hasharlar haqida tushuncha berish, ularni hasharlarda faol ishtirok etishga undash.

**Darsning jihozlanishi va vositalari.** "O‘zbek tili" darsligi, videolavha, elektron vositalar, Habibullo Qodiriyning "Otam haqida" asari, hasharlar jarayoni rasmlari, BBB kartochkalari.

**Darsda qo‘llanadigan metodlar.** Rolli o‘yin, "Zanjir", BBB usullari.

**Darsdan erishiladigan BKM natijalari:** O‘quvchilar payt ravishlarining imlosi haqida nazariy bilimga ega bo‘ladi, ularni o‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalari hamda mavzu bo‘yicha guruhlarda ishlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish malakalari shakllanadi.

#### **Dars rejasi:**


- |  |           |
|--|-----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash va baholash.  | 7 daqiqa  |
| 2. O‘tilganlarni takrorlash. 4- topshiriqdagi suhbatni rolli o‘qish va 5- mashqdagi "Hashar" matni ustida ishlash. | 8 daqiqa  |
| 3. Yangi grammatik qoidani tushuntirish.   | 7 daqiqa  |
| 4. Mavzuni mustahkamlash (6- mashq, 5- topshiriq).   | 8 daqiqa  |
| 5. Adabiy o‘qish. Habibullo Qodiriyning "Bog‘dagi ishlar" matni ustida ishlash.                                    | 10 daqiqa |
| 6. O‘quvchilarni baholash va uyga vazifa.  | 5 daqiqa  |

#### **Darsning borishi.**

I. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rash va baholash. "Bahorgi ishlar" mavzusida tuzilgan ijodiy matnlar o‘qitilib baholanadi.

II. **Yangi nutqiy mavzu bayoni.** Darslikda berilgan rasm kuzatiladi va 4- topshiriqda berilgan suhbat matni rollarga bo‘lib o‘qitiladi. Bu o‘rinda maktabda, mahallada,

ko'chada o'tkazilgan hasharlar jarayoni rasmlaridan ham foydalanish mumkin. So'ngra 5- mashqdagi "Hashar" matni o'qitilib, o'quvchilar e'tibori ajratib ko'rsatilgan so'zlarga qaratiladi va grammatik qoida bayoniga o'tiladi.



**III. Grammatik ma'lumot bayoni.** Ushbu darsda payt ravishlarining yozilishi haqida ma'lumot berilishi va o'quvchilarning payt ravishlarini qo'llash ko'nikmalarini musahkamlash ko'zda tutilgan. Shundan kelib chiqib o'qituvchi payt ravishlarining juft holda qo'llanishi, bunda ular orasiga *-u (-yu)* yuklamasi yoki chiziqcha qo'yilishi qoidasini, shuningdek, ayrim hollarda *-dan* chiqish kelishigi qo'shimchasini va *-gacha* qo'shichasini olib kelib, takrorlanib qo'llanishi ham mumkinligini misollar vositasida tushuntiradi.

**IV. Nutqiy mavzuni mustahkamlash** uchun berilgan Habibullo Qodiriyning "Otam haqida" asaridan olingan parcha- "Bog'dagi ishlar" matni "Zanjir" usulida o'qitiladi. Bahorda bajariladigan ayrim ishlarga izoh beriladi (6-topshiriq).

**V. Mavzuni yakunlash.** Bu darsda bahorgi ishlar mavzusi yakunlanadi, shu bois o'qituvchi BBB kartochkalaridan foydalanadi. O'quvchilar avvaldan tarqatilgan BBB kartochkalariga bergan javoblarini o'qiydilar va shular e'tiborga olingan holda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari baholanadi.

**Uyga vazifa.** Payt ravishlarini qo'llab savollarga javob yozib kelish.

**XVIII MAVZU: MILLIY TAOMLAR**  
**(Holat ravishlarining yasalishi va qo'llanishi)**

**41 - dars**

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarga o'zbek tilida nolat ravishlarining yasalishi haqida ma'lumot berish, ularni nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarga o'zbek xalqining milliy taomlari, ularning tayyorlanishi haqida tushuncha berish, ularni taomlar tayyorlashni o'rganishga undash.

**Darsning jihozlanishi va vositalari.** "O'zbek tili" darsligi, elektron vositalar, videolavha, rasmlar, slayd.

**Darsda qo'llanadigan metodlar.** Hamkorlik, ko'rsatmalilik metodlari.

**Darsdan erishiladigan BKM natijalari.** O'quvchilar holat ravishlarining qo'llanishi haqida nazariy bilimga ega bo'ladi, ularda ushbu ravishlarni amaliy qo'llash ko'nikmalari va mavzu bo'yicha yakka tartibda ishlash, o'z-o'zini nazorat qilish malakalari shakllanadi.

**Dars rejasi:**

- |   |           |
|---|-----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rash va baholash.                                 | 7 daqiqa  |
| 2. Berilgan rasm va "Milliy taomlar" matni ustida ishlash (1-2- topshiriq, 1- mashq). | 8 daqiqa  |
| 3. Yangi grammatik qoida bayoni. Slayd namoyishi.                                     | 7 daqiqa  |
| 4. Grammatik mavzuni mustahkamlash (2-4- mashqlar).                                   | 8 daqiqa  |
| 5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash. 3-4- topshiriq.                                      | 10 daqiqa |
| "Mehnatning noni shirin" matni ustida ishlash.  | 10 daqiqa |
| 6. O'quvchilarni baholash va uyga vazifa.   | 5 daqiqa  |

## Darsning borishi: I. Tashkiliy qism.

1. Uy vazifasini so‘rash va baholash. "Bahorgi ishlar" mavzusida tuzilgan ijodiy matnlar o‘qitilib baholanadi

## II. Nutqiy mavzu bayoni.

Yangi nutqiy mavzu bayonidan avval o‘quvchilar darslikdagi sumalak pishirish jarayonining rasmi bilan tanishadilar va rasm asosida hamda 1- topshiririqdagi tayanch so‘zlar ishtirokida gaplar tuzadilar. So‘ng "Milliy taomlar" matni ustida ishlanadi (1- mashq). So‘ng 2- topshiriq asosida suhbat tashkil etiladi.

## III. Grammatik mavzu bayoni.

**Bilib oling!** O‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan grammatik qoidaga qaratadi va ish-harakatning qay tarzda bajarilishini bildirishda qo‘llanadigan *sekin, asta, tez, darhol, ohista, astoydil, to‘satdan, chinakamiga, mardona, muloyim, zo‘rg‘a, bolalarcha, guldek* kabi ravishlarning qo‘llanishi, ularning *qay tarzda? qanday? qay holda?* so‘roqlariga javob berishi haqida ma’lumot beradi.

Ushbu ravishlar ishtirokida tuzilgan so‘z birikmalari berilgan slaydni namoyish qilish va o‘quvchilarning o‘zlariga shu kabi misollar tuzdirish yangi mavzuni tez va mustahkam tushunib olishga yordam beradi.

Slayd namoyishi:

<b>Holat ravishlari</b>	<b>Fe'llar</b>
<i>qay tarzda? qay holda? qanday?</i>	<i>nima qilmoq?</i>
<i>sekin, asta, ohista, muloyim, tez</i>	<i>gapirmoq</i>
<i>chinakamiga, mardona, astoydil</i>	<i>kurashmoq</i>
<i>darhol, to‘satdan</i>	<i>kelib qolmoq</i>
<i>guldek</i>	<i>ochilmoq</i>

**IV. Grammatik mavzuni mustahkamlash** uchun 2-4-mashqlar bajartiriladi. O'quvchilar avval 2- mashqdagi matnni o'qiydilar. So'ngra matndan harakat tarzini ifodalovchi so'zlarni aniqlab, o'zi bog'lanib kelgan so'zlar bilan ko'chirib yozadilar. So'ngra matnni davom ettiradilar. So'ng 3-mashqdagi gaplarni qavs ichidagi so'roqlarga mos so'zlar bilan to'ldirib ko'chiradilar. Bunda foydalanish uchun berilgan astoydil, bolalardek, birdan, cho'g'day, darhol, samimiy so'zlaridan foydalaniladi.

**V. Nutqiy mavzuni mustahkamlash** uchun 3-topshiriqda berilgan suhbat matnini rollarga bo'lib o'qitish, so'ngra 4- topshiriqda berilgan "Mehnatning noni shirin" matni ustida ishlash ko'zda tutiladi. O'quvchilarga matn o'qitiladi va matnga qo'yilgan sarlavha mazmunini izohlash topshiriladi.

**VI. Darsni yakunlash**, BBB kartochkalarini to'ldirish va o'quvchilarni baholash.

**Uyga vazifa.** O'zingizga yoqadigan taomni tayyorlash tartibini yozing.

## 42 - dars

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarda o'zbek tilidagi nolat (tarz) ravishlarini to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarga palovning tayyorlanishi haqida ma'lumot berish, mehnatdan keyingi taom eng shirin taom ekanligini tushuntirish.

**Darsning jihozlanishi va vositalari.** "O'zbek tili" darsligi, videolavha, sumalak, palov pishirish jarayoni rasmlari, Mahmud Murodovning "Shirin palov" hikoyasi.

**Darsda qo'llanadigan metodlar.** Hamkorlik, ko'rsatmalilik, rolli o'qish metodlari.

**Darsdan erishiladigan BKM natijalari:** O'quvchilar holat (tarz) ravishlarining imlosi haqida nazariy bilimga ega bo'ladi, ularni o'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llash

ko'nikmalari hamda mavzu bo'yicha suhbatga kirisha olish, matn bilan ishlash malakalari shakllanadi.

### Dars rejasi:

1. Tashkiliy qism.	5 daqiqa
2. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qitish (5- topshiriq), so'ng uy vazifasini so'rab baholash.	10 daqiqa

3. Grammatik qoidani tushuntirish.	5 daqiqa
4. Grammatik mavzuni mustahkamlash (5-6-mashqlar).	10 daqiqa

5. Adabiy o'qish. Mahmud Murodovning "Shirin palov" hikoyasini rolli o'qitish.	15 daqiqa
6. O'quvchilarni baholash va uyga vazifa.	5 daqiqa

### Darsning borishi:

#### I. Tashkiliy qism.

Mazkur darsni 5- topshiriqdan boshlash maqsadga muvofiq. Avval suhbat matni rollarga bo'lib o'qitiladi, boshqa o'quvchilar tomonidan davom ettiriladi: o'quvchilar uyda mustaqil pishirgan taomni tayyorlash tartibini gapirib beradilar. Bunda darslikda berilgan turli milliy taomlar rasmlaridan foydalanish mumkin.

#### II. Yangi mavzu bayoni

**Bilib oling!** O'zbek tilida holatni ifodalovchi ravishlar nutqda juft va takror holda qo'llanishi mumkin. Bunday ravishlar asosan chiziqcha bilan, shuningdek, *-u, -yu* yuklamalari bilan yoziladi. Masalan: *asta-sekin, tez-tez, zo'rg'a-zo'rg'a, asta-yu ohista* kabi.

**III. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash** uchun 5- mashq yozma, 6- mashq esa og'zaki bajartiriladi. O'quvchilar 5- mashq topshirig'iga ko'ra harakat tarzini bildiruvchi so'zlarni takror yoki juft holda qo'llab, gaplarni ko'chiradilar, ma'nodagi farqlarni tushuntiradilar. So'ngra

6- mashqdagi talov tayyorlash tartibini o'qiydilar, matnda qo'llangan holat ravishlarini aniqlab, o'zi bog'langan so'z bilan ko'chirib yozadilar.

**IV. Nutqiy mavzuni mustahkamlash** uchun 6- topshiriqdagi maqollar o'qitilib, ularning ma'nosi sharhlanadi.

**V. Adabiy o'qish.** Mahmud Murodovning "Shirin palov" hikoyasi rolli o'qish vositasida o'qitiladi, mazmuni qayta hikoya qilinadi.

**VI. Mavzuni xulosalash.** BBB kartochkalarini o'qitish, o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash va o'quvchilarni baholash.

**Uyga vazifa.** Hikoyani so'zlab bering.

## XIX MAVZU: NAVRO'Z UDUMLARI (O'rin ravishining qo'llanishi)

### 43 - dars

**Darsning maqsadi:**

**2. Tarbiyaviy maqsad.** Navro'z udumlari haqida tushuncha berish, ularni milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashga chaqirish.

**1. Ta'limiy maqsad.** O'quvchilarda avvalgi darslarda o'tilgan grammatik ma'lumotlarni nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O'quvchilarni nutqiy mavzu doirasida o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda ifodalashga o'rgatish.

**Darsning jihozlanishi va vositalari.** "O'zbek tili" darsligi, proektor, videovositalar, Navro'z tantanalari, sumalak pishirish jarayoni rasmlari, Nilufar Sharipovanning "Navro'z" she'ri.

**Darsda qo'llanadigan metodlar.** Noan'anaviy interfaol usul, guruh bilan hamkorlikda ishlash, rolli o'qish metodlari.

### Dars rejasi:

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rab baholash. 7 daqiqa
2. Yangi nutqiy mavzu bayoni. Rasmlar va “Navro‘z” matni ustida ishlash (1- topshiriq, 1- mashq).

10 daqiqa

3. Nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish (2-mashq). “Navro‘z udumlari” matni ustida ishlash (3- mashq).
4. O‘tilgan grammatik mavzularni takrorlash. (4-mashq).

10 daqiqa

5. Adabiy o‘qish. «Navro‘z» she‘ri. 7 daqiqa
6. O‘quvchilarni baholash va uyga vazifa. 3 daqiqa

### Darsning borishi.

I. Tashkiliy qism va uy vazifasini so‘rab baholash. O‘quvchilar talov tayyorlash tartibi asosida uyda bajargan ishlari haqida so‘zlab beradilar.

II. Nutqiy mavzu bayoni. Ushbu dars noan’anaviy tarzda tashkil etilishi ko‘zda tutiladi. O‘quvchilar e‘tibori darslikda berilgan rasmlarga qaratiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni 1- topshiriq asosida 2 guruhga ajratadi va har bir guruhga 1 tadan rasmni tasvirlab berish topshirig‘i beriladi.

1- guruh  
1- rasm asosida

2- guruh  
2- rasm asosida

Guruhlar hamkorlikda ishlaydilar va berilgan muddat tugagach, har bir guruhdan bittadan vakil doska oldiga chiqib rasm mazmunini sharhlab beradi. Boshqa o‘quvchilar to‘ldirishlari ham mumkin.

So‘ng “Navro‘z bayrami” matni o‘qitiladi va matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘z va birikmalar ustida ishlanadi. Bu matn orqali o‘quvchilarni Navro‘z bayramining kelib chiqishi, ushbu so‘zning ma‘nosi, boshqa bayramlardan farqi kabilar bilan tanishtiriladi.

III. Nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish. 2- mashq topshirig‘i o‘quvchilarni Navro‘z udumlariga oid so‘zlarni

nutqda qo'llashga qaratilgan. Bunda o'quvchilar berilgan matndagi rasmlar o'rniga mos so'zlar qo'yib yozadilar. So'ngra o'quvchilarga "Navro'z udumlari" matni o'qitiladi (3-mashq) va berilgan savollarga javob berdirish orqali ushbu matn mazmuni o'quvchilarga singdiriladi.

**IV. Adabiy o'qish.** Nilufar Sharipovanning "Navro'z" she'ri ifodali o'qitiladi. She'r mazmuni yaxshilab tushuntiriladi va yod olish uchun topshiriladi.

**V. Darsni yakunlash.** O'qituvchi o'tilgan mavzuni umumlashtiradi, darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholaydi va uyga vazifa topshiradi.

**Uyga vazifa.** 1. She'rni yod olish. 2. Navro'z bayramida ushbu udumlardan qaysi birini bajara olganingiz haqida so'zlab berish.

#### **44 - dars**

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarning nutq boyligini oshirish, Navro'z mavzusida og'zaki va yozma mustaqil matn tuzish malakalarini shakllantirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarga bemorlarni, keksalarni borib ko'rish, Mehribonlik uylariga sovg'alar ulashish, mehnat fahriylariga ehtirom ko'rsatish kabi Navro'z udumlarini singdirish.

**Darsning jihozlanishi va vositalar.** "O'zbek tili" darsligi, elektron vositalar, audio va videodisklar, Navro'z udumlari aks ettirilgan rasmlar.

**Darsda qo'llanadigan metodlar.** Noan'anaviy, guruh bilan hamkorlikda ishlash, ko'rsatmalilik, rolli o'qish metodlari.

**Dars rejasi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rab baholash. 7 daqiqa
2. Og'zaki nutq malakalarini mustahkamlash.  
Guruhlarga bo'linib rasm ustida ishlash (4- topshiriq)  
15 daqiqa

3. Yozma nutq malakalarini mustahkamlash.  
Yozma topshiriqlarni bajarish (4-5- mashqlar). 10 daqiqa

4. Adabiy o'qish. "Uyg'onish" hikoyasini o'qish. 10 daqiqa  
5. Mavzuni yakunlash, o'quvchilarni baholash va uyga  
vazifa, BBB usuli. 3 daqiqa

## Darsning borishi:

### I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar:

- 1) Nilufar Sharipovanning "Navro'z" she'ri yod aytib beradilar;
- 2) Bayram kunlari Navro'z udumlaridan qaysi birini bajara olganlari haqida so'zlab beradilar.

Ushbu darsda o'quvchilarning nutq boyligini oshirish, Navro'z mavzusida og'zaki va yozma mustaqil matn tuzish malakalarini shakllantirish darsning ta'limiy maqsadi sifatida belgilangan. Shundan kelib chiqib o'qituvchi darsni quyidagicha tashkil etadi:

**II. Og'aki nutq malakalarini mustahkamlash.** Buning uchun quyidagi topshiriqlar ustida ishlanadi:

1) O'quvchilar 2 guruhga bo'linadi va darslikda berilgan rasmlar asosida har bir guruhga bittadan kichik hikoya tuzish topshirig'i beriladi (3- topshiriq). Ushbu topshiriq o'quvchilarni topqirlikka, hamkorlikda va ijodiy ishlashga o'rgatadi, ularning hamda bog'lanishli matn tuzish ko'nikmalarini va og'zaki bayon qilish malakalarini shakllantiradi.

2) Matn ustida ishlash (4- topshiriq). Ushbu topshiriqda berilgan matnda Navro'z udumlaridan biri - bemorlarni, keksalarni borib ko'rish haqida gap boradi. Avval matn o'qitiladi va matn mazmuni asosida suhbat tashkil etiladi. Ushbu matn o'quvchilarga qadimgi vaqtlardan beri saqlanib kelayotgan milliy qadriyatlarimizni singdirishga yordam beradi. O'qituvchi bu o'rinda kimlarning uyida keksalar, mehnat fahriylari borligini so'rashi, o'quvchilarga ularni, birinchi ustozlarini, bobo-buvilarini borib ko'rish, arazlagan-

larni yarashtirish katta savob ish ekanligini uqtirib o'tishi maqsadga muvofiq. Bunda quyidagi kabi yo'llovchi savollardan foydalanish mumkin:

*Oilangizda keksalar bormi? Navro'z kunlari ularni ko'rgani kimlar kelishadi? Navro'z bayramida maktabingizda kimlar bilan uchrashuvlar o'tkaziladi?*

Bu o'rinda Navro'z kunlari teleko'rsatuvlarda shunday lavhalar ko'plab berilishini ham ta'kidlab o'tish mumkin.

### **III. Yozma nutq malakalarini mustahkamlash.**

1. O'quvchilar 4- mashq topshirig'i asosida mashqda berilgan Navro'z bayrami udumlarini muayyan izchillik bilan yozishlari, bunda izchillik, ketma-ketlikni ifodalovchi payt ravishlaridan foydalanishlari ko'zda tutilgan. Ushbu mashq o'quvchilardan mustaqil fikrlashni, udumlarni yaxshi bilishni, shuningdek, o'tilgan mavzularni ham esga olishni talab etadi.

2. Qavs ichida berilgan so'zlardan mosini qo'yib matnni ko'chirish (7- mashq). Bu mashq o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, egallagan bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

**IV. Adabiy o'qish** materialni sifatida M. Qosimovning "Uyg'onish" hikoyasi berilgan. Hikoya avval rolli o'qish tarzida o'qitiladi, notanish so'zlar lug'ati ustida ishlanadi. Hikoyada tabiatni asrab-avaylash, uning boyluklarini bekor-dan bekorga uzib-yulqib tashlamaslik, kelajak avlodlar uchun saqlash kabi ekologik muammolar ko'tarilgan. O'quvchilarga adabiy o'qish materiallarida shu kabi nasriy va she'riy asarlardan berib borish nafaqat ularning nutq boyligini oshirishga, balki mustaqil fikrlashga ham o'rgatadi. Hikoya mazmunini so'zlab berish va oxirgi 2 ta gapga o'z munosabatini bildirish uyga vazifa qilib beriladi.

**V. Mavzuni yakunlash.** Ushbu darsda o'qituvchi Navro'z mavzusi bo'yicha o'tilganlarni umumlashtiradi, avvaldan tarqatilgan va o'quvchilar to'ldirgan BBB kartochkalari o'qitiladi, so'ng faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi.

**Uyga vazifa.** Hikoya mazmunini so'zlab berish va oxirgi 2 ta gapga o'z munosabatini bildirish.

**XX MAVZU: DAM OLISH KUNI**  
**(Hozirgi-kelasi zamon fe'lining yasalishi va**  
**qo'llanishi)**

**45 - dars**

**Darsning texnologik xaritasi**

Mavzu	Hozirgi-kelasi zamon fe'lining yasalishi va ishlatilishi
Maqsad va vazifalar	<p>Maqsad. O'zbek tilida hozirgi-kelasi zamon fe'li doimiy harakatni bildirishi, bunday fe'llar unli tovushdan so'ng -y, undosh tovushdan so'ng -a qo'shimchalarini qo'shish yordamida hosil qilinishi, ularning tuslanishi haqida ma'lumot berish; berilgan ushbu bilimlarni amaliy qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish.</p> <p>Vazifalar. O'quvchilarga nutqiy va grammatik mavzu asosida bilim berish hamda egallangan bilimlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish, fikrni erkin ifodalash malakalarini shakllantirish; ularda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, berilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar o'quvchilar to-monidan qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash.</p>
O'quv jarayonining mazmuni	<p>O'zbek tilida hozirgi-kelasi zamon fe'li doimiy harakatni bildirishi, bunday fe'llar unli tovushdan so'ng -y, undosh tovushdan so'ng -a qo'shimchalarini qo'shish yordamida hosil qilinishi, ularning tuslanishi haqida ma'lumot berish; berilgan ushbu bilimlarni "Dam olish kuni" nutqiy mavzusi doirasida amaliy qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish.</p>
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Dars metodi: hamkorlik metodi, aqliy hujum, "Zanjir" usuli.</p> <p>Shakl: yakka tartibda va guruh bilan ishlash.</p> <p>Vositalar: darslik, rasm yoki videolavha, slaydlar.</p> <p>Nazorat turlari: o'qitish, og'zaki so'zlatish, savol-javob. Baholash: 5 balli tizim asosida.</p>

Mavzu	Hozirgi-kelasi zamon fe'lining yasalishi va ishlatilishi
Kutiladigan natijalar	<p>O'qituvchi: Dars jarayonida ta'limning interfaol usullarini qo'llash vositasida mavzuning barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi, o'quvshilarda fanga va mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi, ularning faolligini oshiradi. BBB usuli orqali o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilib borishga o'rgatadi, ularda bilmagan narsalarini bilishga intilish, tengdoshlariga etib olish hissini uyg'otadi, bir darsda barcha o'quvchilarni baholashga erishadi.</p> <p>O'quvchi: Mavzu bo'yicha yangi bilimlarni egallaydi, berilgan mashq va topshiriqlarni mustaqil ishlash orqali og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini, yakka tartibda va guruh bo'lib ishlash malakalarini egallaydi, o'z-o'zini nazorat qilishga o'rganadi.</p>
Kelgusi rejalar	<p>O'qituvchi: Pedagogik texnologiyalar va elektron vositalarni dars jarayonida ko'proq tatbiq etishga, o'z pedagogik mahoratini oshirib boradi.</p> <p>O'quvchi: O'z fikrini og'zaki va yozma savodli va bog'lanishli bayon qilishni, yakka tartibda va guruh bilan ishlashni o'rganadi. Mavzu doirasida qo'shimsha materiallar izlash va ularni qo'llab ijodiy matn tuzishni o'rganadi.</p>

### Dars rejasi:

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rab baholash. 7 daqiqa
2. Yangi mavzu bayoni. "*Dam olish kunida*" matni ustida ishlash (1- mashq, 1- topshiriq). 8 daqiqa

3. Grammatik qoida bilan tanishtirish. Slayd namoyishi. 7 daqiqa
4. Grammatik qoidani mustahkamlash (2-3- mashqlar). 10 daqiqa

5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash (4-5- mashqlar, 2- topshiriq). 10 daqiqa
6. O'quvchilarni baholash va uyga vazifa. 5 daqiqa

### **Darsning borishi.**

**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasini soʻrab baholash.

**II. Yangi mavzu bayoni** oʻquvchilar diqqatini darslikdagi rasimga qaratish va "Dam olish kunida" matni ustida ishlashdan boshlash maqsadga muvofiq (1- mashq). Oʻquvchilarga avval matn oʻqitiladi, soʻngra ularning eʼtibori 1-topshiriqda berilgan savollarga qaratiladi. Savol-javob yordamida suhbat davom ettiriladi. Soʻngra oʻquvchilar diqqati matnda ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga qaratiladi.

**III. Grammatik qoida bayoni.** Bu darsda oʻqituvchi oʻzbek tilida hozirgi-kelasi zamon feʼli doimiy harakatni bildirishi, bunday feʼllar unli tovushdan soʻng -y, undosh tovushdan soʻng -a qoʻshimchalarini qoʻshish yordamida hosil qilinishi hamda ularning tuslanishi haqida maʼlumot beradi. Bunda quyidagi slayddan foydalanish maqsadga muvofiq:

Slayd namoyishi:

<b>Hozirgi-kelasi zamon feʼlining hosil boʻlishi va tuslanishi</b>		
	<i>Birlik</i>	<i>Koʻplik</i>
I shaxs	<i>oʻqiyman, yozaman</i>	<i>oʻqiyimiz, yozamiz</i>
II shaxs	<i>oʻqiysan, yozasan</i>	<i>oʻqiysiz, yozasiz</i>
III shaxs	<i>oʻqiydi, yozadi</i>	<i>oʻqiydi, yozadi</i>

**IV. Grammatik maʼlumotni mustahkamlash** uchun avval 2- mashqda berilgan savollarga yozma javob berish orqali hozirgi-kelasi zamon feʼlining turli shaxslarda tuslanishi takrorlanadi. Soʻngra 3- mashq topshirigʻiga koʻra berilgan gaplar tarkibidagi qavs ichida berilgan feʼllar hozirgi-kelasi zamon shaklida yoziladi.

**V. Nutqiy mavzuni mustahkamlash** uchun 4-5- mashq va 2- topshiriq ogʻzaki bajartiriladi. Soʻng 2- topshiriqdagi suhbat matni rollarga boʻlib oʻqitiladi. Soʻngra 4- mashqda berilgan keyingi dam olish kuni rejasini tuzish topshirigʻi bajartiriladi.

**VI. Darsni yakunlash,** faol o‘quvchilarni baholash.  
**Uyga vazifa.** Dam olish kunida nimalar bilan shug‘ullanishingiz haqida yozish.

**46 - dars**

**Darsning ta’limiy maqsadi.** O‘quvchilarga o‘zbek tilidagi hozirgi-kelasi zamon fe’lining bo‘lishsiz shaklining hosil qilinishi haqida ma’lumot berish va ularni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O‘quvchilarni dam olish kunida madaniy hordiq chiqarish, bu kunni samarali o‘tkazishga undash.

**Darsning jihozlanishi va vositalar.** "O‘zbek tili" darsligi, hayvonot bog‘i aks ettirilgan rasmlar, slaydlar, topishmoqlar.

**Darsda qo‘llanadigan metodlar.** Hamkorlik, ko‘rsatmalilik, rolli o‘qish, BBB usullari.

**Darsdan erishiladigan BKM natijalari:** O‘quvchi hozirgi-kelasi zamon fe’li haqida nazariy bilimga ega bo‘ladi, ularda hozirgi-kelasi zamon fe’lini amaliy qo‘llash ko‘nikmalari va dam olish kuni mavzusi bo‘yicha suhbatlasha olish malakalari shakllanadi.

**Darsning borishi.**

**I. Tashkiliy qism.**

- |   |          |
|---|----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rab baholash.                                   | 7 daqiqa |
| 2. O‘tilgan mavzuni takrorlash. "Hayvonot bog‘ida" matni ustida ishlash (5- mashq). | 8 daqiqa |

- |  |           |
|--|-----------|
| 3. Grammatik mavzuni mustahkamlash. "Olmaliq" matni ustida ishlash (3- mashq, 5- topshiriq). | 7 daqiqa  |
| 4. Guruhlarga bo‘linib ishlash. "Kim ko‘p biladi?" o‘yini (6- topshiriq).                    | 10 daqiqa |

- |  |           |
|--|-----------|
| 5. Adabiy o‘qish. Yashar Xondamirning "Ustunlar" hikoyasi. | 10 daqiqa |
| 6. O‘quvchilarni baholash va uyga vazifa.                  | 3 daqiqa  |

**II. O‘tilgan mavzuni takrorlash.** "Hayvonot bog‘ida" matni ustida ishlash (5- mashq). O‘quvchilar matndagi rasmlar o‘rniga so‘zlar qo‘yib yozadilar. So‘ngra 6- mashqda berilgan javoblarga mos savollar tuzadilar.

**III. Grammatik qoida** bayonida o‘zbek tilida hozirgi-kelasi zamon fe‘lining bo‘lishsiz shakli - *may* qo‘shimchasi bilan hosil qilinishi tushuntiriladi. Ushbu fe‘llarning tuslanishini quyidagi slayd yordamida namoyish qilish maqsadga muvofiq:

Slayd namoyishi

**Hozirgi-kelasi zamon fe‘li bo‘lishsiz shaklining  
hosil bo‘lishi va tuslanishi**

	Birlik	Ko‘plik
I sh:	<i>o‘qiman, yozaman;</i>	<i>o‘qiyimiz, yozamiz</i>
II sh:	<i>o‘qiysan, yozasan;</i>	<i>o‘qiysiz, yozasiz</i>
III sh:	<i>o‘qiydi, yozadi;</i>	<i>o‘qiadi, yozadi</i>

**IV. Grammatik qoidani mustahkamlash** uchun avval o‘quvchilarga 8- mashqda berilgan gaplardagi fe‘llarni bo‘lishsiz shaklda yozish, so‘ngra matn oxirida berilgan savollarga javob berish va matnni davom ettirish topshirig‘i beriladi. 3- topshiriqda berilgan topishmoqlarning javobini topdirish va topishmoqlardagi fe‘llarning zamonini izohlashni so‘rash orqali hozirgi-kelasi zamon fe‘llarining bo‘lishsiz shaklini mustahkamlashga yordam beradi.

**V. Nutqiy mavzuni mustahkamlash** uchun 7- mashqni bajarish ko‘zda tutiladi. Ushbu topshiriqda dam olish kunida bajariladigan ish turlari o‘tgan zamon shaklida qayd qilingan bo‘lib, o‘quvchilar berilgan ish turlaridan qaysilarini bajarishlari, uyda qanday ishlar qilishlarini hozirgi-kelasi zamon shaklida yozishlari so‘ralgan. Ushbu topshiriq o‘quvchilarga dam olish kunini qanday o‘tkazish samaraliroq ekanligini anglab olishga yordam beradi.

**VI. Adabiy o‘qish.** "Qizlar" hikoyasi o‘quvchilarga o‘qitiladi, savol-javob o‘tkaziladi.

VII. Darsni yakunlash, BBB usulida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini aniqlash va ularni baholash.

**Uyga vazifa.** "Qizlar" hikoyasiga o'z munosabatingizni bildiring.

**XXI MAVZU: ONA SHAHRIM**  
**(-moqda qo'shimchali hozirgi samon fe'lining qo'llanishi)**

**47 - dars**

**Darsning maqsadi:**

**2. Tarbiyaviy maqsad.** O'quvchilarni ona shaharlari haqida ko'proq ma'lumotlar bilishga, ularni o'z ona shaharlari bilan faxrlanishga chaqirish.

**1. Ta'limiy maqsad.** O'quvchilarda o'zbek tili-dagi hozirgi zamon davom fe'lining *-moqda* qo'shimchali shaklining tuslanishi va qo'llanishi haqida ma'lumot berish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O'quvchilarni mustaqil fikrlash va o'z fikrini erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.

**Darsning jihozlanishi.** "O'zbek tili" darsligi, shaharlardagi yangi inshootlar rasmlari, slaydlar.

**Darsda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalar.** Hamkorlik, ko'rsatmalilik metodlari, rolli o'qish, BBB usullari.

**Dars rejasi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rab baholash. 7 daqiqa  
2. Yangi mavzuga kirish suhbat. "Ona shahrim" matni ustida ishlash (1- mashq, 1-2- topshiriq). 8 daqiqa

3. Grammatik qoida bayoni. Slayd namoyishi. 7 daqiqa  
4. Grammatik qoidani mustahkamlash (2- mashq). 8 daqiqa

- |   |           |
|---|-----------|
| 5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash (3- topshiriq). Hamkorlik metodi. | 10 daqiqa |
| 6. O'quvchilarni baholash va uyga vazifa.                         | 5 daqiqa  |

### **Darsning borishi:**

#### **I. Tashkiliy qism.**

Uy vazifasi nazorati: O'quvchilar uyda yozib kelgan "Dam olish kunida" mavzusidagi ijodiy ishlar o'qitilib baholanadi.

#### **II. Yangi mavzuga kirish suhbat.**

O'quvchilar e'tibori darslikdagi rasimga qaratiladi va 1- topshiriqda berilgan tayanch so'zlar: muhtasham va zamonaviy binolar, keng ko'chalar, haykal, qadimiy obidalar, chiroyli bekatlar, katta bozor so'zlari asosida gaplar tuzdiriladi.

**III. Nutqiy mavzu bayoni.** "Ona shahrim" matni ustida ishlanadi (1- mashq) va 2- topshiriqda berilgan savollar asosida o'quvchilarning ona shaharlari yoki qishloqlarida bo'layotgan o'zgarishlar, yangi qurilishlar haqida suhbatlashiladi. Avval matn o'qitiladi, so'ng o'quvchilar e'tibori matnda ajratib ko'rsatilgan qaratilmoqda, qurilmoqda, ta'mirlanmoqda, bormoqda, barpo etilmoqda so'zlariga qaratiladi. Ushbu so'zlar tahlili asosida grammatik qoida bayoniga o'tiladi.

**IV. Grammatik qoida bayonida** o'zbek tilida nutq so'zlanayotgan paytda sodir bo'layotgan ish-harakatni ifodalovchi fe'llar *-moqda* qo'shimchasi yordamida hosil qilinishi, bunday fe'llarning tuslanishi tushuntiriladi. Ushbu fe'llarning tuslanishini quyidagi slayd yordamida namoyish qilish maqsadga muvofiq:

Slayd namoyishi:

### Hozirgi zamon davom fe'lining tuslanishi

	<i>Birlik</i>	<i>Ko'plik</i>
I shaxs	<i>qurmoqdaman</i>	<i>qurmoqdamiz</i>
II shaxs	<i>qurmoqdasan</i>	<i>qurmoqdasiz</i>
III shaxs	<i>qurmoqda</i>	<i>qurmoqdalar</i>

**V. Mustahkamlash.** Buni 2 bosqichda o'tkazilishi maqsadga muvofiq:

⇒ A) Grammatik qoidani mustahkamlash uchun avval 2- mashqda berilgan so'zlarni o'zaro bog'lab gaplar tuzish topshirig'i bajartiriladi. Bunda o'quvchilar berilgan fe'llarni hozirgi zamon shakllarida qo'llashlari va nima uchun shu shaklda qo'llaganliklarini tushuntirishlari kerak. Ushbu topshiriqda 1-va 5- gap tarkibidagi fe'llar hozirgi-kelasi zamon shaklida, 2- va 3- gaplardagi fe'llar hozirgi zamon davom fe'li shaklida qo'llanishi kerak. Shu bois ushbu topshiriqni to'g'ri bajargan o'quvchilarni doskaga chiqarish va bu fe'llarning aynan shu shaklda qo'llanishi sababini tushuntirib berish avval o'tilgan mavzularni takrorlash va yangi mavzuni mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi.

⇒ B) Nutqiy mavzuni mustahkamlash uchun 3-topshiriqda berilgan suhbat matnidani foydalaniladi. O'quvchilar darslikda berilgan namunadan foydalanib, o'z shaharlari, qishloqlarida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari haqida bir-birlari bilan savol-javob qilib, o'zaro suhbatlashadilar.

*Namuna: — Shahringizning bosh maydonida qanday o'zgarishlar bo'lmoqda?*

*— Shahrimizning bosh maydoni eng obod joyga aylantirilmoqda, yangi favvoralar qurilmoqda.*

**VI. Darsni yakunlash.** O'qituvchi suhbatni yakunlaydi, dars jarayonida faol ishtirik etgan o'quvchilarni baholaydi va uyga vazifa topshiradi.

**Uyga vazifa.** O'z shahri yoki qishlog'ining ko'zga ko'ringan joylari haqida ma'lumot yozish.

## 48 - dars

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarda hozirgi zamon davom fe'lini qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish, ularning og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarni shahar va qishloqlarimizning tobora gullab-yashnayotgani bilan faxrlanishga undash, ularni Batanimizning munosib farzandlari bo'lishga chaqirish.

**Darsning jihozlanishi va vositalar.** "O'zbek tili" darsligi, proyektor, videolavhalar, yangi inshootlar rasmlari, slaydlar.

**Darsda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalar.** Interfaol metod, rolli o'qish va suhbat, guruhlarga bo'linib hamkorlikda ishlash, "Kim ko'p biladi?" o'yini, BBB usuli.

### Dars rejasi:

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rab baholash. 7 daqiqa
2. O'tilgan mavzuni takrorlash. "Hayvonot bog'ida" matni ustida ishlash (6-mashq). 8 daqiqa

3. Grammatik qoida bilan tanishtirish. Slaydlar namoyishi. 5 daqiqa
4. Grammatik qoidani mustahkamlash (4- mashq). 8 daqiqa
5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash (7- mashq). 7 daqiqa

6. Adabiy o'qish. 7 daqiqa
7. O'quvchilarni baholash va uyga vazifa. 3 daqiqa

### Darsning borishi.

#### I. Tashkiliy qism va uy vazifasini so'rab baholash.

**II. O'tilgan mavzuni takrorlash.** Darslikdagi sport kompleksi rasmini kuzatish va 4- topshiriqdagi suhbat matnini rollarga bo'lib o'qish, so'ngra matnni davom ettirish.

**III. Grammatik mavzuni mustahkamlash** uchun 3- mashqda berilgan "Olmaliq" matni o'qitiladi. O'quvchilar qavs ichida berilgan fe'llarni mos zamon shakliga qo'yib, matnni ko'chiradilar. So'ngra 5- topshiriq asosida berilgan javoblarga mos savollar tuzish mashqini bajaradilar.

**IV. Guruhlarga bo'linib ishlash.** O'tilgan mavzu bo'yicha egallangan bilimlarni amaliy qo'llash malakalarini aniqlash maqsadida o'quvchilar guruhlariga bo'linadi va "*Kim ko'p biladi?*" o'yini tashkil qilinadi. O'yin topshirig'iga ko'ra har bir guruh o'z shahri (qishlog'i)dagi tarixiy joylar haqida ma'lumotlar berishi kerak (6- topshiriq).

**V. Adabiy o'qish.** Yashar Xondamirning "Ustunlar" hikoyasini rolli o'qish va hikoya mazmunini qayta so'zlab berish va savollarga javob berish. Ushbu hikoya o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Shuning uchun barcha o'quvchilarni jalb qilgan holda 3-4 marta o'qitib chiqiladi. O'quvchilarga hikoyaning asosiy mazmunini o'z so'zi bilan so'zlab berish va hikoya sarlavhasiga hamda "Vatan ustunlarimiz" ifodasiga munosabat bildirish topshirig'i beriladi. O'quvchilar o'z fikrlarini bayon qilgach, o'qituvchi fikrlarni umumlashtirib, vatanning har bir zarrasi, har bir qarich eri, qishloqlarimiz, shaharlarimiz "Vatan ichra Vatan" ekanligi, biz fuqarolar esa shu Vatanning ustunlari ekanligimizni ta'kidlaydi.

**VI. Mavzuni yakunlash.** O'qituvchi aytilgan fikrlarni umumlashtiradi va mavzuni yakunlaydi. To'ldirilgan BBB kartochkalarini o'qitadi va darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholaydi.

**Uyga vazifa.** Hikoyaning mazmunini so'zlab berish va munosabat bildirish.

**XXII MAVZU: BUYUK ASTRONOM**  
**(-r (-ar) edi shaklli o'tgan zamon fe'lining**  
**tuslanishi va qo'llanishi)**

**49 - dars**

**Darsning maqsadi:**

**2. Tarbiyaviy maqsad.** O'quvchilarni Mirzo Ulug'bek haqidagi zaruriy ma'lumotlar bilan tanishtirish, ulug' ajdodlarimiz bilan faxrlanishga undash.

**1. Ta'limiy maqsad.** O'tgan davom zamon fe'li, uning yasalishi va imlosi, tuslanishi haqida ma'lumot berish, nutqda qo'llanishini o'rgatish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad.** O'quvchilarning o'z fikrini turli nutqiy vaziyatlarda og'zaki va yozma erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.

**Darsning jihozlanishi va vositalari.** "O'zbek tili" darsligi, elektron vositalar, rasmlar, slaydlar, shoir Dilshod Rajabning "Ulug' bobomiz" she'ri.

**Darsda qo'llanadigan metodlar.** Hamkorlik metodi, rolli o'qish, guruhlariga bo'linib ishlash, "Kim ko'p biladi?" o'yini, BBB usuli.

**Darsdan erishiladigan BKM natijalari.** O'quvchi -r (-ar), edi shaklli o'tgan zamon fe'li haqida nazariy bilimga ega bo'ladi, og'zaki va yozma nutqda amaliy qo'llash ko'nikmalari va o'tilgan mavzu bo'yicha suhbatlasha olish malakalari shakllanadi.

**Dars rejasi:**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rab baholash. 8 daqiqa
2. Nutqiy mavzu bayoni. O'qituvchining kirish so'zi va 1- topshiriqni bajarish. "Buyuk astronom" matni ustida ishlash (1- mashq). 12 daqiqa

3. Grammatik mavzu bayoni. 1- va 2- slaydlar namoyishi.

10 daqiqa

4. Mustahkamlash. 2-4- mashqlarni yozma va 2- topshiriqni ogʻzaki bajarish.

10 daqiqa

5. Darsni yakunlash, oʻquvchilarni baholash va uyga vazifa. "Ulugʻ bobomiz" sheʼrini yodlash.

5 daqiqa

## **Darsning borishi:**

### **I. Tashkiliy qism.**

Uy vazifasini soʻrab baholash. Oʻquvchilar adabiy oʻqish sifatida berilgan Yashar Xondamirning "Ustunlar" hikoyasi mazmunini soʻzlab beradilar, "Batan ustunlari" iborasiga oʻz munosabatlarini bildiradilar.

### **II. Yangi nutqiy mavzu bayoni quyidagi bosqichli ketma-ketlikda tashkil etish maqsadga muvofiq:**

A) Nutqiy mavzuga kirish suhbat. Oʻqituvchi kirish soʻzida "Batan ustunlari" iborasi boʻyicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar boʻlishga intiluvchi, ilm-fan choʻqqilarini egallab, vatanimizning gullab-yashnashiga xizmat qiluvchi yoshlar "Batan ustunlari" boʻla olishlarini taʼkidlaydi.

B) Yangi nutqiy mavzu oʻquvchilar eʼtiborini darslikda berilgan Mirzo Ulugʻbek haykali rasmiga qaratish bilan boshlanadi. Oʻquvchilarga 1- topshiriqda berilgan tayanch soʻzlar vositasida Mirzo Ulugʻbek va uning haykalini taʼriflovchi gaplar tuzish topshiriladi.

S) Oʻquvchilarga 1- mashqda berilgan "Buyuk astronom" matni oʻqitiladi, matndagi notanish soʻzlarning maʼnolari izohlanib, matnda ajratib koʻrsatilgan feʼl shakllari daftarga yozdiriladi. Shu misollar asosida grammatik mavzu bayoniga oʻtiladi.

### **III. Grammatik mavzu bayoni.**

Bu darsda oʻtgan zamon davom feʼllari harakatning oʻtgan zamonda davom etgani yoki bir necha bor takror

sodir bo'lganini bildirishi, ushbu zamon shakli fe'llarga *-r(-ar)* qo'shimchasi hamda edi fe'lini qo'shish orqali hosil qilinishi, bunda *-r* qo'shimchasi undosh tovush bilan tugagan fe'llarga, *-ar* qo'shimchasi unli tovush bilan tugagan fe'llarga qo'shilishi haqida ma'lumot beriladi. Og'zaki nutqda ko'pincha edi fe'li qisqartirilib *-di* shaklida qo'llanishi va bunda ushbu qo'shimcha fe'l asosiga qo'shib yozilishi alohida tushuntiriladi. Har ikki shakl uchun maxsus tayyorlangan slayd namoyishi orqali ushbu nazariy ma'lumot mustahkamlanadi.

Slayd namoyishi:

<b>O'tgan zamon davom fe'llarining hosil bo'lishi va tuslanishi</b>		
	<i>Birlik</i>	<i>Ko'plik</i>
I sh:	o'qir ( <i>ko'rar</i> ) edim	o'qir ( <i>ko'rar</i> ) edik
II sh:	o'qir ( <i>ko'rar</i> ) eding	o'qir ( <i>ko'rar</i> ) edingiz
III sh:	o'qir ( <i>ko'rar</i> ) edi	o'qir ( <i>ko'rar</i> ) edilar
	<i>Birlik</i>	<i>Ko'plik</i>
I shaxs	o'qirdim	o'qirdik
II shaxs	o'qirding	o'qirdingiz
III shaxs	o'qirdi	o'qirdilar

#### **IV. Mustahkamlash.**

Ushbu bosqichida darslikdagi mashq va topshiriqlar bilan ishlash ko'zda tutiladi. 2-4- mashqlar o'quvchilarning yozma nutqlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, unda grammatik bilimlar mustahkamlanadi. 2- topshiriqlarni bajarish esa o'quvchilarning og'zaki nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. 2- topshiriqda berilgan "Ulug' bobomiz" she'ri ifodali o'qitiladi, notanish so'zlar lug'ati ustida ishlanadi va uni yod olish uy vazifasi qilib topshiriladi.

#### **V. Darsni yakunlash.**

O'qituvchi o'tilgan mavzuni xulosalaydi va darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholaydi.

**Uyga vazifa.** "Ulug' bobomiz" she'rini yodlab kelish.

## 50 - dars

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarga o'tgan zamon fe'li, uning yasalishi ushbu fe'llarning imlosi va tuslanishi haqida ma'lumot berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarni buyuk astronom olim Mirzo Ulug'bek haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish, ajdodlarimiz bilan faxrlanishga undash, ularni munosib avlodlar bo'lishga chaqirish.

**Darsning jihozlanishi va vositalari.** "O'zbek tili" darsligi, elektron vositalar, rasmlar, slaydlar, shoir Dilshod Rajabning "Ulug' bobomiz" she'ri.

**Darsda qo'llanadigan metodlar.** Hamkorlik metodi, rolli o'qish, guruhlarga bo'linib ishlash, "Kim ko'p biladi?" o'yini, BBB usuli.

### Dars rejasi:

- |   |           |
|---|-----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rab baholash.                               | 8 daqiqa  |
| 2. Nutqiy mavzu bayoni. O'qituvchining kirish so'zi va 3- topshiriqni bajarish. | 10 daqiqa |
| 3. Grammatik mavzu bayoni. 1- va 2-slaydlar namoyishi.                          | 7 daqiqa  |
| 4. Mustahkamlash. 5-6-mashqlarni yozma va 7-mashqni og'zaki bajarish.           | 10 daqiqa |
| 5. Adabiy o'qish: «Mirzo Ulug'bek» matni  | 10 daqiqa |
| 6. Darsni yakunlash, o'quvchilarni baholash                                     | 5 daqiqa  |

### Darsning borishi.

I. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rab baholash. O'quvchilar shoir Dilshod Rajabning "Ulug' bobomiz" she'rini yod aytib beradilar.

II. O'tilgan darsni takrorlash 3-topshiriq asosida amalga oshiriladi. O'quvchilar darslikda berilgan rasadxona rasmini diqqat bilan kuzatadilar, sayyoh va muzey xodimi o'rtasidagi suhbat matnini rollarga bo'lib o'qiydilar.

**III. Grammatik mavzu bayonida o'tgan zamon davom fe'lining bo'lishsiz shakli haqida ma'lumot beriladi.** O'qituvchi darslikdagi qoida va slayd namoyishi vositasida o'tgan zamon davom fe'lining bo'lishsiz shakli *-mas* qo'shimchasi, uning qisqargan shakli esa *-masdi* qo'shimchasi orqali hosil qilinishini misollar vositasida tushuntiradi. Ushbu grammatik ma'lumotda quyidagi slayd namoyishidan foydalanish ko'zda tutiladi.

**O'tgan zamon davom fe'lining bo'lishsiz shakli**

*Birlik*

- I sh. o'qimas (ko'rmas) edim
- II sh. o'qimas(ko'rmas) eding
- III sh. o'qimas (ko'rmas)

*Ko'plik*

- I sh. o'qimas (ko'rmas) edik
- II sh. o'qimas (ko'rmas) edingiz
- III sh. o'qimas (ko'rmas) edilar

*Birlik*

- I sh. ko'rmasdim
- II sh. ko'rmasdingiz
- III shaxs ko'rmas

*Ko'plik*

- ko'rmasdik
- ko'rmasdingiz
- ko'rmasdilar

**IV. Mustahkamlash** bosqichida darslikdagi mashq va topshiriqlar bilan ishlash ko'zda tutiladi. 5-6- mashqlar grammatik bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan. 7- mashq o'quvchilardan boshlanishi berilgan matnlarni davom ettirishlari, tuzgan matnlarida o'tgan zamon fe'lining qaysi shaklidan foydalanganliklarini aytishlari talab etiladi. Bu nutqiy mavzu o'quvchilarning bog'lanishli nutq malakasini shakllantirishga yordam beradi.

**V. Adabiy o'qish** uchun berilgan "Mirzo Ulug'bek" matni o'quvchilarga "Zanjir" usulida o'qitiladi, notanish so'zlar lug'ati ustida ishlanadi.

**VI. Darsni yakunlash.** O'qituvchi o'quvchilar tomo-

nidan to'ldirilgan BBB kartochkalarini o'qitadi, darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholaydi.

**Uyga vazifa.** "Mirzo Ulug'bek" matnini o'qish va mazmunini so'zlab berish.

**XXIII MAVZU: BOBOM XOTIRALARI**  
**(-gan edi shaklli o'tgan zamon fe'lining**  
**tuslanishi va qo'llanishi)**

**51 - dars**

**Darsning texnologik xaritasi**

Mavzu	Sifatdosh
Maqsad va vazifalar	<p>Maqsad: O'zbek tilida uzoq o'tgan zamon fe'llari harakatning nutq so'zlanayotgan paytdan ancha oldin baja-rilganini bildirishi, uzoq o'tgan zamon fe'llari -gan qo'shimchasidan so'ng edi to'liqsiz fe'lini keltirish orqali, shuningdek, -gan qo'shimchasining o'zi bilan hosil qilinishi; ushbu fe'llarning bo'lishsiz shakli -ma qo'shimchasi yoki to'liqsiz fe'lning emas shaklini qo'shish orqali hosil qilinishi haqida nazariy ma'lumot berish.</p> <p>Vaziflar: O'quvshilarga "Bobom xotiralari" nutqiy mavzusi va grammatik mavzu bo'yicha bilim berish, bilimlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish, fikrni erkin ifodlash malakalarini shakllantirish; berilgan bilimning o'zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash.</p>
O'quv jarayonining mazmuni	<p>O'zbek tilida -gan qo'shimchasi bilan hosil qilinadigan uzoq o'tgan zamon fe'llari harakatning nutq so'zlanayotgan paytdan ancha oldin bajarilganini bildirishi, bu qo'shimchadan so'ng -man, -san, -miz, -siz shaxs-son qo'shimchalarini olib kelishi, bu fe'llarning bo'lishsiz shakli ushbu qo'shimchalardan oldin -ma qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinishi. Masalan: eshitganman, eshitgansan, eshitgan; eshitganmiz, eshitgansiz, eshitganlar. Uzoq o'tgan zamon fe'lining. Masalan: Biz bu voqealarni eshitmaganmiz.</p>

Mavzu	Sifatdosh
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Suhbat, ko'rsatmalilik, rolli o'qish metodlari. Shakl: Hamkorlikda va yakka tartibda ishlash. Vosita: Darslik, rasmlar, slayd. Nazorat: Savol-javob, mashq va topshiriqlar. Baholash: 5 ball tizim asosida. Uslub: Suhbat, ko'rsatmalilik, rolli o'qish metodlari. Shakl: Hamkorlikda va yakka tartibda ishlash. Vosita: Darslik, rasmlar, slayd. Nazorat: Savol-javob, mashq va topshiriqlar. Baholash: 5 ball tizim asosida.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	O'qituvchi: Mavzuning dars jarayonida ta'limning ilg'or usullari vositasida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. O'quvchi faolligini oshiradi. O'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otadi.
Kutiladigan natijalar	O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka va guruh bo'lib ishlashni o'rganadilar, nutqi rivojlanadi. Qisqa vaqt ishida fe'l shakllari yuzasidan yetarli ma'lutoga ega bo'ladi. O'qituvchi: Pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, o'z ustida ishlash.
Kelgusi rejalar	O'quvchi: Mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimsha materiallar izlaydi, ularni o'rganadi. Guruh fikrini tahlil qiladi.

### Dars rejasi:

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rab baholash. 8 daqiqa  
2. Nutqiy mavzu bayoni. 1-topshiriq asosida savol-javob o'tkazish. "Bobom xotiralari" matni ustida ishlash (1- mashq).  
10 daqiqa

3. Grammatik mavzu bayoni. Slaydlar namoyishi. 7 daqiqa  
4. Grammatik ma'lumotlarni mustahkamlash.  
2-3- mashqlarni yozma bajarish. 8 daqiqa

- |  |          |
|--|----------|
| 5. Nutqiy mavzuni mustahkamlash. "Soat" matni ustida ishlash (2- topshiriq). | 7 daqiqa |
| 6. Darsni yakunlash, o'quvchilarni baholash va uyga vazifa.                  | 5 daqiqa |

**Darsning borishi.**

**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasini so'rash va baholash.

**II. Yangi nutqiy mavzu bayoni.** O'qituvchi dars mavzusini e'lon qiladi va darslikdagi 1- topshiriqda berilgan savollarni o'rta tashlaydi:

- *Bobongiz bilan nimalar haqida suhbatlashasiz?*
- *Bobongiz qaysi kasb egasi bo'lganlar?*
- *Bobongizni ko'rgani tez-tez borib turasizmi?*

O'quvchilarning javoblaridan so'ng "Bobom xotiralari" matni o'qitiladi, ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor qaratiladi. O'qituvchi ushbu so'zlar vositasida grammatik mavzu — o'zbek tilidagi uzoq o'tgan zamon fe'llarining yasalishi va tuslanishi haqidagi grammatik qoidani tushuntirishga o'tadi.

**III. Grammatik qoida bayoni.** O'zbek tilida uzoq o'tgan zamon fe'llari hakatning nutq so'zlanayotgan paytdan ancha oldin bajarilganini bildirishi, uzoq o'tgan zamon fe'llari -gan qo'shimchasidan so'ng edi to'liqsiz fe'lini keltirish orqali, shuningdek, -gan qo'shimchasining o'zi bilan hosil qilinishi haqida nazariy ma'lumot beriladi. Slaydlar namoyishi orqali ushbu fe'llarning tuslanish shakllari tushuntiriladi:

Slayd namoyishi:

<b>Uzoq o'tgan zamon fe'llarining tuslanishi</b>		
	<i>Birlik</i>	<i>Ko'plik</i>
I shaxs	o'qigan edim	o'qigan edik
II shaxs	o'qigan eding	o'qigan edingiz
III shaxs	o'qigan edi	o'qigan edilar

	<i>Birlik</i>	<i>Ko'plik</i>
I shaxs	o'qiganman	o'qiganmiz
II shaxs	o'qigansan	o'qigansiz
III shaxs	o'qigan	o'qiganlar

**IV. Grammatik ma'lumotlarni mustahkamlash.** Darslikdagi 2-3- mashqlar yozma bajartiriladi. Berilgan fe'llarni uzoq o'tgan zamon shakllarida tuslash va berilgan gaplardagi fe'llarni uzoq o'tgan zamon shakli bilan almash-tirib yozish orqali o'quvchilarda ushbu fe'llarni nutqda amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantiriladi. O'quvchilar 3- mashqni darslikda berilgan namuna asosida bajaradilar. Mashq topshirig'i asosida fe'lning zamon shakllari ma'no-laridagi farqni tushuntirish o'quvchilarga bilimlarini tushu-nib egallashga yordam beradi.

**V. SNutqiy mavzuni mustahkamlash.** Yozuvchi O'lmas Umarbekovning "Soat" hikoyasi o'qitiladi. Ushbu hikoyaning tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, o'qituvchi hikoyani o'qitish jarayonida o'quvchilar diqqatini jamlashga, "Bu oddiy soat emas, dadamlarniki" gaplariga alohida e'tibor qaratishi zarur. Hikoya mazmunini so'zlab berish va oxirgi abzatsdagi gaplarning mazmuni bo'yicha suhbat tashkil etish bobolarimiz xotiralarini e'zozlash kerakligini o'rgatishga xizmat qiladi.

**VI. Darsni yakunlash.** Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholash.

**Uyga vazifa.** "Soat" hikoyasini o'qib so'zlab berish.

## 52 - dars

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarga o'tgan zamon davom fe'lining bo'lishsiz shakllari, ularning yasa-lishi, imlosi va tuslanishi haqida ma'lumot berish, ushbu fe'llarni nutqda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarni bobolar xotiralari, bobolarimizning bizning kelajagimiz uchun jon fido qilganliklari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish, ajdodlarimiz bilan faxrlanishga undash, ularni munosib avlodlar bo'lishga chaqirish.

**Darsning jihozlanishi va vositalari.** "O'zbek tili" darsligi, elektron vositalar, rasmlar, slaydlar, O'lmas Umarbekovning "Soat" hikoyasi, BBB kartochkalari.

**Darsda qo'llanadigan metodlar.** Hamkorlik metodi, rolli o'qish, BBB usuli.

#### **Dars rejasi**

1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rab baholash.

8 daqiqa

2. Nutqiy mavzu bayoni. O'qituvchining kirish so'zi va "Xotira maydonida" matni ustida ishlash (4- mashq va 3- topshiriq).

7 daqiqa

3. Grammatik mavzu bayoni. Slaydlar namoyishi.

7 daqiqa

4. Mustahkamlash. 5- mashqni yozma va 4- topshiriqni og'zaki bajarish.

8 daqiqa

5. Adabiy o'qish. «Bobo va nabira» matni.

10 daqiqa

6. Darsni yakunlash, o'quvchilarni baholash va uyga vazifa.

5 daqiqa

#### **Darsning borishi.**

**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasini so'rash va baholash.

**II. O'tilgan mavzuni takrorlash.** O'quvchilarga "Xotira maydonida" matni o'qitiladi, 3- topshiriqdagi savollar asosida suhbat tashkil etiladi.

**III. Grammatik qoida bayoni.** Ushbu darsda uzoq o'tgan zamon fe'lining bo'lishsiz shakli *-ma* qo'shimchasi yoki emas to'liqsiz fe'lini qo'shish orqali hosil qilinishi, ularning tuslanishi haqida ma'lumot beriladi. Bunda quyidagi slaydlardan foydalanish ko'zda tutiladi:

Slayd namoyishi:

**Uzoq o'tgan zamon fe'llari bo'lishsiz shaklining  
tuslanishi:**

	<i>Birlik</i>	<i>Ko'plik</i>
I shaxs	o'qimagan edim	o'qimagan edik
II shaxs	o'qimagan eding	o'qimagan edingiz
III shaxs	o'qimagan edi	o'qimagan edilar
	<i>Birlik</i>	<i>Ko'plik</i>
I shaxs	o'qimaganman	o'qimaganmiz
II shaxs	o'qimagansan	o'qimagansiz
III shaxs	o'qimagan	o'qimaganlar

**IV. Mavzuni mustahkamlash.** Darslikdagi 5- mashq va 3-4- topshiriqlar bajartiriladi. 5- mashq grammatik bilimlarni mustahkamlashga, 4- topshiriqda berilgan javoblarga savollar tuzish nutqiy mavzuni mustahkamlashga qaratilgan.

**V. Adabiy o'qish** uchun berilgan Abdulhay Nosirovning "Bobo va nabira" hikoyasi ustida ishlash. Rolli o'qish. Hikoya matni 4-5 juft o'quvchilarga ifodali o'qitiladi, notanish so'zlar ma'nosi izohlanadi.

**VI. Mavzuni yakunlash.** BBB kartochkalari asosida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash va faol o'quvchilarni baholash.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman

**Uyga vazifa.** "Bobo va nabira" hikoyasini o'qish va unga munosabat bildirish.

**XXIV MAVZU: O‘QUVCHINING KUN TARTIBI**  
**(-moqchi shaklli kelasi zamon fe‘lining**  
**tuslanishi va qo‘llanishi)**

**53 - dars**

**Darsning ta’limiy maqsadi.** O‘quvchilarga kelasi zamon fe’llari, ularning *-moqchi* qo‘shimchasi bilan hosil qilinishi va tuslanishi haqida ma’lumot berish, ushbu fe’llarni nutqda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O‘quvchilarni vaqtdan unumli foydalanishga odatlantirish, reja bilan ish yuritishga, kun tartibiga rioya qilishga undash.

**Darsning jihozlanishi va vositalari.** "O‘zbek tili" darsligi, elektron vositalar, rasmlar, slaydlar.

**Darsda qo‘llanadigan metodlar.** Hamkorlik, tahlil va qiyoslash metodi, rolli o‘qish, rivojlantiruvchi.

**Dars rejasi:**

- |  |           |
|--|-----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so‘rab baholash.  | 10 daqiqa |
| 2. Nutqiy mavzu bayoni. O‘qituvchining kirish so‘zi va 1-2- topshiriqlarni bajarish. Suhbat. | 8 daqiqa  |
| 3. Grammatik mavzu bayoni. Qoidani tushuntirish va slayd namoyishi.                          | 8 daqiqa  |
| 4. Mustahkamlash (1-4- mashqlar).  | 12 daqiqa |
| 5. Adabiy o‘qish. «Bebaho boylik» matni ustida ishlash.                                      |           |
| 6. Darsni yakunlash, o‘quvchilarni baholash va uyga vazifa.                                  | 7 daqiqa  |

**Darsning borishi: I. Tashkiliy qism.**

**II. Yangi nutqiy mavzu bayoni.**

A) O‘quvchilar diqqatini darslikdagi vaqt ko‘rsatkichlariga qaratish. O‘quvchilar ko‘rsatilgan vaqtlarda nimalar qilishlarini aytib beradilar (1- topshiriq)

B) Suhbat matnini rolli o‘qitish va ajratilgan fe’llarni tahlil qilish (2- topshiriq).

**III. Grammatik mavzu bayoni.** Ushbu darsda o‘quvchilarga kelasi zamon fe’llari, ularning kelasi zamonda maqsad qilingan ish-harakatni bildirishi, *-moqchi* qo‘shimchasi bilan hosil qilinishi va tuslanishi haqida ma’lumot beriladi. Grammatik qoidani tushuntirishda slayd namoyishidan foydalanish ko‘zda tutiladi.

Slayd namoyishi:

<b>Kelasi zamon maqsad fe’lining tuslanishi</b>		
	<b>Birlik</b>	<b>Ko‘plik</b>
I shaxs	o‘qimoqchiman	o‘qimoqchimiz
II shaxs	o‘qimoqchisan	o‘qimoqchisiz
III shaxs	o‘qimoqchi	o‘qimoqchilar

**IV. Mavzuni mustahkamlash** darslikdagi 2-4- mashqlar asosida amalga oshiriladi. 1- mashq berilgan grammatik bilimni mustahkamlashga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan namuna asosida fe’llardan kelasi zamon maqsad fe’llarini hosil qilishlari va tuslab yozishlari kerak.

*Namuna:* Qatnashmoqchiman, qatnashmoqchisan, qatnashmoqchi, qatnashmoqchimiz, qatnashmoqchisiz, qatnashmoqchilar.

2- mashq topshirig‘ida o‘quvchilarda kelasi zamon fe’llarini mustaqil qo‘llash ko‘nikmasini hosil qilishni ko‘zda tutilgan. O‘quvchilar nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan fe’llarni kelasi zamon maqsad fe’li shaklida qo‘llab yozadilar.

3-4- mashqlar ham grammatik mavzuni, ham nutqiy mavzuni mustahkamlashga qaratilgan.

4- mashqda o‘quvchilar mashq topshirig‘i asosida gaplar tuzadilar va rasmlarda tasvirlangan tengdoshlarining vaqtdan qanday foydalanganliklarini bir-biriga qiyoslab aytib beradilar. Ulardan qaysi biri vaqtdan unumli foydalangani, buning sababi nimada ekanligi yuzasidan suhbat tashkil etiladi.

O'qituvchi bildirilgan fikrlarni umumlashtiradi va vaqtdan unumli foydalanish uchun reja bilan ish tutish zarurligini uqtiradi.

So'ng adabiy o'qish uchun berilgan «Bebaho boylik» matni ustida ishlanadi. O'quvchilarga matn rollarga bo'lib o'qitiladi va hikoya yuzasidan savol-javob qilinadi.

**V. Darsni yakunlash:** faol o'quvchilarni baholash.

**Uyga vazifa:** keyingi haftada bajarmoqchi bo'layotgan ishlaringiz rejasini tuzish.

## 54 - dars

**Darsning ta'limiy maqsadi.** O'quvchilarga kelasi zamon fe'llarining bo'lishsiz shaklini emas to'liqsiz fe'li yordamida hosil qilinishi haqida ma'lumot berish, ularda kelasi zamon fe'llarining bo'lishli va bo'lishsiz shakllarini nutqda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** O'quvchilarga kun tartibi haqida berish, ularni vaqtni qadrlashga undash, vaqtdan unumli foydalanish uchun reja bilan ish yuritishga, kun tartibiga rioya qilishga chaqirish.

**Darsning jihozlanishi va vositalari.** "O'zbek tili" darsligi, elektron vositalar, rasmlar, slaydlar.

**Darsda qo'llanadigan metodlar.** Hamkorlik, tahlil va qiyoslash metodi, rolli o'qish, rivojlantiruvchi.

- |   |           |
|---|-----------|
| 1. Tashkiliy qism. Uy vazifasini so'rab baholash.   | 7 daqiqa  |
| 2. Nutqiy mavzu bayoni. O'qituvchining kirish so'zi va 3-4- topshiriqni bajarish. Suhbat. | 10 daqiqa |

- |   |           |
|---|-----------|
| 3. Grammatik mavzu bayoni. Qoidani tushuntirish va slayd namoyishi. | 8 daqiqa  |
| 4. Mustahkamlash (5-7- mashqlar).                                   | 10 daqiqa |

5. Adabiy o'qish. «Bebaho boylik» hikoyasi.	7 daqiqa
6. Darsni yakunlash, oquvchilarni baholash va uyga vazifa.	3 daqiqa

**Dars rejasi:**

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Uy vazifasini so'rab baholash. O'quvchilar hafta ichida bajarmoqchi bo'lgan ishlari rejasini o'qib beradilar.

**II. O'tilgan mavzuni takrorlash.** Avval 3-topshiriqdagi suhbat matni bir necha o'quvchilarga rolli o'qish tarzida o'qitiladi. Har bir juftlik suhbat matnini davom ettiradi va o'zlarining bir kunlik ish rejalari haqida so'zlab beradilar. So'ngra "Kun tartibi nima?" matni ustida ishlanadi. O'quvchilar matnni ovoz chiqarib o'qiydilar. Matn so'nggida berilgan savollarga javob beradilar va xulosa sifatidan ajratib ko'rsatilgan gapni daftarlariga ko'chirib yozadilar.

**III. Grammatik mavzu bayoni.**

Ushbu darsda o'quvchilarga kelasi zamon maqsad fe'lining bo'lishsiz shakli -moqchi qo'shimchasi so'ng emas to'liqsiz fe'lini qo'shish orqali hosil qilinishi va tuslanishi haqida ma'lumot beriladi.

Grammatik qoidani quyidagi slayd namoyishi bilan tushuntirish ko'zda tutiladi.

Slayd namoyishi:

**Kelasi zamon maqsad fe'li bo'lishsiz shaklining  
tuslanishi**

<i>Birlik</i>	<i>Ko'plik</i>
I sh. o'qimoqchi emasman	o'qimoqchi emasmiz
II sh. o'qimoqchi emassan	o'qimoqchi emassiz
III sh. o'qimoqchi emas	o'qimoqchi emaslar

**IV. Mavzuni mustahkamlash** uchun darslikdagi 6-7- mashqlar yozma bajartiriladi. Ushbu mashqlar berilgan grammatik bilimni mustahkamlashga va o'quvchilarda kelasi zamon fe'llarining bo'lishli va bo'lishsiz shakllarini amaliy qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan.

**V. Adabiy o'qish** uchun yozuvchi Hakim Nazirning "Bebaho boylik" hikoyasi berilgan. Hikoya avval "Zanjir" usulida, so'ngra rolli o'qish tarzida o'qitiladi. So'ngra hikoyaning mazmuni bo'yicha suhbat tashkil etiladi. Xulosa qismida berilgan "Baqting ketdi, naqding ketdi" maqoli izohidan kelib chiqib, 4- topshiriqdagi maqollar ustida ishlanadi.

**VI. Mavzuni yakunlash.** BBB kartochkalari asosida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash, faol o'quvchilarni baholash.

**Uyga vazifa:** «Yozgi ta'til rejasi»ni tuzish.

## MUNDARIJA

UQTIRISH XATI .....	3
I MAVZU. OBOD O'IKAM .....	10
II MAVZU. OROMGOHDA .....	15
III MAVZU: BILIM — XAZINA .....	20
IV MAVZU. SINFLAR RAHBARI .....	25
V MAVZU. ADABIYOT MUZEYIDA .....	30
VI MAVZU. MEN SEVGAN KO'RSATUV .....	36
VII MAVZU. KUZGI NE'MATLAR .....	41
VIII MAVZU. KUTUBXONADA .....	49
IX MAVZU. QADIMIY VA NAVQIRON SHAHARLAR .....	56
X MAVZU. TABIAT VA IQLIM. ....	65
XI MAVZU. CHIMYON TOG'LARIDA .....	71
XII MAVZU. YANGI YIL REJASI .....	76
XIII MAVZU. ONA YURT POSBONLARI.....	82
XIV MAVZU. SRORT — SALOMATLIK GAROVI .....	87
XV MAVZU. SALOMATLIK - TUMAN BOYLIK.....	93
XVI MAVZU. BUYUK ALLOMLARIMIZ .....	98
XVII MAVZU. BAHORGI ISHLAR .....	103
XVIII MAVZU. MILLIY TAOMLAR .....	108
XIX MAVZU. NAVRO'Z UDUMLARI.....	112
XX MAVZU. DAM OLIH KUNI .....	117
XXI MAVZU. ONA SHAHRIM.....	122
XXII MAVZU. BUYUK ASTRONOM .....	127
XXIII MAVZU. BOBOM XOTIRALARI.....	132
XXIV MAVZU. O'QUVCHINING KUN TARTIBI .....	138

**Hadicha Sobirovna MUHITDINOVA,  
Yashnar Ibragimovich AVLAKULOV,  
Dildora Abrorovna NURIDDINOVA**

## **O‘zbek tili**

*Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan  
maktablarning 6- sinf o'qituvchilari uchun  
metodik qo'llanma*

Toshkent – «Yangiyo‘l poligraf servis» – 2013

*Ijodiy guruh rahbari — Akbar Mirzo*

Muharrir	A. Nurmatov
Rassom	L. Dabija
Texnik muharrir	Y. Kim
Musahhiha	N. Kabiroya
Sahifalovchi	H. Xo‘jayeva

Nashriyot lisenziyasi AI № 185. 10.05.2011. Bosishga ruxsat etildi:  
16.08.2013. Bichimi: 60 x 90 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Kegli: 12,0. SchoolBook garnituras.  
Ofset bosma usulida bosildi.  
Nashr bosma tabog‘i. 8,5. Bosma tabog‘i 9,0. Nuxsasi ...  
Buyurtma № ... .

Darslik original-maketi «MITTI YULDUZ» MCHJ da nashrga tayyorlandi va  
egalik huquqi unga tegishlidir. Navoiy ko‘chasi, 30- uy.

«Yangiyo‘l poligraf servis» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
112001, Toshkent viloyati, Yangiyo‘l tumani, Samarqand ko‘chasi, 44.